H. R. LATIPOV, R. R. ABZALIMOV,
I. K. URAZBAYEVA

OLIY MATEMATIKA

$$\frac{dy}{dx} = \lim_{\Delta x \to 0} \frac{\Delta y}{\Delta x}$$

$$\int f(x)dx = F(x) + C$$

H.R. LATIPOV, R.R. ABZALIMOV,
I.K. URAZBAYEVA

OLIY MATEMATIKA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi texnik oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan

TOShKENT – «ALOQAChI» – 2005

H. R. Latipov, R. R. Abzalimov, I. K. Urazbayeva. Oliy matematika. T., «Aloqachi» nashriyoti, 2005, 180- bet.

Taqrizchilar: A.R.Beruniy nomidagi Toshkent Davlat Texnika universiteti «1-Oliy matematika» kafedrasi dotsenti **Sh.I.Tojiyev,** O'zbekiston Fanlar Akademiyasi matematika instituti katta ilmiy xodimi, fizika - matematika fanlari nomzodi **O. Sh. Sharipov,** Mirza Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining mexanika-matematika fakulteti dekani, dotsent **B. Shoimqulov,** Mirza Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining mexanika-matematika fakulteti «Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika» kafedrasi dotsenti **A. Djamirzayev,** Mirza Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining «Matematik analiz» kafedrasi dotsenti **N. Sultonov,** Mirza Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining «Geometriya va matematika tarixi» kafedrasi mudiri, professor **A. Narmanov,** Mirza Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining «Geometriya va matematika tarixi» kafedrasining katta o'qituvchisi **F. Ibragimov.**

MUNDARIJA

So'z boshi 4

I BOB. NAZARIY MA'LUMOTLAR

1-§. Chiziqli algebra va analitik geometriya..............................6
2-§. Matematik analizga kirish..38
3-§. Bir o'zgaruvchili funksiyaning integrali...........................45
4-§. Ko'p o'zgaruvchili funksiyalar..49
5-§. Oddiy differensial tenglamalar..50
6-§. Sonli va funksional qatorlar..53
7-§. Karrali,egri chiziqli integrallar..54
8-§. Kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasi.................56
9-§. Ehtimollar nazariyasi...57
10-§. Matematik statistika elementlari.......................................60

II BOB. YOZMA ISh VARIANTLARINING NAMUNAVIY YEChIMLARI

1-§. Birinchi yozma ish...63
2-§. Ikkinchi yozma ish...81
3-§. Uchinchi yozma ish...91
4-§. To'rtinchi yozma ish..102

III BOB. YOZMA ISh TOPShIRIQLARI

1-§. Birinchi yozma ish topshiriqlari.......................................112
2-§. Ikkinchi yozma ish topshiriqlari 134
3-§. Uchinchi yozma ish topshiriqlari.......................................149
4-§. To'rtinchi yozma ish topshiriqlari.....................................163
Adabiyotlar...176
Yozma ish variantlari..177

SO‘Z BOShI

Oliy texnika o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalarni keng miqyosda bilimli bakalavr mutaxassis qilib etishtirishning asosiy omillaridan biri oliy matematika fanini chuqur o‘rganishdadir. Shuning bilan bir qatorda oliy texnika o‘quv yurtlari uchun oliy matematika fani bo‘yicha ajratilgan ma’ruza va amaliy darslar soati kam miqdorda bo‘lganligi tufayli ularning chuqur bilim olishlari uchun mustaqil ish bajarish jarayonining ahamiyati juda xam kattadir. Oliy matematikadan o‘zbek tilida oliy texnika o‘quv yurtlari uchun talabalarning mustaqil ish bajarishlariga mo‘ljallab yozilgan adabiyot va o‘quv qo‘llanmalar deyarli yo‘q bo‘lganligi uchun, talabalar oliy matematikadan mustaqil ish bajarish jarayonida katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu boisdan mazkur qo‘llanma katta ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda, talabalar uchun oliy matematikani mustaqil yozma ish topshiriqlarini bajarib o‘rganishda yaqindan yordam beradi.

Mazkur qo‘llanma bakalavr muxandislar tayyorlash ta’lim va bilimlar sohasi yo‘nalishi bo‘yicha davlat standartiga mos kelishi bilan bir qatorda bu qo‘llanma bakalavr mutaxassisligi bo‘yicha «Oliy matematika» rejasi asosida yozilgan. Bu o‘quv qo‘llanmada oliy texnika o‘quv yurtlari talabalari uchun qisqacha nazariy ma’lumotlar va yozma ish topshiriqlari keltirilgan bo‘lib, undan tashqari ko‘rsatma sifatida har bir yozma ishdan bittadan variantning yechimi namunasi ko‘rsatilgan.

Holisona taqriz va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘rsatganlari uchun Mirza Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, mexanika-matematika fakultetining «Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika» kafedrasi dotsenti A. Djamirzaevga, «Matematik analiz» kafedrasi dotsentlari B. Shoimqulovga, N. Sultonovga, «Geometriya va matematika tarixi» kafedrasi mudiri prof. A. Narmanovga, katta o‘qituvchi F. Ibragimovga, A.R.Beruniy nomidagi Toshkent

Davlat Texnika universiteti «Oliy matematika» kafedrasi dotsenti Sh.I.Tojieyvga, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi matematika instituti katta ilmiy xodimi, fizika - matematika fanlari nomzodi O. Sh. Sharipovga mualliflar o‘zlarining samimiy minnatdorchiliklarini bildiradilar.

Mazkur qo‘llanma, albatta, kamchiliklardan xoli emas, shu sababdan mualliflar qo‘llanmani yanada takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

Mualliflar

I BOB. NAZARIY MA'LUMOTLAR

1-§. ChIZIQLI ALGEBRA VA ANALITIK GEOMETRIYA

Ikkinchi tartibli determinantlar va chiziqli tenglamalar sistemasi

$\begin{pmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{pmatrix}$ – jadvalga mos ikkinchi tartibli determinant

$$\begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix} = a_1b_2 - a_2b_1$$

tenglik bilan aniqlanadi. Ikki noma'lumli ikkita chiziqli tenglamalar sistemasida

$$\begin{cases} a_1x + b_1y = c_1 \\ a_2x + b_2y = c_2 \end{cases},$$

uning asosiy determinanti $D = \begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix} \neq 0$ bo'lsa, u yagona yechimga ega bo'lib, yechim Kramer formulalaridan topiladi:

$$x = \frac{D_x}{D} = \frac{\begin{vmatrix} c_1 & b_1 \\ c_2 & b_2 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix}}; \quad y = \frac{D_y}{D} = \frac{\begin{vmatrix} a_1 & c_1 \\ a_2 & c_2 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix}}$$

Agar D=0 bo'lsa, sistema yoki birgalikda emas (D_x, D_y larning kamida bittasi noldan farqli), yoki cheksiz ko'p yechimga ega ($D_x = D_y = 0$).

Uchinchi tartibli determinant va chiziqli tenglamalar sistemasi

$\begin{pmatrix} a_1 & b_1 & c_1 \\ a_2 & b_2 & c_2 \\ a_3 & b_3 & c_3 \end{pmatrix}$ elementlar jadvaliga mos uchinchi tartibli determinant

$$\begin{vmatrix} a_1 & b_1 & c_1 \\ a_2 & b_2 & c_2 \\ a_3 & b_3 & c_3 \end{vmatrix} = a_1b_2c_3 + a_2b_3c_1 + a_3b_1c_2 - a_3b_2c_1 - a_1b_3c_2 - a_2b_1c_3$$

tenglik bilan aniqlanadi.

Uchinchi tartibli determinantning berilgan elementini o'z ichiga olgan yo'l va ustunni o'chirishdan hosil bo'lgan ikkinchi tartibli determinantga uchinchi tartibli determinantning berilgan elementining minori deb ataladi. Minorning $(-1)^k$ ga ko'paytmasi berilgan elementning algebraik to'ldiruvchisi deyiladi. (k- berilgan elementni o'z ichiga olgan yo'l va ustun nomerlari yig'indisi). Shunday qilib, determinantning elementiga mos minor ishorasi quyidagi $\begin{vmatrix} + & - & + \\ - & + & - \\ + & - & + \end{vmatrix}$ jadval bilan aniqlanadi.

1-TEOREMA

Uchinchi tartibli determinant ixtiyoriy yo'l (ustun) elementlarini o'z algebraik to'ldiruvchilariga ko'paytmalarining yig'indisiga teng

Bu teorema determinantni ixtiyoriy yo'l elementlari bo'yicha yoyib, uning qiymatini hisoblashga yordam beradi.

Determinantning xossalari:

1. Agar determinantning yo'llarini ustunlari bilan yoki ustunlarini yo'llari bilan almashtirsak, determinantning qiymati o'zgarmaydi.

2. Determinantning biror yo'lidagi yoki ustunidagi elementlari umumiy ko'paytuvchiga ega bo'lsa, uni determinantning tashqarisiga chiqarish mumkin.

3. Determinantning biror yo'l elementlari boshqa yo'l elementlariga teng bo'lsa, unday determinant nolga teng.

4. Agar determinantning ikkita yo'lining o'rnini almashtirsak, uning ishorasi teskarisiga o'zgaradi.

5. Agar determinantning biror yo'l elementlariga boshqa yo'l elementlarini noldan farqli songa ko'paytirib qo'shsak, uning qiymati o'zgarmaydi.

Uch noma'lumli uchta chiziqli tenglamalar sistemasida

$$\begin{cases} a_1x + b_1y + c_1z = d_1 \\ a_2x + b_2y + c_2z = d_2 \\ a_3x + b_3y + c_3z = d_3 \end{cases}$$

uning asosiy determinanti

$$D = \begin{vmatrix} a_1 & b_1 & c_1 \\ a_2 & b_2 & c_2 \\ a_3 & b_3 & c_3 \end{vmatrix} \neq 0$$ bo'lsa, u yagona yechimga ega bo'lib, yechimni quyidagi Kramer formulalaridan foydalanib topiladi:

$x=D_x/D$, $y=D_y/D$, $z=D_z/D$,

Bu erda,

$$D_x = \begin{vmatrix} d_1 & b_1 & c_1 \\ d_2 & b_2 & c_2 \\ d_3 & b_3 & c_3 \end{vmatrix}, \quad D_y = \begin{vmatrix} a_1 & d_1 & c_1 \\ a_2 & d_2 & c_2 \\ a_3 & d_3 & c_3 \end{vmatrix}, \quad D_z = \begin{vmatrix} a_1 & b_1 & d_1 \\ a_2 & b_2 & d_2 \\ a_3 & b_3 & d_3 \end{vmatrix}$$

Agar D=0 bo'lsa, sistema yoki birgalikda emas (D_x, D_y, D_z larning kamida bittasi noldan farqli), yoki cheksiz ko'p yechimga ega ($D_x = D_y = D_z = 0$).

Agar bir jinsli sistema

$$\begin{cases} a_1x + b_1y + c_1z = 0 \\ a_2x + b_2y + c_2z = 0 \\ a_3x + b_3y + c_3z = 0 \end{cases}$$

ning determinanti noldan farqli bo'lsa, u yagona x=0, y=0, z=0 yechimga ega bo'ladi. Agar bir jinsli sistemaning determinanti nolga teng bo'lsa, sistema ikkita tenglamaga yoki bitta tenglamaga keladi. Agar sistemaning minorlaridan kamida biri noldan farqli bo'lsa, birinchi xol, hamma minorlar nol bo'lsa, ikkinchi hol ro'y beradi. Bu ikki holda ham sistema cheksiz ko'p yechimlarga ega bo'ladi.

n-nchi tartibli determinant

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} & a_{14} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} & a_{24} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} & a_{34} \\ a_{41} & a_{42} & a_{43} & a_{44} \end{pmatrix}$$

elementlar jadvaliga mos keluvchi 4-tartibli determinant

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} & a_{14} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} & a_{24} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} & a_{34} \\ a_{41} & a_{42} & a_{43} & a_{44} \end{vmatrix} = a_{11} \cdot \begin{vmatrix} a_{22} & a_{23} & a_{24} \\ a_{32} & a_{33} & a_{34} \\ a_{42} & a_{43} & a_{44} \end{vmatrix} - a_{12} \cdot \begin{vmatrix} a_{21} & a_{23} & a_{24} \\ a_{31} & a_{33} & a_{34} \\ a_{41} & a_{43} & a_{44} \end{vmatrix} +$$

$$+ a_{13} \cdot \begin{vmatrix} a_{21} & a_{22} & a_{24} \\ a_{31} & a_{32} & a_{34} \\ a_{41} & a_{42} & a_{44} \end{vmatrix} - a_{14} \begin{vmatrix} a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \\ a_{41} & a_{42} & a_{43} \end{vmatrix}$$

tenglik bilan aniqlanadi. Xuddi shuning kabi, 5-tartibli va hokazo tartibli determinant tushunchasini kiritish mumkin.

Ixtiyoriy tartibli determinantlar ucun, 3-tartibli determinantlarda kiritilgan algebraik to'ldiruvchilar haqidagi teorema va biror elementning minor hamda algebraik to'ldiruvchisi ta'rifi o'zgarmasdan qoladi. Shunday qilib, a_{ik} elementning minorini M_{ik}, algebraik to'ldiruvchisini A_{ik} bilan belgilab,

$$A_{ik} = (-1)^{i+k} M_{ik}$$

ga ega bo'lamiz.

D n-nchi tartibli determinant bo'lsin. Uni avval i-nchi yo'lning elementlari bo'yicha, so'ngra k-nchi ustunning elementlari bo'yicha yoyib, 1-teoremaga asosan,

$$D = a_{i1}A_{i1} + a_{i2}A_{i2} + ... + a_{in}A_{in}$$

$$D = a_{1k}A_{1k} + a_{2k}A_{2k} + ... + a_{nk}A_{nk}$$

ga ega bo'lamiz.

Ikkinchi va uchinchi tartibli determinantlarning xossalari ixtiyoriy tartibli determinantlar uchun o'rinlidir.

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + ... + a_{1n}x_n = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + ... + a_{2n}x_n = b_2 \\ .... \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + ... + a_{nn}x_n = b_n \end{cases}$$

sistemaning determinanti

$$D = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & ... & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & ... & a_{2n} \\ ... & ... & ... & ... \\ a_{n1} & a_{n2} & ... & a_{nn} \end{vmatrix} \neq 0$$

bo'lsa, uning yechimlari $x_1 = \frac{D_1}{D}$, $x_2 = \frac{D_2}{D}$, ... $x_n = \frac{D_n}{D}$ formulalardan topiladi. Bu formulalarda D – sistemaning determinanti, D_k, $(k = 1,2,...,n)$ sistemaning determinantida k-nchi tartibli ustunni (aniqlanadigan noma'lumlar oldidagi

koeffitsientlar ustuni) ozod ustuni bilan almashtirishdan hosil bo'lgan:

$$D_k = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & ... & a_{1,k-1} & b_1 & a_{1,k+1} & ... & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & ... & a_{2,k-1} & b_2 & a_{2,k+1} & ... & a_{2n} \\ ... & ... & ... & ... & ... & ... & ... & ... \\ a_{n1} & a_{n2} & ... & a_{n,k-1} & b_n & a_{n,k+1} & ... & a_{nn} \end{vmatrix}$$

determinant. Agar $D = 0$ bo'lsa, sistema yoki birgalikda emas ($D_1, D_2, ..., D_n$ larning kamida bittasi noldan farqli), yoki cheksiz ko'p yechimga ega ($D_1 = D_2 = ... = D_n = 0$).

To'g'ri chiziqdagi koordinatalar

x absissaga ega bo'lgan OX koordinata o'qining M nuqtasi M(x) bilan belgilanadi. $M_1(x_1)$ va $M_2(x_2)$ nuqtalar orasidagi masofa $d = |x_2 - x_1|$ formula bilan aniqlanadi.

Ixtiyoriy to'g'ri chiziqda AB (A–kesmaning boshi, B–oxiri) kesma berilgan bo'lsin: u holda bu to'g'ri chiziqning ixtiyoriy C nuqtasi AB kesmani qandaydir λ nisbatda bo'ladi, bu erda λ = ± |AC| : |CB|. Agar AC, CB kesmalar bir tomonga qarab yo'nalgan bo'lsa, "+" ishora, qarama-qarshi tomonga yo'nalgan bo'lsa "-" ishora olinadi. Boshqacha qilib aytganda, agar C nuqta A va B nuqtalar orasida yotsa, λ musbat, tashqarida yotsa, manfiy bo'ladi.

Agar A va B nuqtalar OX o'qida yotsa, $A(x_1)$ va $B(x_2)$ nuqtalarni λ nisbatda bo'luvchi $C(\overline{x})$ nuqtaning koordinatalari

$$\overline{x} = \frac{x_1 + \lambda x_2}{1 + \lambda}$$

formula bilan aniqlanadi. Hususiy holda, agar λ=1 bo'lsa, kesma o'rtasining koordinatalari uchun

$$\overline{x} = \frac{x_1 + x_2}{2}$$

formula kelib chiqadi.

Tekislikdagi to‘g‘ri burchakli koordinatalar

Agar berilgan tekislikda XOY dekart koordinatalar sistemasi berilgan bo‘lsa, x, y kordinataga ega bo‘lgan M nuqtani M(x,y) bilan belgilaymiz.

$M_1(x_1,y_1)$, $M_2(x_2,y_2)$ nuqtalar orasidagi masofa

$$d=\sqrt{(x_2-x_1)^2+(y_2-y_1)^2}$$

formula bilan hisoblanadi. Xususiy holda koordinata boshidan M(x,y) nuqtagacha bo‘lgan masofa

$$d=\sqrt{x^2+y^2}$$

formula bilan aniqlanadi.

$A(x_1,y_1)$, $B(x_2,y_2)$ nuqtalar orasidagi kesmani berilgan λ nisbatda bo‘luvchi $C(\bar{x},\bar{y})$ nuqtaning koordinatalari

$$\bar{x}=\frac{x_1+\lambda x_2}{1+\lambda}\ ;\quad \bar{y}=\frac{y_1+\lambda y_2}{1+\lambda}$$

formulalar bilan aniqlanadi.

Xususiy holda, λ=1 bo‘lganda, kesma o‘rtasining koordinatalari:

$$\bar{x}=\frac{x_1+x_2}{2}\quad \bar{y}=\frac{y_1+y_2}{2}$$

Uchlarining koordinatalari $A(x_1,y_1)$, $B(x_2,y_2)$, $C(x_3,y_3)$ bo‘lgan uchburchak yuzasi

$$C=\frac{1}{2}\cdot|x_1(y_2-y_3)+x_2(y_3-y_1)+x_3(y_1-y_2)|=$$

$$\frac{1}{2}\cdot|(x_2-x_1)(y_3-y_1)+(x_3-x_1)(y_2-y_1)|$$

formula yordamida topiladi.

Uchburchak yuzasi $C=\frac{1}{2}\Delta$

formula bilan hisoblanadi (bu erda, $\Delta=\begin{vmatrix}1&1&1\\x_1&x_2&x_3\\y_1&y_2&y_3\end{vmatrix}$).

Qutb koordinatalari

Qutb koordinatalarida M nuqtaning o‘rni uning O qutbdan masofasi $|OM|=\rho$ (ρ–nuqtaning qutb radius – vektori) va OM kesmaning qutb o‘qi OX bilan tashkil qilgan burchagi θ (θ - nuqtaning qutb burchagi) bilan aniqlanadi. Qutb o‘qidan soat strelkasiga qarama - qarshi olingan θ burchak musbat hisoblanadi. Agar M nuqta qutb koordinatalariga ega bo‘lsa ($\rho>0$, $0\le\theta<2\pi$), unga cheksiz ko‘p (ρ, $\theta+2k\pi$), qutb koordinatlari jufti to‘g‘ri keladi, $k\in Z$.

Agar dekart koordinatalar sistemasining koordinata boshini *qutbga qo‘yib, OX o‘qini qutb o‘qi bo‘yicha yo‘naltirsak, u* holda M nuqtaning to‘g‘ri burchakli (x,y) koordinatalari bilan (ρ,θ) qutb koordinatalari o‘rtasida bog‘lanish quyidagi:

$$x=\rho\cos\theta,\qquad y=\rho\sin\theta;$$

$$\rho=\sqrt{x^2+y^2},\qquad tg\theta=\frac{y}{x}$$

formulalar bilan aniqlanadi.

Fazodagi to‘g‘ri burchakli koordinatalar

Agar fazoda OXYZ to‘g‘ri burchakli dekart koordinatalar sistemasi berilgan bo‘lsa, u holda koordinatalari x (absissa), y (ordinata) va z (aplikata) bo‘lgan M nuqta M(x, y, z) bilan belgilanadi. $A(x_1, y_1, z_1)$ va $B(x_2, y_2, z_2)$ nuqtalar orasidagi masofa

$$d=\sqrt{(x_2-x_1)^2+(y_2-y_1)^2+(z_2-z_1)^2}$$

formula bilan aniqlanadi.

M(x; y; z) nuqtadan koordinata boshigacha bo‘lgan masofa

$$d=\sqrt{x^2+y^2+z^2}$$

formula bilan topiladi.

Agar uchlari $A(x_1, y_1, z_1)$ va $B(x_2, y_2, z_2)$ bo‘lgan kesma $C(\bar{x},\bar{y},\bar{z})$ nuqta orqali λ nisbatda bo‘lingan bo‘lsa, C nuqtaning koordinatalari

$$\bar{x} = \frac{x_1 + \lambda x_2}{1+\lambda}; \quad \bar{y} = \frac{y_1 + \lambda y_2}{1+\lambda}; \quad \bar{z} = \frac{z_1 + \lambda z_2}{1+\lambda}$$

tengliklardan topiladi.

Kesma o'rtasining koordinatalari

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2}{2}; \quad \bar{y} = \frac{y_1 + y_2}{2}; \quad \bar{z} = \frac{z_1 + z_2}{2}$$

formulalar bilan topiladi.

Vektorlar va ular ustida amallar

OXYZ koordinatlar sistemasida berilgan $\bar{a}$ vektorni $\bar{a} = a_x \cdot \bar{i} + a_y \cdot \bar{j} + a_z \cdot \bar{k}$ ko'rinishida tasvirlash mumkin. $\bar{a}$ vektorni bunday tasvirlash uni koordinata o'qlari yoki ortlar bo'yicha yoyish deb ataladi. Bu erda a_x, a_y, a_z lar $\bar{a}$ vektorning mos o'qlardagi proeksiyalari ($\bar{a}$ vektorning koordinatalari) deyiladi, $\bar{i}$, $\bar{j}$, $\bar{k}$ lar esa, o'qlarning ortlari (mos o'qlarning musbat yo'nalishi bilan ustma-ust tushgan birlik vektorlar).

$a_x\bar{i}$, $a_y\bar{j}$, $a_z\bar{k}$ lar $\bar{a}$ vektorning koordinat o'qlari bo'yicha tashkil etuvchilari (komponentalari) deb ataladi. $\bar{a}$ vektorning kattaligi $|\bar{a}|$ bilan belgilanib, $|\bar{a}| = \sqrt{a_x^2 + a_y^2 + a_z^2}$ formuladan topiladi.

$\bar{a}$ vektorning yo'nalishi uning koordinata o'qlari bilan tashkil qilgan α, β, γ burchaklar orqali belgilanadi. Bu burchaklarning kosinuslari (vektorning yo'naltiruvchi kosinuslari)

$$\cos\alpha = \frac{a_x}{|\bar{a}|} = \frac{a_x}{\sqrt{a_x^2 + a_y^2 + a_z^2}}; \quad \cos\beta = \frac{a_y}{|\bar{a}|} = \frac{a_y}{\sqrt{a_x^2 + a_y^2 + a_z^2}};$$

$$\cos\gamma = \frac{a_z}{|\bar{a}|} = \frac{a_z}{\sqrt{a_x^2 + a_y^2 + a_z^2}}$$

formulalardan aniqlanadi.

Vektorning yo'naltiruvchi kosinuslari $\cos^2\alpha + \cos^2\beta + \cos^2\gamma = 1$ munosabat bilan bog'langan. Agar $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlar ortlar bo'yicha yoyilmasi bilan berilgan bo'lsa, ularning yig'indisi va ayirmasi

$$\bar{a} + \bar{b} = (a_x + b_x) \cdot \bar{i} + (a_y + b_y) \cdot \bar{j} + (a_z + b_z) \cdot \bar{k}$$

$$\bar{a} - \bar{b} = (a_x - b_x) \cdot \bar{i} + (a_y - b_y) \cdot \bar{j} + (a_z - b_z) \cdot \bar{k}$$

formulalardan aniqlanadi.

Boshlari ustma-ust tushadigan $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlar yig'indisi tomonlari $\bar{a}$ va $\bar{b}$ bo'lgan parallelogram diagonali bilan ustma-ust tushadigan vektor orqali tasvirlanadi. $\bar{a}$ - $\bar{b}$ ayirma shu parallelogramning ikkinchi diagonali bilan ustma-ust tushib, vektorning boshi $\bar{b}$ ning oxirida, oxiri $\bar{a}$ ning oxirida yotadi.



1-chizma

Ixtiyoriy sondagi vektorlar yig'indisi ko'pburchaklar qoidasi bo'yicha topiladi. $\bar{a}$ vektorni m skalyarga ko'paytmasi $m \cdot \bar{a} = m \cdot a_x \cdot \bar{i} + m \cdot a_y \cdot \bar{j} + m \cdot a_z \cdot \bar{k}$ formuladan topiladi. Agar m>0 bo'lsa, $\bar{a}$ va $m\bar{a}$ vektorlar parallel (kollineyar) va bir tomonga yo'nalgan, m<0 bo'lsa, qarama-qarshi tomonga yo'nalgan bo'ladi. Agar $m = \frac{1}{|\bar{a}|}$ bo'lsa, $\frac{\bar{a}}{|\bar{a}|}$ vektor uzunligi birga teng bo'lib, yo'nalishi $\bar{a}$ ning yo'nalishi bilan ustma-ust tushadi. Bu vektor $\bar{a}$ vektorning birlik vektori (ort) deyilib, $\bar{a}_0$ bilan belgilanadi. $\bar{a}$ vektor yo'nalishidagi birlik vektorni topish

$\bar{a}$ vektorni normallashtirish deyiladi. Shunday qilib, $\bar{a}_0 = \dfrac{\bar{a}}{|\bar{a}|}$, yoki $\bar{a} = |\bar{a}| \cdot \bar{a}_0$. Boshi $A(x_1, y_1, z_1)$, oxiri $B(x_2, y_2, z_2)$ nuqtada yotgan $\overline{AB}$ vektor $\overline{AB} = (x_2 - x_1)\bar{i} + (y_2 - y_1)\bar{j} + (z_2 - z_1)\bar{k}$ koʻrinishda boʻladi. Uning uzunligi A va B nuqtalar orasidagi masofaga teng:

$$\left|\overline{AB}\right| = d = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2}$$

$\overline{AB}$ vektorning yoʻnalishi quyidagi yoʻnaltiruvchi kosinuslar bilan aniqlanadi:

$$\cos\alpha = \frac{x_2 - x_1}{d}; \; \cos\beta = \frac{y_2 - y_1}{d}; \; \cos\gamma = \frac{z_2 - z_1}{d}$$

Skalyar va vektor koʻpaytma, aralash koʻpaytma

$\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlarning skalyar koʻpaytmasi deb $\bar{a} \cdot \bar{b} = |\bar{a}|\,|\bar{b}|\cos\varphi$ skalyar kattalikka aytamiz.

Skalyar koʻpaytmaning xossalari:

1. $\bar{a} \cdot \bar{a} = |\bar{a}|^2$ yoki $\bar{a}^2 = |\bar{a}|^2$;
2. $\bar{a} \perp \bar{b}$ (noldan farqli vektorlar ortogonalligi) boʻlsa, $\bar{a} \cdot \bar{b} = 0$ va aksincha;
3. $\bar{a} \cdot \bar{b} = \bar{b} \cdot \bar{a}$ (oʻrin almashtirish qonuni);
4. $\bar{a}(\bar{b} + \bar{c}) = \overline{ab} + \overline{ac}$ (taqsimot qonuni);
5. $(m\bar{a})\bar{b} = \bar{a}(m\bar{b}) = m(\overline{ab})$ (skalyar koʻpaytuvchiga nisbatan guruhlash qonuni).

$\bar{a} = a_x\bar{i} + a_y\bar{j} + a_z\bar{k}$, $\bar{b} = b_x\bar{i} + b_y\bar{j} + b_z\bar{k}$ lar berilgan boʻlsa, ularning skalyar koʻpaytmasi $\overline{ab} = a_x b_x + a_y b_y + a_z b_z$ formuladan topiladi.

$\bar{a}$ vektorning $\bar{b}$ vektorga vektor koʻpaytmasi deb shunday $\bar{c}$ vektorga aytamizki, u quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

1. $\bar{c}$ ning kattaligi $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlardan yasalgan parallelogramning yuziga teng ($|\bar{c}| = |\bar{a}||\bar{b}|\sin\varphi$, $\varphi = \bar{a} \wedge \bar{b}$);
2. $\bar{c}$ vektor $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlarga perpendikulyar;
3. $\bar{a}, \bar{b}, \bar{c}$ vektorlar bitta nuqtaga keltirilgandan soʻng oʻng sistemani tashkil etsin. ($\bar{a}, \bar{b}, \bar{c}$ vektorlar oʻng sistemani tashkil etadi deyiladi, agar $\bar{a}$ dan $\bar{b}$ ga va $\bar{c}$ ga oʻtish soat strelkasi harakatiga teskari yoʻnalgan boʻlsa).



$\bar{a}$ vektorning $\bar{b}$ vektorga vektor koʻpaytmasi $\bar{a} \times \bar{b}$ koʻrinishda yoziladi.

Vektor koʻpaytmaning xossalari:

1. $\bar{b} \times \bar{a} = -\bar{a} \times \bar{b}$, oʻrin almashtirish xossasiga ega emas;
2. agar $\bar{a} = 0$, yoki $\bar{b} = 0$, yoki $\bar{a} \parallel \bar{b}$ boʻlsa, $\bar{a} \times \bar{b} = 0$ boʻladi;
3. $(m\bar{a}) \times \bar{b} = \bar{a} \times (m\bar{b}) = m(\bar{a} \times \bar{b})$ (skalyar koʻpaytuvchiga nisbatan guruhlash qonuni);
4. $\bar{a} \times (\bar{b} + \bar{c}) = \bar{a} \times \bar{b} + \bar{a} \times \bar{c}$ (taqsimot qonuni).

$\bar{a} = x_1\bar{i} + y_1\bar{j} + z_1\bar{k}$, $\bar{b} = x_2\bar{i} + y_2\bar{j} + z_2\bar{k}$ vektorlarning vektor koʻpaytmasi

$$\bar{a}\times\bar{b}=\begin{vmatrix} \bar{i} & \bar{j} & \bar{k} \\ x_1 & y_1 & z_1 \\ x_2 & y_2 & z_2 \end{vmatrix}$$ formula yordamida topiladi.

Uchta $\bar{a},\bar{b},\bar{c}$ vektorning aralash koʻpaytmasi $\bar{a}\times\bar{b}$ ni $\bar{c}$ ga skalyar koʻpaytmasiga teng, ya'ni $(\bar{a}\times\bar{b})\cdot\bar{c}$. Aralash koʻpaytmaning moduli shu vektorlarga qurilgan parallelepipedning hajmiga teng. Aralash koʻpaytmaning xossalari:

1. Agar:

a) koʻpaytiriluvchi vektorlardan biri nolga teng;

b) ikkitasi kolleniar;

v) uchta noldan farqli vektor bitta tekislikka parallel (komplanar) boʻlsa, aralash koʻpaytma nolga teng.

2. Agar aralash koʻpaytmada vektor koʻpaytma va skalyar koʻpaytmalarning oʻrnini almashtirsak aralash koʻpaytma oʻzgarmaydi, ya'ni $(\bar{a}\times\bar{b})\cdot\bar{c}=\bar{a}\cdot(\bar{b}\times\bar{c})$, shuni hisobga olib, aralash koʻpaytma $\overline{abc}$ kabi yoziladi.

3. Agar koʻpaytiriladigan vektorlar oʻrnini doiraviy shaklda almashtirsak, koʻpaytma oʻzgarmaydi: $\overline{abc}=\overline{bca}=\overline{cab}$.

4. Ixtiyoriy ikkita vektor oʻrnini almashtirsak, aralash koʻpaytmaning ishorasi oʻzgaradi.

$$\overline{bac}=-\overline{abc}\,;\quad \overline{cba}=-\overline{abc}\,;\quad \overline{acb}=-\overline{abc}.$$

$$\bar{a}=x_1\bar{i}+y_1\bar{j}+z_1\bar{k};\quad \bar{b}=x_2\bar{i}+y_2\bar{j}+z_2\bar{k};\quad \bar{c}=x_3\bar{i}+y_3\bar{j}+z_3\bar{k}$$

vektorlarning aralash koʻpaytmasi

$$\overline{abc}=\begin{vmatrix} x_1 & y_1 & z_1 \\ x_2 & y_2 & z_2 \\ x_3 & y_3 & z_3 \end{vmatrix}$$ dan topiladi.

Aralash koʻpaytmaning xossalaridan quyidagilar kelib chiqadi: uch vektor komplanarligining zarur va yetarli sharti $\overline{abc}=0$ dir. $\bar{a},\bar{b},\bar{c}$ lardan qurilgan parallelepiped hajmi $V_1=|\overline{abc}|$, uchburchakli piramidaning hajmi $V_2=\frac{1}{6}V_1=\frac{1}{6}|\overline{abc}|$ ga teng.

Matritsalar va ular ustida amallar

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix},\quad \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}$$

lar mos ravishda 2 va 3- tartibli kvadrat matritsa deyiladi. Koʻp ta'riflarni umumlashtirish uchun ularni 3 tartibli matritsa uchun beriladi. Ularni 2- tartibli matritsa uchun qoʻllash qiyinchilik tugʻdirmaydi. Agar kvadrat matritsaning elementlari $a_{mn}=a_{nm}$ shartni qanoatlantirsa, matritsa simmetrik deyiladi.

$$A=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix},\quad B=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}$$

matritsalar teng boʻlishi uchun ixtiyoriy m va n larda $a_{mn}=b_{mn}$ shartning bajarilishi zarur va yetarlidir.

Har qanday $A=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}$ matritsaga $D_A=\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix}$ determinantni mos qoʻyamiz. Agar $D_A\neq 0$ boʻlsa, u holda, A matritsani xos emas matrisa deb ataymiz.

A, B matritsalar yigʻindisi quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}+\begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} & b_{13} \\ b_{21} & b_{22} & b_{23} \\ b_{31} & b_{32} & b_{33} \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} a_{11}+b_{11} & a_{12}+b_{12} & a_{13}+b_{13} \\ a_{21}+b_{21} & a_{22}+b_{22} & a_{23}+b_{23} \\ a_{31}+b_{31} & a_{32}+b_{32} & a_{33}+b_{33} \end{pmatrix}$$

A matritsani m soniga koʻpaytirish uchun uning har bir elementini m ga koʻpaytiramiz:

$$m\cdot\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} ma_{11} & ma_{12} & ma_{13} \\ ma_{21} & ma_{22} & ma_{33} \\ ma_{1} & ma_{32} & ma_{33} \end{pmatrix}$$

A, B matritsalar ko'paytmasi quyidagicha aniqlanadi:

$$AB=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{11} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}*\begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} & b_{13} \\ b_{21} & b_{22} & b_{23} \\ b_{31} & b_{32} & b_{33} \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} \sum_{j=1}^{3}a_{1j}b_{j1} & \sum_{j=1}^{3}a_{1j}b_{j2} & \sum_{j=1}^{3}a_{1j}b_{j3} \\ \sum_{j=1}^{3}a_{2j}b_{j1} & \sum_{j=1}^{3}a_{2j}b_{j2} & \sum_{j=1}^{3}a_{2j}b_{j3} \\ \sum_{j=1}^{3}a_{3j}b_{j1} & \sum_{j=1}^{3}a_{3j}b_{j2} & \sum_{j=1}^{3}a_{3j}b_{j3} \end{pmatrix}$$

Ko'paytma matritsaning i-nchi yo'l va k-nchi ustunda turuvchi elementi, A matritsa i-nchi yo'lidagi elementlarini B matritsa k-nchi ustunining mos elementlariga ko'paytmalari yig'indisiga teng.

Ikki matritsaning ko'paytmasi umuman o'rin almashtirish xossasiga bo'ysunmaydi. Ikki matritsa ko'paytmasiining determinanti bu matritsalar determinantlari ko'paytmalariga teng. Hamma elementlari nollardan iborat bo'lgan matritsa nol matritsa deyiladi.

$$\begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}=0$$

Bu matritsa uchun: A+0=A.

$$E=\begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix}$$ ni birlik matritsa deyiladi.

Bu matritsani A ga chapdan va o'ngdan ko'paytmasi A ga teng: EA=AE=A. Agar AB=BA=E ga teng bo'lsa, B matritsa A-ga teskari matritsa deyiladi. A ga teskari matritsani A^{-1} bilan belgilanadi: B=A^{-1}. Har qanday xos emas matritsa teskari matritsaga ega. Teskari matritsa quyidagicha topiladi:

$$A^{-1}=\begin{pmatrix} \frac{A_{11}}{D_A} & \frac{A_{21}}{D_A} & \frac{A_{31}}{D_A} \\ \frac{A_{12}}{D_A} & \frac{A_{22}}{D_A} & \frac{A_{32}}{D_A} \\ \frac{A_{13}}{D_A} & \frac{A_{23}}{D_A} & \frac{A_{33}}{D_A} \end{pmatrix}$$

Bu erda A_{mn} - A matritsa determinantidagi a_{mn}-elementning algebraik to'ldiruvchisidir, ya'ni A_{mn} - A matritsa determinantidagi m –nchi yo'l va n-nchi ustunini o'chirishdan hosil bo'lgan ikkinchi tartibli determinant (minor) bilan $(-1)^{m+n}$ ifoda ko'paytmasidir.

$$X=\begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}$$ - ni ustun matritsa deyiladi.

AX ko'paytma quyidagicha aniqlanadi:

$$AX=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}\begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} a_{11}x_1+a_{12}x_2+a_{13}x_3 \\ a_{21}x_1+a_{22}x_2+a_{23}x_3 \\ a_{31}x_1+a_{32}x_2+a_{33}x_3 \end{pmatrix}.$$

$$\begin{cases} a_{11}x_1+a_{12}x_2+a_{13}x_3=b_1 \\ a_{21}x_1+a_{22}x_2+a_{23}x_3=b_2 \\ a_{31}x_1+a_{32}x_2+a_{33}x_3=b_3 \end{cases}$$

sistemani AX=B ko'rinishda yozish mumkin, bu erda,

$$A=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix},\ X=\begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix},\ B=\begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{pmatrix}$$

Bu sistemaning yechimi $X = A^{-1}\cdot B$ $(D_A \neq 0)$ bo'ladi.

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}$$ matritsaning xarakteristik tenglamasi

$$\begin{vmatrix} a_{11}-\lambda & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22}-\lambda & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33}-\lambda \end{vmatrix}=0.$$

Bu tenglamaning ildizlari λ_1, λ_2, λ_3 lar matritsaning xos sonlari deyiladi. Bu xos sonlarga mos keluvchi xos vektorlarning koordinatalari quyidagi:

$$\begin{cases} (a_{11}-\lambda)\zeta_1+a_{12}\zeta_2+a_{13}\zeta_3=0 \\ a_{21}\zeta_1+(a_{22}-\lambda)\zeta_2+a_{23}\zeta_3=0 \\ a_{31}\zeta_1+a_{32}\zeta_2+(a_{33}-\lambda)\zeta_3=0 \end{cases}$$

tenglamalar sistemasi yechimlaridan iborat bo'ladi.

Matritsaning rangi. Ekvivalent matritsalar

To'g'ri burchakli matritsa berilgan bo'lsin.

$$A=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12}\cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22}\cdots & a_{2n} \\ a_{m1} & a_{m2}\cdots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

Bu matritsadan ixtiyoriy k-ta yo'l, k-ta ustun ajratamiz $(k \le m, k \le n)$. A matritsaning ajratilgan yo'l va ustunlarining kesishgan joyida turgan elementlaridan tuzilgan k-nchi tartibli determinant A matritsaning k-nchi tartibli minori deyiladi. A matritsa $C_m^k \cdot C_n^k$ ta k-nchi tartibli minorlarga ega. A matritsaning noldan farqli hamma minorlarini qaraymiz. A matritsaning rangi deb uning noldan farqli minorlarining eng yuqori tartibiga aytamiz. Agar matritsaning hamma elementlari nollardan iborat bo'lsa, uning rangi nolga teng. Tartibi matritsaning rangiga teng bo'lgan noldan farqli har qanday minor matritsaning bazis minori deyiladi. Matritsaning rangini r(A) bilan belgilaymiz. Agar r(A)=r(B) ga teng bo'lsa, A va B lar ekvivalent matritsalar deyiladi va A~B kabi yoziladi. Elementar almashtirishlardan matritsaning rangi o'zgarmaydi.

Elementar almashtirishlarga quyidagilar kiradi:

1. Matritsaning yo'llarini ustunlar bilan almashtirish.
2. Matritsaning yo'llarini o'zaro almashtirish.
3. Hamma elementlari nollardan iborat yo'llarni o'chirish.
4. Birorta yo'lini noldan farqli songa ko'paytirish.
5. Biror yo'l elementlariga boshqa yo'lning mos elementlarini qo'shish.

Chiziqli almashtirish

$$x=a_{11}x'+a_{12}y'$$
$$y=a_{21}x'+a_{22}y'$$

tenglik orqali x, y o'zgaruvchilarni x', y' orqali ifodalash mumkin. Bu tenglikni x', y' o'zgaruvchilarni chiziqli almashtirish deyiladi.

$$A=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix}$$

jadval qaralayotgan chiziqli almashtirish matritsasi deyiladi.

$$D_A=\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix}$$

chiziqli almashtirishlarning determinanti deyiladi. Bundan so'ng $D_A \ne 0$ deb qaraladi.

Chiziqli almashtirishni uch o'zgaruvchili deb qarash mumkin:

$$x=a_{11}x'+a_{12}y'+a_{13}z'$$
$$y=a_{21}x'+a_{22}y'+a_{23}z'$$
$$z=a_{31}x'+a_{32}y'+a_{33}z'$$

bu erda,

$$A=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}, \qquad D_A=\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix}$$

lar bu chiziqli almashtirishning mos ravishda matritsa va determinanti deyiladi.

Gauss usuli bilan chiziqli tenglamalar sistemasini echish

Chiziqli algebraik tenglamalarni determinant yordamida echish ikki va uch noma'lumli tenglamalar sistemasi uchun qulay. Tenglamalar soni sistemada ko'p bo'lganda Gauss usuli qulay. Bu usulni 4 noma'lumli 4 ta tenglamalar sistemasida tahlil qilamiz:

$$\begin{cases} a_{11}x+a_{12}y+a_{13}z+a_{14}u=a_{15} & (a) \\ a_{21}x+a_{22}y+a_{23}z+a_{24}u=a_{25} & (b) \\ a_{31}x+a_{32}y+a_{33}z+a_{34}u=a_{35} & (c) \\ a_{41}x+a_{42}y+a_{43}z+a_{44}u=a_{45} & (d) \end{cases}$$

$a_{11} \neq 0$ deb faraz qilamiz, (agar $a_{11}=0$ bo'lsa, tenglamalarning o'rnini almashtiramiz).

1-qadam. (a) tenglamani a_{11} ga bo'lib, hosil bo'lgan tenglamani a_{21} ga ko'paytirib (b) dan ayiramiz, so'ngra a_{31} ga ko'paytirib (c) dan ayiramiz, a_{41} ga ko'paytirib (d) dan ayiramiz. Birinchi qadamdan so'ng quyidagi sistemaga kelamiz:

$$\begin{cases} x+b_{12}y+b_{13}z+b_{14}u=b_{15} & (e) \\ \quad b_{22}y+b_{23}z+b_{24}u=b_{25} & (f) \\ \quad b_{32}y+b_{33}z+b_{34}u=b_{35} & (g) \\ \quad b_{42}y+b_{43}z+b_{44}u=b_{45} & (h) \end{cases}$$

b_{ij} ni a_{ij} lardan quyidagi formulalar bo'yicha topiladi:

$$b_{1j}=\frac{a_{1j}}{a_{11}} \quad (j=2,3,4,5)$$

$$b_{ij}=a_{ij}-a_{i1}\cdot b_{1j} \quad (i=2,3,4;\ j=2,3,4,5).$$

2- qadam. (a), (b), (c), (d) tenglamalarda nima qilgan bo'lsak, (f), (g), (h) larda ham shularni qaytaramiz va hokazo. Natijada berilgan tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\begin{cases} x+b_{12}y+b_{13}z+b_{14}u=b_{15} \\ \quad y+c_{23}z+c_{24}u=c_{25} \\ \quad\quad z+d_{34}u=d_{35} \\ \quad\quad\quad u=e_{45} \end{cases}$$

Hosil bo'lgan sistemadan barcha noma'lumlar ketma-ket topiladi.

Chiziq tenglamasi

XOY tekisligida biror chiziqni nuqtalar to'plami deb qarasak, unga bu chiziqda yotgan ixtiyoriy $M(x,y)$ nuqta koordinatalarini bog'lovchi tenglama to'g'ri keladi. Bunday tenglama berilgan chiziqning tenglamasi deb ataladi. Agar berilgan chiziqning tenglamasiga bu chiziqda yotgan ixtiyoriy nuqtaning koordinatalarini qo'ysak, uni ayniyatga aylantiradi. Chiziqdan tashqaridagi nuqtaning koordinatalari bu chiziq tenglamasini qanoatlantirmaydi.

Chiziqning parametrik tenglamasi

Ba'zida nuqtalar to'plamining tenglamasini tuzishda x, y koordinatalarni qandaydir yordamchi parametr t orqali ifodalash qulay keladi (uni parametr deb ataladi), ya'ni $x=\varphi(t),\ y=\psi(t)$ tenglamalar sistemasi qaraladi. Izlangan chiziqni bunday tasvirlash parametrik ko'rinish deyilib, tenglamalar sistemasi berilgan chiziqning parametrik tenglamalari deyiladi. Tenglamalar sistemasidan parametr t ni yuqotib, x, y ni bog'lovchi, ya'ni oddiy f(x, y)=0 ko'rinishdagi tenglamaga keltiriladi.

To‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasi

x, y larga nisbatan har qanday birinchi darajali tenglama, ya’ni

$$Ax+By+C=0$$

A, B, C – lar o‘zgarmas koeffitsientlar) tenglama tekislikda qandaydir to‘g‘ri chiziqni aniqlaydi va tekislikdagi har qanday to‘g‘ri chiziqning tenglamasini 1-darajali Ax+By+C=0 tenglama ko‘rinishida yozish mumkin. Bu tenglama to‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasi deb ataladi.

Xususiy hollar:

1. C=0; A≠0; B≠0. Ax+By=0 tenglama bilan aniqlanadigan to‘g‘ri chiziq koordinatalar boshidan o‘tadi.
2. A=0; B≠0; C≠0. By+C=0 tenglama bilan aniqlanadigan (y=-C/B) to‘g‘ri chiziq OX o‘qiga parallel.
3. B=0; A≠0; C≠0. Ax+C=0 tenglama bilan aniqlanadigan (x=-C/A) to‘g‘ri chiziq OY o‘qiga parallel.
4. B=C=0; A≠0; Ax=0 yoki x=0 tenglama bilan aniqlanadigan to‘g‘ri chiziq OY o‘qi bilan ustma-ust tushadi.
5. A=C=0; B≠0, By=0 yoki y=0 tenglama bilan aniqlanadigan to‘g‘ri chiziq OX o‘qi bilan ustma-ust tushadi.

To‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsientli tenglamasi

Agar umumiy tenglamada B≠0 bo‘lsa, uni y-ka nisbatan echib y=kx+b tenglamani hosil qilamiz (bu erda k=-A/B, b=-C/B). Uni to‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsientli tenglamasi deb atashadi, bu erda, $k = tg\alpha, \alpha -$ to‘g‘ri chiziq bilan OX o‘qining musbat yo‘nalishi orasidagi burchak. Tenglamaning ozod hadi b to‘g‘ri chiziqning OY o‘qi bilan kesishgan nuqtasi.

To‘g‘ri chiziqning kesmalarga nisbatan tenglamasi

Agar to‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasida C≠0 bo‘lsa, tenglamani – C ga bo‘lib,

$$\frac{x}{a}+\frac{y}{b}=1$$

tenglikga ega bo‘lamiz (bu erda, a=-C/A, b=-C/B). Uni to‘g‘ri chiziqning kesmalarga nisbatan tenglamasi deb atashadi; bunda, a – to‘g‘ri chiziqning OX o‘qi, b – esa OY o‘qi bilan kesishish nuqtasi. Shuning uchun, a, b larga to‘g‘ri chiziqning o‘qlardagi kesmalari deyiladi.

To‘g‘ri chiziqning normal tenglamasi

Agar to‘g‘ri chiziqning umumiy tenglamasining ikki tomonini $\mu = 1/\pm\sqrt{A^2+B^2}$ ga ko‘paytirsak (μ-normallashtiruvchi ko‘paytuvchi, ildiz oldidagi ishorani shunday tanlaymizki, $\mu C < 0$ bo‘lsin)

$$x\cos\varphi + y\sin\varphi - P = 0$$

ga ega bo‘lamiz. Bu tenglikka to‘g‘ri chiziqning normal tenglamasi deyiladi. Bu erda P koordinatalar boshidan to‘g‘ri chiziqqa tushirilgan perpendikulyarning uzunligi, φ - perpendikulyar bilan OX o‘qining musbat yunalishi orasidagi burchak.

To‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak. Ikki nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi

$y=k_1x+b_1$, $y=k_2x+b_2$ to‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak

$$tg\alpha = \left|\frac{k_2-k_1}{1+k_1k_2}\right|$$

formula bilan aniqlanadi. $k_1 = k_2$ ikki chiziqning paralellik sharti. $k_1 = -1/k_2$ ikki to‘g‘ri chiziqning perpendikulyarlik sharti. k burchak koeffitsientli va $M(x_1, y_1)$ nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi quyidagi:

$$y-y_1 = k\,(x-x_1)$$

ko‘rinishda yoziladi. $M_1(x_1, y_1)$ va $M_2(x_2, y_2)$ nuqtalardan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi

$$\frac{y-y_1}{y_2-y_1}=\frac{x-x_1}{x_2-x_1}$$

bo'lib, bu to'g'ri chiziqning burchak koeffitsienti

$$k=\frac{y_2-y_1}{x_2-x_1}$$

formuladan topiladi. Agar $x_1=x_2$ bo'lsa, M_1, M_2 nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi $x=x_1$, $y_1=y_2$ bo'lsa $y=y_1$ bo'ladi.

To'g'ri chiziqlarning kesishuvi. Nuqtadan to'g'ri chiziqqacha masofa

Agar $A_1/A_2\neq B_1/B_2$ bo'lsa, $A_1x+B_1y+C_1=0$ va $A_2x+B_2y+C_2=0$ to'g'ri chiziqlarning kesishgan nuqtasini ularning tenglamalari birga echib topiladi.

$M(x_0, y_0)$ nuqtadan $Ax+Bx+C=0$ to'g'ri chiziqqacha masofa

$$d=\frac{|Ax_0+By_0+C|}{\sqrt{A^2+B^2}}$$

formuladan topiladi.

$A_1x+B_1y+C_1=0$ va $A_2x+B_2y+C_2=0$ to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak bissektrisasining tenglamasi

$$\frac{A_1x+B_1y+C_1}{\sqrt{A_1^2+B_1^2}}\pm\frac{A_2x+B_2y+C_2}{\sqrt{A_2^2+B_2^2}}=0$$

bo'ladi.

Ikkinchi tartibli egri chiziqlar. Aylana

Aylana deb, tekislikdagi shunday nuqtalarning to'plamiga aytiladiki, bu nuqtalarning har biridan shu tekislikdagi markaz deb ataluvchi nuqtagacha bo'lgan masofa o'zgarmas miqdordir.

Bu o'zgarmas miqdor r–ni aylananing radiusi , C(a; b)–nuqtani uning markazi desak, aylananing tenglamasi

$(x-a)^2+(y-b)^2=r^2$

ko'rinishda bo'ladi. Aylana markazi koordinata boshi bilan ustma-ust tushsa, aylana tenglamasi $x^2+y^2=r^2$ bo'ladi. Agar $x_1^2+y_1^2=r^2$ bo'lsa, $M(x_1;\ y_1)$ nuqta aylanada yotadi, $x_1^2+y_1^2>r^2$ bo'lsa, M nuqta aylanadan tashqarida $x_1^2+y_1^2<r^2$ bo'lsa, nuqta aylana ichida yotadi.

Ellips

Ellips deb, tekislikdagi shunday nuqtalarning to'plamiga aytiladiki, bu nuqtalarning har biridan fokuslar deb ataluvchi ikki nuqtagacha bo'lgan masofalar yig'indisi o'zgarmas miqdordir, u 2a bilan belgilanadi, bu o'zgarmas miqdor fokuslar orasidagi masofadan katta bo'ladi.

Agar koordinata o'qlari ellipsga nisbatan simmetrik joylashib, ellipsning fokuslari esa OX o'qida koordinata boshidan bir xil masofada ($F_1(s,0)$, $F_2(-s,0)$) yotsa, ellipsning oddiy (kanonik) tenglamasi $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1$ ko'rinishda bo'ladi.

a- ellipsning katta, b – kichik yarim o'qi, a, b, c (c – fokuslar orasidagi masofaning yarmi) lar orasida $a^2=b^2+c^2$ munosabat bor. Ellipsning shakli (siqilish o'lchovi) uning ekssentrisiteti $e=c/a$ ($c<a$ bo'lgani uchun $e<1$) bilan xarakterlanadi.



Ellipsning biror M nuqtasidan fokuslargacha bo'lgan masofalarni nuqtaning fokal radius-vektorlari deb ataladi. Ular r_1, r_2 bilan belgilanadi (ellipsning ta'rifiga ko'ra uning ixtiyoriy nuqtasi uchun $r_1+r_2=2a$ bo'ladi). Xususiy holda, a=b (c=0, e=0; fokuslar markaz bilan ustma-ust tushsa) bo'lsa, ellips aylanaga aylanib qoladi: $x^2+y^2=a^2$. $M(x_1;\ y_1)$ nuqta va $x^2/a^2+y^2/b^2=1$ ellipsning o'zaro joylanishi quyidagi shartlar bilan aniqlanadi:

agar $x_1^2/a^2+y_1^2/b^2=1$ bo'lsa, M nuqta ellipsda yotadi; agar $x_1^2/a^2+y_1^2/b^2<1$ bo'lsa, M nuqta ellipsdan tashqarida; agar $x_1^2/a^2+y_1^2/b^2<1$ bo'lsa, M nuqta ellips ichida yotadi. Fokal radius-vektorlar ellips nuqtalarining absissasi orqali r_1=a-ex (o'ng fokal radius-vektor), r_2=a+ex (chap fokal radius vektor) bilan ifodalanadi.

Giperbola

Giperbola deb, tekislikdagi shunday nuqtalarning to'plamiga aytiladiki, bu nuqtalarning har biridan fokuslar deb ataluvchi ikki nuqtasigacha bo'lgan masofalar ayirmalarining absolyut qiymatlari o'zgarmas miqdordir. Bu o'zgarmas miqdor 2a bilan belgilanadi, u fokuslar orasidagi masofadan kichik. Agar giperbolaning fokuslarini F_1(s,0), F_2(-s,0) nuqtalarga joylashtirsak, u holda giperbolaning

$$x^2/a^2-y^2/b^2=1$$

kanonik tenglamasiga ega bo'lamiz, bu erda, $b^2=c^2-a^2$. Giperbola ikki tarmoqdan iborat va koordinata o'qlariga nisbatan simmetrik joylashgan. A_1(a; 0), A_2(-a, 0) lar giperbolaning uchlari deb ataladi. $|A_1A_2|$=a giperbolaning haqiqiy, $|B_1B_2|$=b mavhum o'qi deyiladi.



Agar giperbolaning M(x, y) nuqtasidan biror to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofasi nolga intilsa ($x\to+\infty$ yoki $x\to-\infty$ da), u to'g'ri chiziq giperbolaning asimptotasi deyiladi. Giperbola ikkita asimptotaga ega, ular $y=\pm(b/a)x$. Giperbolaning asimptotalarini yasash uchun tomonlari x=a, x=-a, y=b, y=-b bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizamiz. Bu to'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi uchlaridan o'tkazilgan to'g'ri chiziq giperbolaning asimptotalari bo'ladi.

e=c/a>1 nisbat giperbolaning ekssentrisiteti deyiladi. r_1=ex-a (o'ng fokal radius-vektor) r_1=ex+a (chap fokal radius-vektori) giperbola o'ng tarmog'ining fokal radius-vektorlari deyiladi. Xuddi shunday chap tarmog'ining fokal radius-vektorlari r_1=-ex+a, r_1(-ex-a) bo'ladi. Agar a=b bo'lsa, giperbolaning tenglamasi $x^2-y^2=a^2$ bo'ladi. Bunday giperbola teng tomonli deb ataladi. Uning asimptotalari to'g'ri burchak hosil qiladi. Agar koordinata o'qlarini asimptotalar deb qarasak (teng tomonli giperbolada), uning tenglamasi xy=m ($m=\pm a^2/2$; m>0 bo'lsa, giperbola I va III chorakda, m<0 bo'lsa, II va IV chorakda yotadi. xy=m tenglamani y=m/x ko'rinishda yozish mumkin bo'lgani uchun, teng tomonli giperbola x,y miqdorlar orasidagi teskari proporsional bog'lanishni ifodalaydi.

$x^2/a^2-y^2/b^2=1$ va $x^2/a^2-y^2/b^2=-1$ giperbolalar bir xil yarim o'qqa va bir xil asimptotaga ega, lekin haqiqiy va mavhum o'qlari almashinib keladi. Bunday giperbolalar qo'shma deb ataladi.

Parabola

Berilgan nuqta va berilgan to'g'ri chiziqdan barobar uzoqlikda turgan nuqtalarning to'plami parabola deb ataladi. Nuqta fokus, to'g'ri chiziq direktrisa deb ataladi. Agar parabolaning direktrisasi x=-r/2, fokusi F(r/2;0) nuqta bo'lsa, uning tenglamasi $y^2=2px$ bo'ladi.



Bu parabola abssissa o'qiga nisbatan simmetrik joylashgan (p>0). $x^2=2py$ tenglama ordinata o'qiga nisbatan simmetrik bo'lgan parabola bo'ladi. p>0 da parabola mos o'qlarining musbat tomoniga, p<0 bo'lsa, manfiy tomoniga qaragan bo'ladi. $y^2=2px$ parabolaning fokal radius – vektorining uzunligi $r=x+p/2$ ($p>0$) formula bilan aniqlanadi.

Fazodagi analitik geometriya. Tekislik va to'g'ri chiziq. Tekislik

Agar $A^2+B^2+C^2\neq 0$ bo'lsa, har qanday 1-darajali $Ax+By+Cz+D=0$ ko'rinishdagi tenglama tekislikni aniqlaydi va ixtiyoriy tekislik tenglamasini

$$Ax+By+Cz+D=0$$

ko'rinishda yozish mumkin. A, B, C lar tekislikka perpendikulyar $\overline{N}(A,B,C)$ vektorning koordinatalari. Umumiy tenglamani normal holga keltirish uchun uni normallashtiruvchi ko'paytuvchi

$$\mu=\pm\frac{1}{|N|}=\pm\frac{1}{\sqrt{A^2+B^2+C^2}}$$

ga ko'paytirish kerak, bu erdagi ishora D ning ishorasiga teskari bo'ladi.

$Ax+By+Cz+D=0$ umumiy tenglamaning xususiy xollari:

$A=0$; bu holda, tekislik OX o'qiga parallel;

$B=0$; bu holda, tekislik OY o'qiga parallel;

$C=0$; bu holda, tekislik OZ o'qiga parallel;

$D=0$; bu holda, tekislik koordinat boshidan o'tadi;

$A=B=0$; bu holda, tekislik OZ o'qiga perpendikulyar (XOY tekisligiga parallel);

$A=C=0$; bu holda, tekislik OY o'qiga perpendikulyar (XOZ tekisligiga parallel);

$B=C=0$; bu holda, tekislik OX o'qiga perpendikulyar (YOZ tekisligiga parallel);

$A=D=0$; bu holda, tekislik OX o'qidan o'tadi;

$B=D=0$; bu holda, tekislik OY o'qidan o'tadi;

$C=D=0$; bu holda, tekislik OZ o'qidan o'tadi;

$A=B=D=0$; bu holda, tekislik XOY ($Z=0$) tekisligi bilan ustma-ust tushadi;

$A=C=D=0$; bu holda, tekislik XOZ ($Y=0$) tekisligi bilan ustma-ust tushadi;

$B=C=D=0$; bu holda, tekislik YOZ ($X=0$) tekisligi bilan ustma-ust tushadi.

Agar umumiy tenglamada $D\neq 0$ bo'lsa, tenglamani $-D$ ga bo'lib,

$$\frac{x}{a}+\frac{y}{b}+\frac{z}{c}=1$$

ga ega bo'lamiz.

(bu erda, $a=-D/A$, $b=-D/B$, $C=-D/C$.) Bu tekislikning kesmalarga nisbatan tenglamasi deyiladi; a, b, c lar tekislikning OX, OY, OZ o'qlar bilan kesishgan nuqtalari.

$A_1x+B_1y+C_1z+D_1=0$ va $A_2x+B_2y+C_2z+D_2$ tekisliklar orasidagi burchak

$$\cos\varphi=\frac{A_1A_2+B_1B_2+C_1C_2}{\sqrt{A_1^2+B_1^2+C_1^2}\cdot\sqrt{A_2^2+B_2^2+C_2^2}}$$

formula bilan aniqlanadi.

Ikki tekislikning parallellik sharti

$$A_1/A_2=B_1/B_2=C_1/C_2.$$

Perpendikulyarlik sharti

$$A_1A_2+B_1B_2+C_1C_2=0.$$

$M_0(x_0, y_0, z_0)$ nuqtadan $Ax+By+Cz+D=0$ tekislikkacha masofa

$$d=\frac{|Ax_0+By_0+Cz_0+D|}{\sqrt{A^2+B^2+C^2}}$$

formula bilan aniqlanadi.

Bunda tekislikning normal tenglamasiga $M_0(x_0, y_0, z_0)$ nuqtaning koordinatalarini qo'yib, natijaning absolyut qiymati olingan.

$M_0(x_0, y_0, z_0)$ nuqtadan o'tib, $\overline{N}=A\overline{i}+B\overline{j}+C\overline{k}$ vektorga perpendikulyar tekislik tenglamasi

$$A(x-x_0)+B(y-y_0)+C(z-z_0)=0$$

ko'rinishda bo'ladi.

Berilgan $M_1(x_1,y_1,z_1), M_2(x_2,y_2,z_2), M_3(x_3,y_3,z_3)$ uch nuqtadan o'tuvchi tekislik tenglamasi

$$\begin{vmatrix} x-x_1 & y-y_1 & z-z_1 \\ x_2-x_1 & y_2-y_1 & z_2-z_1 \\ x_3-x_1 & y_3-y_1 & z_3-z_1 \end{vmatrix}=0$$

To'g'ri chiziq

To'g'ri chiziqni ikki tekislikning kesishgan chizig'i deb qarash mumkin:

$$\begin{cases} A_1x+B_1y+C_1z+D_1=0 \\ A_2x+B_2y+C_2z+D_2=0 \end{cases}$$

Ikki $M_1(x_1, y_1, z_1)$, $M_2(x_2, y_2, z_1)$ nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi:

$$\frac{x-x_1}{x_2-x_1}=\frac{y-y_1}{y_2-y_1}=\frac{z-z_1}{z_2-z_1}$$

$M_1(x_1, y_1, z_1)$ nuqtadan o'tib, $\bar{S}=l\bar{i}+m\bar{j}+n\bar{k}$ vektorga parallel to'g'ri chiziqning kanonik tenglamasi:

$$\frac{x-x_1}{l}=\frac{y-y_1}{m}=\frac{z-z_1}{n}$$

Xususiy holda, uni quyidagicha:

$$\frac{x-x_1}{\cos\alpha}=\frac{y-y_1}{\cos\beta}=\frac{z-z_1}{\cos\gamma}$$

yozish mumkin, bu erda, α, β, γ to'g'ri chiziqning o'qlar bilan tashkil qilgan burchaklari. To'g'ri chiziqning yo'naltiruvchi kosinuslari

$$\cos\alpha=\frac{l}{\sqrt{l^2+m^2+n^2}},\quad \cos\beta=\frac{m}{\sqrt{l^2+m^2+n^2}},\quad \cos\gamma=\frac{n}{\sqrt{l^2+m^2+n^2}}$$

formulalar bilan aniqlanadi.

Kanonik tenglamalarga t parametr kiritib, parametrik tenglamalarga kelish mumkin:

$$\begin{cases} x=lt+x_1 \\ y=mt+y_1 \\ z=nt+z_1 \end{cases}$$

Kanonik tenglamalar bilan berilgan ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchak

$$\cos\varphi=\frac{l_1l_2+m_1m_2+n_1n_2}{\sqrt{l_1^2+m_1^2+n_1^2}\cdot\sqrt{l_2^2+m_2^2+n_2^2}}.$$

Ikki to'g'ri chiziqning parallellik sharti:

$$l_1/l_2=m_1/m_2=n_1/n_2.$$

Ikki to'g'ri chiziqning perpendikulyarlik sharti:

$$l_1l_2+m_1m_2+n_1n_2=0.$$

$(x-x_1)/l=(y-y_1)/m=(z-z_1)/n$ to'g'ri chiziq va $Ax+By+Cz+D=0$ tekislik orasidagi burchak formulasi

$$\sin\varphi=\frac{Al+Bm+Cn}{\sqrt{A^2+B^2+C^2}\cdot\sqrt{l^2+m^2+n^2}}$$

tenglikdan topiladi.

To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarlik sharti:

$$Al+Bm+Cn=0.$$

To'g'ri chiziq va tekislikning parallellik sharti:

$$A/l=B/m=C/n.$$

$\frac{x-x_1}{l}=\frac{y-y_1}{m}=\frac{z-z_1}{n}$ to'g'ri chiziqning $Ax+By+Cz+D=0$ tekislik bilan kesishish nuqtasini topish uchun ularning tenglamasi birga echiladi, bunda to'g'ri chiziqning

$$\begin{cases} x=lt+x_0 \\ y=mt+y_0 \\ z=nt+z_0 \end{cases}$$

ko'rinishdagi parametrik tenglamasidan foydalaninsh kerak.

a) Agar $Al+Bm+Cn\neq0$ bo'lsa, to'g'ri chiziq tekislikni kesadi.

b) Agar Al+Bm+Cn=0, $Ax_0+By_0+Cz_0+D\neq 0$ bo'lsa, to'g'ri chiziq tekislikka parallel.

v) Agar Al+Bm+Cn=0, $Ax_0+By_0+Cz_0+D=0$ bo'lsa, to'g'ri chiziq tekislikda yotadi.

Ikkinchi tartibli sirtlar. Sfera

Dekart koordinata sistemasida markazi C(a,b,c) va radiusi r bo'lgan sfera

$$(x-a)^2+(y-b)^2+(z-c)^2=r^2$$

tenglama bilan aniqlanadi.

Agar markaz koordinata boshida yotsa, tenglama

$$x^2+y^2+z^2=r^2$$

ko'rinishida bo'ladi.

Silindrik sirtlar va ikkinchi tartibli konus

F(x,y)=0 tenglama fazoda yasovchisi OZ o'qiga parallel bo'lgan silindrik sirtni ifodalaydi. Shunga o'xshash F(x,z)=0 yasovchisi OY o'qiga, F(y,z)=0 OX o'qiga parallel bo'lgan silindrik sirtni ifodalaydi.

Ikkinchi tartibli silindrik sirtlarning kanonik tenglamalari:

$$\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1 \quad \text{–elliptik silindr;}$$

$$\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}=1 \quad \text{–giperbolik silindr;}$$

$y^2=2px$ –parabolik silindr.

Uchala silindrning yasovchilari OZ o'qiga parallel, yo'naltiruvchisi esa, XOY tekisligida yotuvchi ikkinchi tartibli egri chiziq (ellips, giperbola, parabola). Fazoda egri chiziqni ikki sirtning kesishgan chizig'i deb qarash mumkin.

Masalan, elliptik silindrning yo'naltiruvchisi, ya'ni XOY tekisligidagi ellips tenglamasi

$$\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1$$

z=0.

O'qi OZ, uchi koordinata boshida bo'lgan ikkinchi tartibli konus tenglamasi ushbu

$$\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}-\frac{z^2}{c^2}=0$$

ko'rinishda bo'ladi, xuddi shunga o'xshash,

$$\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}+\frac{z^2}{c^2}=0, \qquad -\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}+\frac{z^2}{c^2}=0$$

larning o'qlari mos ravishda OY, OX lar hisoblanadi.

Aylanma sirt. Ikkinchi tartibli sirt

Ellips, giperbola, parabolaning o'z simmetriya o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'lgan ikkinchi tartibli aylanma sirt tenglamalarini keltiramiz:

$\frac{x^2+y^2}{a^2}+\frac{z^2}{c^2}=1$ –aylanma ellipsoid, bu erda, aylanish o'qi OZ.

$\frac{x^2+y^2}{a^2}-\frac{z^2}{c^2}=1$ - aylanma bir pallali giperboloid, aylanish o'qi OZ (OZ giperbolaning mavhum o'qi).

$\frac{x^2+y^2}{a^2}-\frac{z^2}{c^2}=-1$ - aylanma ikki pallali giperboloid, aylanish o'qi OZ (giperbolaning haqiqiy o'qi).

$x^2+y^2=2pz$ – aylanma paraboloid.

Ikkinchi tartibli aylanma sirtlar umumiy ko'rinishdagi ikkinchi tartibli sirtlarning hususiy holidir:

$$\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}+\frac{z^2}{c^2}=1 \quad \text{- ellipsoid;}$$

$$\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}-\frac{z^2}{c^2}=1 \quad \text{- bir pallali giperboloid;}$$

$$\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}-\frac{z^2}{c^2}=-1$$ - ikki pallali giperboloid;

$$\frac{x^2}{p}+\frac{y^2}{q}=2z \quad (p>0,\ q>0)$$ - elliptik paraboloid.

Bu to'rtta ikkinchi tartibli sirtlardan, ikkinchi tartibli uchta silindr (elliptik, giperbolik, parabolik) ikkinchi tartibli konusdan tashqari yana bitta ikkinchi tartibli sirt – giperbolik paraboloid mavjud:

$$\frac{x^2}{p}-\frac{y^2}{q}=2z \quad (p>0,\ q>0)$$

Shunday qilib, 9 ta ikkinchi tartibli sirt mavjud.

2-§. MATEMATIK ANALIZGA KIRISh

Funksiya. Asosiy elementar funksiyalar va ularning xossalari

Ratsional va irratsional sonlar haqiqiy sonlar deyiladi. Barcha haqiqiy sonlar to'plami R bilan belgilanadi. Har bir haqiqiy sonni sonlar o'qidagi nuqtada tasvirlash mumkin.

X va Y ikkita bo'sh bo'lmagan to'plamlar bo'lsin. Agar X to'plamning har bir x elementiga biror aniq qoidaga asosan Y ning yagona elementi y mos kelsa, u holda, X to'plamda qiymatlar to'plami Y bo'lgan funksiya yoki akslantirish berilgan deyiladi. Buni shunday yozish mumkin: $x\in X, X\xrightarrow{f}Y$ yoki $f:X\to Y$, bunda X funksiyaning aniqlanish sohasi, Y to'plam esa - funksiyaning qiymatlar to'plami deyiladi. Agar y x-ning funksiyasi bo'lsa, u holda y=f(x) ko'rinishda ham yoziladi. f funksiyaning aniqlanish sohasi D(f) bilan, qiymatlar to'plami esa, E(f) bilan belgilanadi. Oddiy xollarda funksiyaning aniqlanish sohasi: $]a,b[$ interval (ochiq oraliq), ya'ni $a<x<b$ shartini qanoatlantiruvchi x-ning qiymatlar to'plami; $[a,b]$ segment (kesma yoki yopiq oraliq) ya'ni $a\le x\le b$ shartni

qanoatlantiruvchi x ning qiymatlar to'plami; $]a,b]$ (ya'ni $a<x\le b$), yoki $[a,b[$ (ya'ni $a\le x<b$) yarim interval, cheksiz interval $[a,+\infty[$ (ya'ni $a\le x<\infty$) yoki $]-\infty,b[$ (ya'ni $-\infty<x\le b$) yoki $]-\infty,+\infty[$ (ya'ni $-\infty<x<\infty$), bir necha intervallar va segmentlar to'plami va x.k.

Quyidagi funksiyalar asosiy elementar funksiyalar deyiladi:

1. $u=x^{\alpha}$ darajali funksiya, bunda $\alpha\in R$
2. $u=a^x$ ko'rsatkichli funksiya, bunda a - birdan farqli ixtiyoriy musbat son: a>0, $a\neq 1$
3. $y=\log_a x$ logarifmik funksiya, bunda a - birdan farqli xar qanday musbat son: $a>0$, $a\neq 1$.
4. y=sinx, y=cosx, y=tgx, y=ctgx, trigonometrik funksiyalar:
5. y=arcsinx, y=arccosx, y=arctgx, y=arcctgx teskari trigonometrik funksiyalar.

Elementar funksiyalar deb asosiy elementar funksiyalardan to'rt arifmetik amal va superpozitsiyalash (ya'ni murakkab funksiyalarni hosil qilish) amalini chekli son marta qo'llash yordamida hosil bo'ladigan funksiyalarga aytiladi.

Haqiqiy son x ning absolyut qiymati (moduli) elementar bo'lmagan funksiyaga misol bo'lib xizmat qiladi:

$$y=|x|=\begin{cases} x, x\ge 0 \ da \\ -x, x<0 \ da \end{cases}$$

|x| - geometrik nuqtai nazardan sonlar o'qida koordinatasi x bo'lgan nuqtadan koordinata boshigacha bo'lgan masofaga teng. Koordinatalari (x,f(x)) bo'lgan XOY tekislikdagi nuqtalar to'plami y=f(x) funksiyaning grafigi deyiladi, bunda $x\in D(f)$.

Agar xar qanday $x\in D(f)$ uchun f(-x)=f(x) [mos ravishda f(-x)=-f(x)] bo'lsa, aniqlanish sohasi nolga nisbatan simmetrik bo'lgan f(x) funksiya, juft (toq) funksiya deyiladi.

Juft funksiyaning grafigi ordinata o'qiga nisbatan, toq funksiyaning grafigi - koordinata boshiga nisbatan simmetrik bo'ladi. Agar shunday musbat T son mavjud bo'lsaki, $x\in D(f)$ va $(x+T)\in D(f)$ da f(x+T)=f(x) tenglik bajarilsa, f(x) funksiya davriy funksiya deyiladi. Ko'rsatilgan xossaga ega bo'lgan eng kichik musbat τ soniga funksiyaning asosiy davri deyiladi.

Sonli ketma-ketliklar, ularning limiti

Funksiyaning nuqtadagi chekli limitining ta'rifi:

Agar ixtiyoriy kichik ε > 0 uchun shunday δ(ε)>0 son topilsaki, |x-a|<δ bo'lganda, |f(x)-A|<ε tengsizlik kelib chiqsa, x→ a da A soni f(x) funksiyaning limiti deyiladi va quyidagicha yoziladi: $\lim\limits_{x\to a} f(x) = A$. Agar |x| > N bo'lganda |f(x)-A|<ε bo'lsa $\lim\limits_{x\to\infty} f(x) = A$ deb yoziladi.

Agar $\lim\limits_{x\to a} f(x) = 0$ (yoki $\lim\limits_{x\to a} F(x) = \infty$) bo'lsa, f(x) funksiya (yoki F(x)) cheksiz kichik (cheksiz katta) deyiladi.

x→ a bo'lganda, bir vaqtda 0 yoki ∞ ga intiluvchi 2 ta f(x) va φ(x) funksiyalar uchun $\lim\limits_{x\to a}\frac{f(x)}{\varphi(x)} = 1$ bo'lsa, bu funksiyalar ekvivalent deyiladi va f(x)~φ(x) ko'rinishda yoziladi.

Elementar funksiyaning biror nuqtadagi limiti funksiyaning shu nuqtadagi qiymatiga teng: $\lim\limits_{x\to a} f(x) = f(a)$. x→ a (a=0 yoki a=∞) bo'lganda funksiyaning limitini hisoblashda quyidagi aniqmasliklarga kelish mumkin:

$$\infty-\infty, \qquad \infty\cdot 0, \qquad \frac{0}{0}, \qquad 1^{\infty}, \qquad 0^{0}, \qquad \infty^{0}.$$

Bu aniqmasliklarni ochishning oddiy usullari:

1) Aniqmaslikka olib keladigan ko'paytuvchiga qisqartirish.

2) (x→ ∞ da ko'phadlarning nisbati berilsa) surat va mahrajni argumentning eng yuqori darajasiga bo'lish.

3) Cheksiz kichik va cheksiz katta ekvivalentlarni qo'llash.

4) Ikkita ajoyib limitlardan foydalanish

$$\lim_{\alpha(x)\to 0}\frac{\sin\alpha(x)}{\alpha(x)} = 1 \quad \text{va} \quad \lim_{\alpha(x)\to 0}(1+\alpha(x))^{\frac{1}{\alpha(x)}} = e.$$

Funksiyaning uzluksizligi

Agar

1. f(x) funksiya a nuqtada aniqlangan;
2. $\lim\limits_{x\to a} f(x) = f(a)$

bo'lsa, u holda, f(x) funksiya a nuqtada uzluksiz deyiladi.

Agar $\lim\limits_{x\to a-0} f(x) = f(a-0)$ ($\lim\limits_{x\to a+0} f(x) = f(a+0)$) bo'lsa, u holda, f(x) funksiya a nuqtada chapdan (o'ngdan) uzluksiz deyiladi.

Agarda funksiyaning aniqlanish sohasidagi a nuqtada uzluksizlik sharti buzilsa, bu nuqta funksiyaning uzulish nuqtasi deyiladi.

Agarda $\lim\limits_{x\to a-0} f(x) = f(a-0)$ va $\lim\limits_{x\to a+0} f(x) = f(a+0)$ limitlar mavjud bo'lib, lekin f(a), f(a-0), f(a+0) sonlar o'zaro teng bo'lmasalar bu holda a nuqta 1-tur uzulish nuqtasi deyiladi.

1-tur uzulish nuqtasi tuzatish mumkin bo'lgan uzulish nuqtasi deyiladi, agarda f(a-0)=f(a+0)≠f(a) bo'lsa, 1-tur uzulish nuqtasi sakrash nuqtasi deyiladi agarda f(a-0)≠f(a+0) bo'lsa f(a-0)-f(a+0) ayirmaga funksiyaning a nuqtadagi sakrash qiymati deyiladi.

1-tur uzulish nuqtasi bo'lmagan boshqa uzulish nuqtalari 2-tur uzulish nuqtalari deyiladi.

Bir o'zgaruvchili funksiyaning differensial hisobi

y=f(x) funksiyaning x bo'yicha hosilasi deb, funksiya orttirmasi Δu ning argument orttirmasi Δx ga nisbatining argument orttirmasi Δx→0 dagi limitiga aytiladi va ta'rifga asosan quyidagicha yoziladi:

$$f'(x) = \lim_{\Delta x\to 0}\frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x\to 0}\frac{f(x+\Delta x)-f(x)}{\Delta x}.$$

Hosilaning geometrik ma'nosi: y=f(x) funksiya grafigiga x nuqtada o'tkazilgan urunmaning burchak koeffitsientiga teng, ya'ni $y' = tg\alpha$. Hosila y=f(x) funksiyaning x nuqtadagi o'zgarish tezligidir. Hosilani topish amali funksiyani differensiallash deyiladi.

Hosilaning asosiy qoidalari:

1). $(u \pm v)' = u' \pm v'$. 2). $(Cu)' = Cu'$. 3). $(uv)' = u'v + uv'$.

4). $\left(\frac{u}{v}\right)' = \frac{u'v - uv'}{v^2}$. 5). $f'_x[u(x)] = f'_u[u(x)] \cdot u'_x(x)$

Hosilalar jadvali:

1). $C' = 0$; 2). $x' = 1$;

2. $(x^m)' = m \cdot x^{m-1}$.

3. $(\sqrt{x})' = \frac{1}{2\sqrt{x}}$.

4. $\left(\frac{1}{x}\right)' = -\frac{1}{x^2}$.

5. $(e^x)' = e^x$.

6. $(a^x)' = a^x \ln a$.

7. $(\ln x)' = \frac{1}{x}$.

8. $(\log_a x)' = \frac{1}{x \ln a}$.

9. $(\sin x)' = \cos x$.

10. $(\cos x)' = -\sin x$.

11. $(tgx)' = \frac{1}{\cos^2 x}$.

12. $(ctgx)' = -\frac{1}{\sin^2 x}$

13. $(\arcsin x)' = \frac{1}{\sqrt{1-x^2}}$.

14. $(\arccos x)' = -\frac{1}{\sqrt{1-x^2}}$.

15. $(arctgx)' = \frac{1}{1+x^2}$.

16. $(arcctgx)' = -\frac{1}{1+x^2}$

17. $(shx)' = \left(\frac{e^x - e^{-x}}{2}\right)' = chx$.

18. $(chx)' = \left(\frac{e^x + e^{-x}}{2}\right)' = shx$.

19. $(thx)' = \left(\frac{shx}{chx}\right)' = \frac{1}{ch^2 x}$.

20. $(cthx)' = \left(\frac{chx}{shx}\right)' = -\frac{1}{sh^2 x}$.

Oshkormas funksiyaning hosilasi

F(x,y)=0 oshkormas funksiyaning hosilasini topish uchun tenglikning ikki tomonidan y-ni x-ning funksiyasi ekanligini ko'zda tutgan holda x bo'yicha hosila olinadi va hosil bo'lgan tenglikdan y' topiladi.

Parametrik ko'rinishda berilgan funksiyalarning hosilasi

Agar funksiya quyidagi parametrik ko'rinishda berilgan bo'lsa:

$x=\varphi(t)$, $y=\psi(t)$; u holda $y'_x = \frac{y'_t}{x'_t}$.

Urunma tenglamasi

Agar egri chiziq y=f(x) tenglama orqali berilgan bo'lsa, u holda, $f'(x_0) = tg\alpha$, bu erda α OX o'qining musbat yo'nalishi bilan x_0 nuqtada egri chiziqqa o'tkazilgan urunma orasidagi burchak.

y=f(x) egri chiziqqa $M_0(x_0, y_0)$ nuqtada o'tkazilgan urunma tenglamasi: $y - y_0 = f'(x_0)(x - x_0)$.

Yuqori tartibli hosilalar

y=f(x) funksiyaning ikkinchi tartibli hosilasi deb uning birinchi tartibli hosilasidan olingan hosilasiga aytiladi va y'' bilan belgilanadi. y=f(x) funksiyaning uchinchi tartibli hosilasi deb uning ikkinchi tartibli hosilasidan olingan hosilasiga aytiladi hamda y''' bilan belgilanadi va hokazo.

Agar funksiya quyidagi parametrik ko'rinishda berilgan bo'lsa:

$x=\varphi(t)$, $y=\psi(t)$; u holda, $y''_{xx}=\frac{(y'_x)'_t}{x'_t}$, $y'''_{xxx}=\frac{(y''_{xx})'_t}{x'_t}$ va hokazo.

Lopital qoidasi

($\frac{0}{0}$ yoki $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmasliklarni ochish).

2-ta cheksiz kichik miqdor yoki cheksiz katta miqdor nisbatining limiti ularning hosilalari nisbatlarining limitiga teng, ya'ni

$$\lim_{x\to a}\frac{f(x)}{\varphi(x)}=\lim_{x\to a}\frac{f'(x)}{\varphi'(x)}=A.$$

Funksiyani tekshirish

Agar x_0 nuqtaning etarli kichik atrofida $f(x)<f(x_0)$ yoki $f(x)>f(x_0)$ tengsizliklar bajarilsa, f(x) funksiya x_0 nuqtada maksimum yoki minimumga ega bo'ladi (max. yoki min.).

Funksiyaning maksimum va minimumlari funksiyaning ekstremumlari deyiladi. Ekstremumning zaruriy sharti: agar x_0 f(x) funksiyaning ekstremum nuqtasi bo'lsa, u holda, $f'(x_0)=0$, yoki bu nuqtada hosila mavjud bo'lmaydi. Ekstremumning etarli sharti: agar $f'(x)$ x_0 nuqtaning chap tomonidan o'ng tomoniga o'tishda o'z ishorasini musbatdan manfiyga o'zgartirsa, shu nuqtada funksiya maksimumga ega bo'ladi, agar chapdan o'ngga o'tishda $f'(x)$ ning ishorasi manfiydan musbatga o'zgarsa, funksiya shu nuqtada minimumga ega bo'ladi.

Agar (a,b) ning hamma nuqtalarida $f''(x)<0$ bo'lsa, shu intervalda y = f(x) funksiyaning grafigi qavariq bo'ladi, agar (a,b) ning hamma nuqtalarida $f''(x)>0$ bo'lsa, shu intervalda y = f(x) funksiyaning grafigi botiq bo'ladi. Uzluksiz funksiya

grafigining qavariq qismini botiq qismidan ajratgan nuqta burilish nuqtasi bo'ladi, bu nuqtada $f''(x)=0$ bo'ladi.

y=kx+b to'g'ri chiziq y=f(x) funksiya grafigining og'ma asimptotasi deyiladi. Bu erda,

$$k=\lim_{x\to\infty}\frac{f(x)}{x},\qquad b=\lim_{x\to\infty}(f(x)-kx).$$

k=0 bo'lganda y=b bo'ladi, bu gorizontal asimptota deyiladi. Agar $\lim_{x\to a-0}f(x)=\infty$ yoki $\lim_{x\to a+0}f(x)=\infty$ bo'lsa, x=a to'g'ri chiziq vertikal asimptota deyiladi.

3-§. BIR O'ZGARUVChILI FUNKSIYANING INTEGRALI

Aniqmas integral

Agar $F'(x)=f(x)$ bo'lsa, F(x) funksiya f(x) funksiyaning boshlang'ich funksiyasi deyiladi. Agar F(x) funksiya f(x) funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bo'lsa , u holda, $F(x)+C$ ham boshlang'ich funksiyasidir. f(x) funksiyaning aniqmas integrali deb uning barcha boshlang'ichlari to'plamiga aytiladi va quyidagicha belgilanadi: $\int f(x)dx=F(x)+C$.

Integrallash qoidalari:

1. $(\int f(x)dx)'=f(x)$.
2. $d(\int f(x)dx)=f(x)dx$.
3. $\int dF(x)=F(x)+C$.
4. $\int af(x)dx=a\int f(x)dx$.
5. $\int[f_1(x)\pm f_2(x)]dx=\int f_1(x)dx\pm\int f_2(x)dx$.
6. Agar $\int f(x)dx=F(x)+C$ va $u=\varphi(x)$ bo'lsa, u holda, $\int f(u)du=F(u)+C$.

Aniqmas integrallar jadvali

I. $\int dx = x + C.$ VIII. $\int \sin x dx = -\cos x + C.$

II. $\int x^m dx = \frac{x^{m+1}}{m+1} + C \quad m \neq -1.$ IX. $\int \cos x dx = \sin x + C.$

III. $\int \frac{dx}{x} = \ln|x| + C.$ X. $\int \frac{1}{\sin^2 x} dx = tgx + C.$

IV. $\int \frac{dx}{1+x^2} = arctgx + C.$ XI. $\int \frac{1}{\cos^2 x} dx = -ctgx + C.$

V. $\int \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \arcsin x + C.$ XII. $\int shxdx = chx + C.$

VI. $\int e^x dx = e^x + C.$ XIII $\int chdx = shx + C$

VII. $\int a^x dx = \frac{a^x}{\ln a} + C.$

Ixtiyoriy funksiyalarni integrallashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Agar $\int f(x)dx = F(x) + C$ bo‘lsa, u holda, $\int f(ax+b)dx = \frac{1}{a}F(ax+b) + C$ bo‘ladi, bu erda, a va b lar ixtiyoriy o‘zgarmaslar.

2. Differensial ostiga kiritish:

$\int f[\varphi(x)] \cdot \varphi'(x)dx = \int f[\varphi(x)] \cdot d[\varphi(x)] = \int f(u)du$ chunki $\varphi'(x)dx = d\varphi(x)$, $[u = \varphi(x)]$.

3. Bo‘laklab integrallash formulasi: $\int udv = uv - \int vdu$.

Odatda, dv ifoda integrallashda qiyinchilik tug‘dirmaydigan qilib tanlab olinadi. Bo‘laklab integrallanadigan funksiyalar sinfiga, xususan:

$P(x) \cdot e^{\alpha x}$, $P(x) \cdot \sin \alpha x$, $P(x) \cdot \cos \alpha x$, $P(x) \cdot \ln x$,

$P(x) \cdot \arcsin x$, $P(x) \cdot arctgx$ lar kiradi, bu erda, P(x) – ko‘phad.

4. Ratsional kasrlarni integrallash:

$R(x) = \frac{P(x)}{Q(x)}$ ko‘phadlar nisbati berilgan bo‘lsa, R(x) elementar kasrlarga ajratiladi:

ular $\frac{A}{(x-a)^m}$, $\frac{Mx+N}{(x^2+px+q)}$ ko‘rinishda bo‘lib, bu erda m butun musbat son.

$$\int \frac{A}{x-a} dx = A \ln|x-a| + C;$$

$$\int \frac{Adx}{(x-a)^m} = -\frac{A}{m-1} \cdot \frac{1}{(x-a)^{m-1}} + C; \quad m \neq 1.$$

$$\int \frac{dx}{x^2+px+q} = \frac{2}{\sqrt{4q-p^2}} \cdot arctg \frac{2x+p}{\sqrt{4q-p^2}} + C.$$

5. O’zgaruvchilarni almashtirish usuli:

Bu usulning ma’nosi x o‘zgaruvchidan t o‘zgaruvchiga o‘tish: x=f(t). Ko‘p uchraydigan funksiyalarga standart almashtirishlar ko‘rsatish mumkin.

$\int R\left(x, \sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}}\right)dx,$ $\sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}} = t;$

$\int R(x, \sqrt{a^2-x^2})dx,$ $x = a \cdot \sin t;$

$\int R(x, \sqrt{a^2+x^2})dx,$ $x = a \cdot tgt;$

$\int R(x, \sqrt{x^2-a^2})dx,$ $x = \frac{a}{\sin t};$

$\int R(\sin x, \cos x)dx,$ $tg\left(\frac{x}{2}\right) = t;$

bu erda, R – ratsional funksiyaning simvoli.

Aniq integral

Agar $F'(x)=f(x)$ va $F(x)$ boshlang'ich $[a,b]$ kesmada uzluksiz bo'lsa, aniq integralni hisoblashda Nyuton-Leybnis formulasi

$$\int_a^b f(x)dx = F(b) - F(a)$$

ko'rinishda bo'ladi. Aniq integral $x=a$, $x=b$, $y=0$ to'g'ri chiziqlar va $y=f(x)$ funksiya grafigi bilan chegaralangan trapetsiyaning yuziga teng, agar $f(x) \geq 0$ bo'lsa, «+» ishora bilan, $f(x) \leq 0$ bo'lsa, "-" ishora bilan olinadi.

Xosmas integrallar.
Chegarasi cheksiz xosmas integrallar

Agar $\lim\limits_{b\to+\infty}\int_a^b f(x)dx$ limit mavjud bo'lsa, bu limit $f(x)$ funksiyaning $[a,+\infty)$ dagi xosmas integrali deyiladi va

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx = \lim_{b\to+\infty}\int_a^b f(x)dx$$ ko'rinishda yoziladi.

Xuddi shuningdek, agar $\lim\limits_{a\to-\infty}\int_a^b f(x)dx$ limit mavjud bo'lsa, bu limit $f(x)$ funksiyaning $(-\infty,b]$ dagi xosmas integrali deyiladi va $\int_{-\infty}^b f(x)dx = \lim\limits_{a\to-\infty}\int_a^b f(x)dx$ ko'rinishda yoziladi. Agar o'ng tomonda turgan limit chekli bo'lsa, u holda integral yaqinlashuvchi xosmas integral deyiladi, aks holda, integral uzoqlashuvchi deyiladi.

Cheksiz funksiyalarning xosmas integrallari

$f(x)$ funksiya $a \leq x < c$ oraliqda aniqlangan va uzluksiz bo'lsin, $x=c$ bo'lganda esa yoki aniqlanmagan, yoki uzilishga

ega bo'lsin. Bunday holda, $f(x)$ funksiyaning $a \leq x < c$ oraliqdagi integrali $\int_a^c f(x)dx = \lim\limits_{\varepsilon\to0}\int_a^{c-\varepsilon} f(x)dx$ ko'rinishda yoziladi.

Agar $f(x)$ funksiya (a,c) ning chap uchida uzlukli bo'lsa, u holda $\int_a^c f(x)dx = \lim\limits_{\varepsilon\to0}\int_{a+\varepsilon}^c f(x)dx$.

Agar o'ng tomonda turgan limit chekli bo'lsa, u holda, integral yaqinlashuvchi xosmas integral deyiladi, aks holda integral uzoqlashuvchi deyiladi. Agar $f(x)$ funksiya $[a,c]$ kesma ichidagi biror x_0 nuqtada uzlukli bo'lsa, u holda, integral ikki integral yig'indisi ko'rinishda yoziladi:

$$\int_a^c f(x)dx = \int_a^{x_0} f(x)dx + \int_{x_0}^c f(x)dx.$$

4-§. KO'P O'ZGARUVChILI FUNKSIYALAR

1. Agar biror D to'plamning har bir $(x_1,x_2,...x_n)$ elementiga biror qoida bilan E to'plamdagi yagona *u* haqiqiy son mos qo'yilgan bo'lsa, u holda, D to'plamda n o'zgaruvchining funksiyasi aniqlangan deyiladi va quyidagicha yoziladi: $u= u(x_1,x_2,...x_n)$.

2. $M(x_1,x_2,...x_n)$ nuqta funksiyaning aniqlanish sohasida $M_0(x_0,x_0,...x_0)$ nuqtaga ixtiyoriy usulda intilganda

$$\lim_{M\to M_0} u(M) = u(M_0)$$

tenglik o'rinli bo'lsa, $u= u(x_1,x_2,...x_n)$ funksiya $M_0(x_0,x_0,...x_0)$ nuqtada uzluksiz deyiladi.

3. $u= u(x_1,x_2,...x_n)$ funksiyaning x_1 o'zgaruvchi bo'yicha xususiy hosilasi

$$\frac{\partial u}{\partial x_1} = \lim_{\Delta x_1\to0}\frac{\Delta_{x_1}u}{\Delta x_1} = \lim_{\Delta x_1\to0}\frac{u(x_1+\Delta x_1,x_2,...,x_n)}{\Delta x_1}$$

tenglik bilan aniqlanadi.

Xuddi shuningdek, qolgan argumentlar bo'yicha ham xususiy hosilalar topiladi.

4. $\dfrac{\partial^n u}{\partial x_{i_1}^{k_1} \partial x_{i_2}^{k_2} \ldots \partial x_{i_m}^{k_m}}$

ifoda n – tartibli xususiy hosilaning umumiy formulasi, bu erda $k_1+k_2+\ldots+k_m=n$ va $1 \le i_j \le n$, $1 \le j \le m$.

5-§. ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALAR

1. Erkli o'zgaruvchi x, noma'lum funksiya y va uning hosilalari y', y'', ..., $y^{(n)}$ lar orasidagi bog'lanishga differensial tenglama deyiladi va quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$F(x, y, y', y'', \ldots, y^{(n)}) = 0 .$$

Birinchi tartibli differensial tenglama $F(x, y, y') = 0$ ko'rinishda yoziladi. Bu tenglamaning $x=x_0$ dagi $y=y_0$ boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi xususiy yechimini topish masalasi Koshi masalasi deyiladi.

Berilgan differensial tenglama $y=\varphi(x)$ yechimining XOY tekislikda chizilgan grafigi bu tenglamaning integral egri chizig'i deyiladi.

2. $y' + P(x)y = Q(x)$ ko'rinishdagi tenglama birinchi tartibli chiziqli differensial tenglama deyiladi. Agar $Q(x) = 0$ bo'lsa, bir jinsli, agar $Q(x) \neq 0$ bo'lsa, bir jinsli bo'lmagan differensial tenglama deyiladi. Bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi o'zgaruvchilarni ajratish yo'li bilan topiladi. Bir jinsli bo'lmagan tenglamaning umumiy yechimi esa bir jinsli tenglamaning umumiy yechimidan ixtiyoriy o'zgarmas C ni variatsiyalash yordamida topiladi yoki $y = u \cdot v$ ko'rinishda almashtirish yordamida topiladi.

3. $y^{(n)} = f(x, y', \ldots, y^{(n-1)})$ tenglama *n*-tartibli differensial tenglama bo'lib, uning $y(x_0) = y_0; y'(x_0) = y_0'; \ldots\ldots y^{(n-1)}(x_0) = y_0^{(n-1)}$ boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi $y=\varphi(x)$ yechimini topish masalasi Koshi masalasi deyiladi. n-tartibli differensial tenglamaning umumiy yechimi $y = \varphi(x, C_1, C_2, \ldots, C_n)$ ko'rinishda bo'ladi.

4) O'zgarmas koeffitsientli, n-tartibli, chiziqli, bir jinsli differensial tenglama berilgan bo'lsin:

$y^{(n)}+a_1y^{(n-1)}+\ldots+a_ny=0$,

bu erda, $a_1, a_2, \ldots, a_n$ –lar o'zgarmas sonlar.

Bu tenglamaning umumiy yechimini topish uchun uning fundamental yechimlar sistemasinin topish etarlidir. n – tartibli differensial tenglama bo'lgan holda fundamental sistema n ta chiziqli erkli xususiy yechimlardan iborat bo'ladi. Umumiy yechim $y_1, y_2, \ldots, y_n$ chiziqli erkli xususiy yechimlarning chiziqli kombinasiyasi sifatida yoziladi: $y=c_1y_1+c_2y_2+\ldots+c_ny_n$.

5) $y^{(n)} + a_1y^{(n-1)} + a_2y^{(n-2)} + \ldots + a_ny = f(x)$ n-tartibli, o'zgarmas koeffitsientli, bir jinsli bo'lmagan chiziqli tenglama berilgan bo'lsin. Bu tenglamaga mos bir jinsli o'zgarmas koeffisientli $y^{(n)} + a_1y^{(n-1)} + a_2y^{(n-2)} + \ldots + a_ny = 0$ tenglamaning umumiy yechimi $\tilde{y}$ bo'lsin. U holda o'zgarmas koeffisientli, bir jinsli bo'lmagan tenglamaning umumiy yechimi $y = \tilde{y} + y^0$ ko'rinishda izlanadi, bu erda, y^0 – bir jinsli bo'lmagan tenglamaning xususiy yechimi. O'zgarmas koeffitsientli, bir jinsli bo'lmagan tenglamaning xususiy yechimini topish uchun, noaniq koeffitsientlar usulini qo'llaymiz. Bu usul o'ng tomoni maxsus ko'rinishda bo'lgan tenglamalar uchun tatbiq qilinadi. Bunda xususiy yechimni o'ng tomonning shakliga o'xshash shaklda izlash kerak.

$$6)\ \begin{cases} \dfrac{dx}{dt} = f(t, x, y) \\ \dfrac{dy}{dt} = \varphi(t, x, y) \end{cases}$$

ko'rinishdagi sistemaga differensial tenglamalarning normal sistemasi deyiladi, bu erda, *x* va *y* lar noma'lum funksiyalar.

O'zgarmas koeffitsientli 2-ta chiziqli diffyerensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{cases} \dfrac{dx}{dt} = a_{11}x + a_{12}y \\ \dfrac{dy}{dt} = a_{21}x + a_{22}y \end{cases}$$

bu erda, a_{ij} – lar o'zgarmas sonlar.

Bu sistemani matrisa ko'rinishda quyidagicha:

$$\frac{dX}{dt} = A \cdot X$$

yozish mumkin, bu yerda,

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix}, \quad X = \begin{pmatrix} x \\ y \end{pmatrix}, \quad \frac{dX}{dt} = \begin{pmatrix} \frac{dx}{dt} \\ \frac{dy}{dt} \end{pmatrix}.$$

Sistemaning yechimini $x = p_1 e^{\lambda t}$; $y = p_2 e^{\lambda t}$ ko'rinishda qidiramiz. x va y qiymatlarni tenglamalar sistemasiga qo'yib, p_1, p_2 larga nisbatan chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} (a_{11} - \lambda)p_1 + a_{12}p_2 = 0 \\ a_{21}p_1 + (a_{22} - \lambda)p_2 = 0 \end{cases}$$

Bu sistema noldan farqli yechimlarga ega bo'lishi uchun uning determinanti nolga teng bo'lishi kerak:

$$\begin{vmatrix} a_{11} - \lambda & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} - \lambda \end{vmatrix} = 0$$

Bu esa λ ga nisbatan 2-tartibli algebraik tenglama. Uning ildizlari haqiqiy, har xil, kompleks, karrali bo'lishi mumkin.

Ularning qiymatlariga qarab A matritsaning xos vektorlari topiladi va ular orqali berilgan sistemaning umumiy yechimlari yoziladi.

6-§. SONLI VA FUNKSIONAL QATORLAR

1. $u_1 + u_2 + ... + u_n + ... = \sum_{n=1}^{\infty} u_n$ sonli qator deyiladi.

Agar $S_n = \sum_{k=1}^{n} u_k$ qismiy yig'indining limiti $S = \lim_{n \to \infty} S_n$ mavjud bo'lsa, sonli qator yaqinlashuvchi deyiladi va S-soni qatorning yig'indisi deyiladi. Agar limit mavjud bo'lmasa, berilgan sonli qator uzoqlashuvchi deyiladi. $\lim_{n \to \infty} u_n = 0$ sonli qator yaqinlashuvchi bo'lishining zaruriy shartidir.

Musbat hadli sonli qatorlar yaqinlashishining etarli shartlari ($u_n \geq 0$):

a) Agar $\lim_{n \to \infty} \frac{u_n}{v_n} = k$, $(k \neq 0, \infty)$ bo'lsa, u holda, $\sum_{n=1}^{\infty} u_n$ va $\sum_{n=1}^{\infty} v_n$ qatorlar bir vaqtda yaqinlashuvchi va uzoqlashuvchi bo'ladi. Musbat hadli sonli qatorlar odatda, quyidagi qator bilan taqqoslanadi: $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n^{\alpha}}$ - $\alpha > 1$ bo'lganda yaqinlashuvchi va $\alpha \leq 1$ bo'lganda uzoqlashuvchi qator bo'ladi.

b) Dalamber alomati:

$\lim_{n \to \infty} \frac{u_{n+1}}{u_n} = q$ bo'lsa, $\sum_{n=1}^{\infty} u_n$ qator $q < 1$ bo'lganda yaqinlashuvchi, $q > 1$ bo'lganda uzoqlashuvchi bo'ladi. Agar $q = 1$ bo'lsa, qatorning yaqinlashishini bu alomat bilan aniqlab bo'lmaydi.

Xuddi shunga o'xshash, Koshi alomati mavjud. Bundan tashqari integral alomati bilan ham qatorning yaqinlashuvchiligi tekshiriladi.

2. $u_1(x) + u_2(x) + ... + u_n(x) + ...$ ko'rinishdagi qatorga funksional qator deyiladi, $a_0 + a_1 x + a_2 x^2 + ... + a_n x^n + ...$ qator darajali qator deyiladi. a_n-lar qatorning koeffitsientlari. Darajali qatorning yaqinlashish sohasi markazi koordinatalar boshida bo'lgan intervaldan iborat. –R dan +R gacha bo'lgan intervalga darajali qatorning yaqinlashish intervali deyiladi, bu interval ichida yotgan har qanday x nuqtada qator yaqinlashadi, shu bilan birga absolyut yaqinlashadi, uning tashqarisidagi x nuqtalarda qator uzoqlashadi, R – darajali qatorning yaqinlashish radiusi deyiladi va

$$R = \lim_{n\to\infty}\left|\frac{u_n}{u_{n-1}}\right|$$

formula bilan hisoblanadi. Darajali qatorlarni yaqinlashish intervali ichida hadlab differensiallash va integrallash mumkin.

3. 2ℓ davrli f(x) funksiya uchun Fure qatori:

$$f(x) = \frac{a_0}{2} + \sum_{n=1}^{\infty} a_n \cos\frac{n\pi x}{\ell} + b_n \sin\frac{n\pi x}{\ell},$$

bu erda,

$$a_n = \frac{1}{\ell}\int_{-\ell}^{\ell} f(x)\cos\frac{n\pi x}{\ell}dx, \quad n=1,2,3,...$$

$$b_n = \frac{1}{\ell}\int_{-\ell}^{\ell} f(x)\sin\frac{n\pi x}{\ell}, \quad n=1,2,3,... \ .$$

Juft funksiya uchun Furye qatori:

$$f(x) = \frac{a_0}{2} + \sum_{n=1}^{\infty} a_n \cos\frac{n\pi x}{\ell}; \quad b_n=0, \ a_n = \frac{2}{\ell}\int_0^{\ell} f(x)\cos\frac{n\pi x}{\ell}dx,$$

Toq funksiyalar uchun Fure qatori:

$$f(x) = \sum_{n=1}^{\infty} b_n \sin\frac{n\pi x}{\ell}; \quad a_n=0, \ b_n = \frac{2}{\ell}\int_0^{\ell} f(x)\sin\frac{n\pi x}{\ell}dx,.$$

7-§. KARRALI, EGRI ChIZIQLI INTEGRALLAR

1. $\iint_D f(x,y)dxdy$ ifodaga ikki o'lchovli integral deyiladi.

Agar D soha $a \le x \le b$, $f_2(x) \le y \le f_1(x)$ da o'zgarsa, ikki o'lchovli integralni hisoblash $\iint_D f(x,y)dxdy = \int_a^b dx \int_{f_1(x)}^{f_2(x)} f(x,y)dy$ ko'rinishdagi ikki karrali integralni hisoblashga olib kelinadi.

Agar D soha $c \le y \le d$, $\varphi_2(y) \le x \le \varphi_1(y)$ da o'zgarsa, ikki o'lchovli integralni hisoblash $\iint_D f(x,y)dxdy = \int_c^d dy \int_{\varphi_1(y)}^{\varphi_2(y)} f(x,y)dx$ ko'rinishdagi ikki karrali integralni hisoblashga olib kelinadi.

$\int_c^d dy \int_{\varphi_1(y)}^{\varphi_2(y)} f(x,y)dx = \int_\alpha^\beta dx \int_{\varphi_1^{-1}(x)}^{\varphi_2^{-1}(x)} f(x,y)dy$. Bu erda $y = \varphi_{1,2}^{-1}(x)$ funksiya $x = \varphi_{1,2}(y)$ funksiyaga teskari funksiyadir.

Bu tenglik bilan integrallash tartibini o'zgartirish mumkin.

2. Ω sohada aniqlangan f(x,y,z) funksiyadan olingan uch o'lchovli integralni hisoblash $\iiint_\Omega f(x,y,z)dxdydz = \iint_{\Omega_{xy}} dxdy \int_{\psi_1(x,y)}^{\psi_2(x,y)} f(x,y,z)dz$ ko'rinishdagi integralni hisoblashga keltiriladi, bu erda, Ω_{xy} Ω – sohaning XOY-tekislikdagi proeksiyasi, $z=\psi_1(x,y)$ va $z=\psi_2(x,y)$ lar Ω soxani yuqoridan va pastdan chegaralagan sirtlar tenglamalari. Ikki o'lchovli integralga o'xshash uch o'lchovli integralda ham integrallash tartibini o'zgartirish mumkin.

3. Birinchi tur egri chiziqli integral $\int_{(\ell)} f(x,y,z)ds$ berilgan bo'lib, agar ℓ egri chiziq $x=x(t)$, $y=y(t)$, $z=z(t)$ $(\alpha \le t \le \beta)$ parametrik holda berilgan bo'lsa, unda,

$$\int_{(\ell)} f(x,y)ds = \int_\alpha^\beta f(x(t),y(t),z(t))\cdot\sqrt{x'^2(t)+y'^2(t)+z'^2(t)}dt$$

bo'ladi.

Ikkinchi tur egri chiziqli integral $\int_{(L)} P(x,y,z)dx + Q(x,y,z)dy + R(x,y,z)dz$ berilgan bo'lib, agar L-egri chiziq $x=x(t)$, $y=y(t)$, $z=z(t)$ $(\alpha \le t \le \beta)$ parametrik holda berilgan bo'lsa, u holda

$$\int_{(L)} P(x,y,z)dx + Q(x,y,z)dy + R(x,y,z)dz =$$

$$= \int_{\alpha}^{\beta} P(x(t),y(t),z(t))x'(t)dt + Q(x(t),y(t),z(t))y'(t)dt +$$

$$+ R(x(t),y(t),z(t))z'(t)dt$$

bo'ladi.

4. Uch o'lchovli integrallar yordamida:

a) jismning V hajmi va uning M massasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$M = \iiint_{\Omega} \mu(x,y,z)dxdydz, \quad V = \iiint_{\Omega} dxdydz$, bu erda, μ jism massasining zichligi;

b) bir jinsli jism inersiya momenti (masalan, OZ o'qi bo'yicha) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$J_z = \iiint_{\Omega} (x^2 + y^2)dxdydz.$$

8-§. KOMPLEKS O'ZGARUVChILI FUNKSIYALAR NAZARIYASI

Agar xar bir z=x+iy kompleks songa biror qonun yordamida bir yoki bir necha kompleks son w=u+iv mos qo'yilgan bo'lsa,

$$w = f(z) = u+iv = u(x,y) + iv(x,y)$$

kompleks o'zgaruvchili funksiya berilgan deyiladi.

Agar w = f(z) funksiya uzluksiz hosilaga ega bo'lsa, bu funksiyani analitik deyishadi. Analitiklikni tekshirish uchun quyidagi etarli va zaruriy shart mavjud:

$$\frac{\partial u(x,y)}{\partial x} = \frac{\partial v(x,y)}{\partial y}, \qquad \frac{\partial u(x,y)}{\partial y} = -\frac{\partial v(x,y)}{\partial x}$$

Bu shartlar bajarilganda hosila quyidagi formula yordamida topiladi:

$$f'(z) = \frac{\partial u}{\partial x} + i\frac{\partial v}{\partial x} = \frac{\partial v}{\partial y} - i\frac{\partial u}{\partial y} = \frac{\partial u}{\partial x} - i\frac{\partial u}{\partial y} = \frac{\partial v}{\partial y} + i\frac{\partial v}{\partial x}$$

9-§. EHTIMOLLAR NAZARIYASI

Ehtimollar nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lmish hodisa deb sinov (tajriba) o'tkazish natijasida, ya'ni malum shartlar majmui amalga oshishi natijasida ro'y berishi mumkin bo'lgan har qanday faktga aytiladi. Tajribaning natijasi bir qiymatli aniqlanmagan hollarda hodisa – tasodifiy hodisa deb ataladi, tajriba esa tasodifiy tajriba deb ataladi. Tasodifiy tajribalar haqida so'z yuritganimizda biz faqat etarlicha ko'p marta takrorlash mumkin bo'lgan (hech bo'lmaganda nazari jihatdan) tajribalarni ko'zda tutamiz. Tasodifiy tajribaning matematik modelini qurish quyidagi etaplarni o'z ichiga oladi:

a) elementar hodisalar to'plami Ω - ni tuzish;

b) berilgan tajriba uchun etarli bo'lgan hodisalar sinfi $\mathfrak{R}$ ni ajratish;

v) shu hodisalar sinfi ustida ma'lum shartlarni qanoatlantiruvchi sonli funksiya P – hodisaning ehtimolini berish.

Hosil bo'lgan $(\Omega, \mathfrak{R}, P)$ - uchlikni ehtimollar fazosi deb ataymiz. Ω - elementar hodisalar to'plami deb berilgan tasodifiy tajribada ro'y berishi mumkin bo'lgan barcha bir-birini rad etuvchi hodisalar to'plamiga aytiladi. Ω - ning elementlari ω_i, i=1,2,. . .,n bilan belgilanadi. n – esa Ω - to'plam elementlarining soni.

Ehtimollik hodisadan olingan sonli funksiya. Haqiqiy o'zgaruvchili funksiyalar argumentining barcha qiymatlarida aniqlangan bo'lishi shart bo'lmaganligi kabi, Ω to'plamning ixtiyoriy to'plam ostlari uchun ehtimolni aniqlash har doim xam mumkin bo'lmaydi. To'plam ostlari sinflarini cheklashga to'g'ri kelgan hollarda, biz bu sinflardan hodisalar ustidagi amallarga nisbatan yopiqligini talab etamiz.

$\mathfrak{R}$ hodisalar sinfini shu shartlarni nazarda tutgan holda, Ω to'plamning to'plam ostlaridan tuzamiz.

P ehtimollik tasodifiy hodisadan olingan sonli funksiya bo'lib, u hodisaning ro'y berish imkonining obektiv darajasining sonli xarakteristikasidir.

Murakkab hodisa yoki oddiygina hodisa deb Ω - elementar hodisalar to'plamining ixtiyoriy to'plam ostiga aytiladi.

Hodisalar uch turga ajratiladi: muqarrar, ro'y bermaydigan va tasodifiy hodisalar.

2. Ehtimolning klassik ta'rifi: A hodisaning ehtimoli deb, tajribaning bu hodisani ro'y berishiga qulaylik tug'diruvchi elementar hodisalari soni *m* ning, tajribaning barcha mumkin bo'lgan teng imkoniyatli elementar hodisalari soni *n* ga nisbatiga aytamiz:

$$P(A)=\frac{m}{n}.$$

8. Hodisaning nisbiy chastotasi:

Hodisa ro'y bergan natijalar sonining aslida o'tkazilgan jami tajribalar soniga nisbatiga hodisaning nisbiy chastotasi deyiladi:

$$W(A)=\frac{M}{N}$$

bu erda, M – hodisalarning ro'y berish soni;

N – tajribalarning jami soni.

8. Ehtimolning geometrik ta'rifi:

Ω - n o'lchovli Evklid fazosining cheklangan to'plami bo'lsin. Hodisa deb Ω ning o'lchovini aniqlab bo'ladigan to'plam ostini qaraymiz. $\Re$ deb Ω ning barcha o'lchovga ega bo'lgan to'plam ostlari sinfini belgilaymiz. U holda A hodisaning ehtimoli deb quyidagiga aytamiz:

$$P(A)=\frac{\mu(A)}{\mu(\Omega)},$$

bu erda, $\mu(A)$ – A to'plamning o'lchami. (n=1 bo'lganda uzunlik, n=2 bo'lganda yuza, n=3 bo'lganda hajm).

8. Shartli ehtimollik:

A hodisaning B hodisa ro'y berdi degan shart ostida hisoblangan ehtimolligi A hodisaning P(B) > 0 dagi shartli ehtimolligi deb ataladi va P(A/B) bilan belgilanadi:

$$P(A/B)=\frac{P(AB)}{P(B)}.$$

Bundan esa ehtimolliklarni ko'paytirish formulasi kelib chiqadi:

$$P(AB)=P(B)P(A/B).$$

8. To'la ehtimollik formulasi.

$A_1, A_2, ..., A_n$ lar birgalikda bo'lmagan hodisalarning to'la guruhini tashkil etsin va barcha k-lar uchun $R(A_k) > 0$ bo'lsin. U holda,

$$P(B)=\sum_{\kappa=1}^{n}P(A_\kappa)\cdot P(B/A_\kappa).$$

8. Hodisalarning bog'liqsizligi:

Agar P(B) > 0 va P(A/B) = P(A) bo'lsa *A* hodisa *B* hodisaga bog'liq emas deyiladi. Bundan esa, o'zaro bog'liq bo'lmagan A va B hodisalar uchun P(AB)=P(A)P(B) tenglik kelib chiqadi.

8. $P_n(k)=\frac{n!}{k!(n-k)!}p^k q^{n-k}$ Bernulli formulasi. Bu erda $P_n(k)$ – A hodisaning n-ta tajribada k- marta ro'y berish ehtimoli, p-esa A hodisaning bitta tajribada ro'y berish ehtimoli: q=1-p.

9. Diskret tasodifiy miqdor deb, ko'pi bilan sanoqli sondagi qiymatlarni ma'lum ehtimollik bilan qobul qiladigan miqdorga aytiladi. Uzluksiz tasodifiy miqdor deb, chekli yoki cheksiz oraliqdagi barcha qiymatlarni qobul qilishi mumkin bo'lgan miqdorga aytiladi. Tasodifiy miqdorning qobul qiladigan qiymatlari bilan ularning ehtimollari orasidagi munosabatga tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni deyiladi.

6. Diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi deb quyidagi tenglik bilan aniqlanadigan skalyar kattalikka aytiladi:

$M(X)=x_1p_1+x_2p_2+...+x_np_n$

bu erda $x_1, x_2, ..., x_n$ – tasodifiy miqdorning mumkin bo'lgan qiymatlari, $p_1, p_2, ... p_n$ – mos ehtimolliklar.

$$D(X)=M(x^2)-[M(x)]^2$$

ifodaga dispersiya deyiladi.

$$\sigma(X)=\sqrt{D(X)}$$

ifodaga o'rta kvadratik chetlashish deyiladi.

10. X tasodifiy miqdorning o'z matematik kutilmasidan chetlanishi absolyut qiymat bo'yicha ε musbat sondan kichik bo'lish ehtimoli $1-\frac{D(X)}{\varepsilon^2}$ dan kichik emas, ya'ni

$$P(|X-M(X)|<\varepsilon)\geq 1-\frac{D(X)}{\varepsilon^2}.$$

Bu Chebishev tengsizligi deyiladi.

10-§. MATEMATIK STATISTIKA ELEMENTLARI

Statistika tabiatda va jamiyatda bo'ladigan ommaviy hodisalarni o'rganadi. Matematik statistikaning vazifasi statistik ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish va shu asosda xulosalar chiqarishdan iborat.

Biror bir to'plamdan tasodifiy ravishda tanlab olingan ob'ektlar to'plamiga tanlanma deyiladi.

Tanlanma ajratiladigan ob'ektlar to'plami bosh to'plam deyiladi. Tanlanmaning hajmi deb, shu tanlanmadagi ob'ektlar soniga aytiladi.

Olingan ob'ekt kuzatish o'tkazilgandan keyin bosh to'plamga qaytarilsa takror tanlanma, qaytarilmasa notakror tanlanma deyiladi.

Biror *X* bosh to'plamdan $x_1, x_2, \ldots, x_n$ – tanlanma olingan bo'lsin. Agar $x_1, x_2, \ldots, x_n$ larni $x_1^*\leq x_2^*\leq\ldots\leq x_n^*$ kabi o'sish tartibida joylashtirsak, $x_1^*, x_2^*, \ldots, x_n^*$ variatsion qator hosil bo'ladi. Tanlanmaning elementlari variantalar deyiladi. Variantalarning har biri bir necha bor takrorlanishi mumkin:

x_1^* varianta n_1 marta, x_2^* varianta n_2 marta, ... , x_k^* varianta n_k marta takrorlansin va $n=n_1+n_2+\ldots+n_k$ bo'lsin, $n_1, n_2, \ldots, n_k$ sonlar chastotalar deyiladi.

Har bir chastotaning tanlanma hajmi n ga nisbati shu variantaning nisbiy chastotasi deyiladi:

$$w_i=\frac{n_i}{n},\qquad i=\overline{1,k}\,;$$

$$X:\quad x_1,\quad x_2,\quad \ldots,\quad x_k;$$
$$W:\quad w_1,\quad w_2,\quad \ldots,\quad w_k;$$

jadval X tasodifiy miqdorning statistik yoki empirik taqsimoti deyiladi.

Variantalarning *x* sonidan kichik bo'lgan qiymatlarining nisbiy chastotasi

$$F_n(x)=\frac{m(x)}{n}$$

empirik taqsimot funksiya deyiladi. Chastotalar poligoni deb, (x_1, n_1) ; (x_2, n_2) ; . . . ; (x_k, n_k) nuqtalarni tutashtiruvchi siniq chiziqqa aytiladi. Nisbiy chastotalar poligoni deb esa, (x_1, w_1) ; (x_2, w_2) ; . . . ; (x_k, w_k) nuqtalarni tutashtiruvchi siniq chiziqqa aytiladi. Chastotalar gistogrammasi deb, asoslari h-uzunlikdagi intervallar, balandliklari esa, n_i -dan iborat bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklardan iborat pog'onasimon shaklga aytiladi, bu erda h-bosh to'plamning kuzatiladigan qiymatlarini o'z ichiga olgan interval uzunligi, n_i - intervalga tushgan variantalar soni.Matematik statistika o'rganadigan masalalardan biri – taqsimotning turli sonli xarakteristikalarini nuqtaviy baholashdan iborat. Nuqtaviy baho deb, bitta son bilan aniqlanadigan statistik bahoga aytiladi.

Tanlanmaning o'rta arifmetik qiymati:

$$\overline{X}=\frac{\sum_{i=1}^{n}x_i}{n}$$

bo'ladi, tanlanma dispersiyasi deb,

$$\sigma^2=\frac{\sum_{i=1}^{n}n_i(x_i-\overline{x})^2}{\sum_{i=1}^{n}n_i}$$

ifodaga aytiladi. Bundan tashqari intervalli baholar ham qaraladi. Intervalli baho deb baholanayotgan parametrni qoplaydigan intervalning uchlari bo'lgan ikki son bilan aniqlanadigan bahoga aytiladi.

Statistik gipoteza deb, noma'lum taqsimotning ko'rinishi yoki ma'lum taqsimotlarning parametrlari haqidagi gipotezaga aytiladi. Gipotezalarni tekshirishda birinchi tur xatolik shundan iboratki, bunda, to'g'ri gipoteza rad qilinadi. Ikkinchi tur xatolik shundan iboratki, bunda, noto'g'ri gipoteza qabul qilinadi.

Statistik kriteriy (yoki oddiygina kriteriy) deb, nolinchi gipotezani tekshirish uchun xizmat qiladigan tasodifiy miqdorga aytiladi. Bosh to'plamning normal taqsimlanganligi haqidagi gipotezani tekshirishda quyidagi Pirson kriteriyasi ishlatiladi:

$$\chi^2 = \sum \frac{(n_i - n_i')^2}{n_i'}.$$

Pirson kriteriyasi yordamida empirik chastotalar n_i va nazariy chastotalar n_i' - lar taqqoslanadilar.

Agar X tasodifiy miqdorning har bir qiymatiga biror qonun asosida Y tasodifiy miqdorning taqsimoti yoki sonli xarakteristikasi mos kelsa, u holda X va Y orasidagi munosabat statistik yoki korrelyatsion munosabat deyiladi. Bu munosabatni jadval ko'rinishda ifodalash mumkin.

Bog'liqlik miqdori bo'lgan korrelyatsion koeffitsientini

$$r_{xy} = \frac{\sum x_i \cdot y_i - n \cdot \overline{x} \cdot \overline{y}}{n \cdot \sigma_x \sigma_y}$$

formula yordamida topish mumkin.

II BOB. YOZMA ISh VARIANTLARINING NAMUNAVIY YEChIMLARI

1-§. BIRINChI YOZMA ISh

1. Biror bazisda $\vec{a}(a_1, a_2, a_3)$, $\vec{b}(b_1, b_2, b_3)$, $\vec{c}(c_1, c_2, c_3)$ va $\vec{d}(d_1, d_2, d_3)$ vektorlar berilgan. $\vec{a}, \vec{b}, \vec{c}$ vektorlar bazis tashkil etishini ko'rsating va bu bazisda $\vec{d}$ vektorning koordinatalarini toping.

Berilishi:

$\vec{a}(1;-2;3)$, $\vec{b}(4;7;2)$, $\vec{c}(6;4;2)$, $\vec{d}(14;18;6)$.

$\vec{a}$, $\vec{b}$ va $\vec{c}$- lar bazis tashkil etishi uchun ular nokomplanar bo'lishlari kerak.

Agarda $\vec{a} \cdot \vec{b} \cdot \vec{c} \neq 0$ bo'lsa, $\vec{a}$, $\vec{b}$, $\vec{c}$ vektorlar nokomplanar bo'ladilar. Shuni tekshiramiz:

$$\vec{a} \cdot \vec{b} \cdot \vec{c} = \begin{vmatrix} 1 & -2 & 3 \\ 4 & 7 & 2 \\ 6 & 4 & 2 \end{vmatrix} = 14 - 24 + 48 - 126 + 16 - 8 = -80 \neq 0$$

Demak, $\vec{a}$, $\vec{b}$, $\vec{c}$ - vektorlar bazis tashkil etadi. $\vec{d}$ vektorning $\vec{a}$, $\vec{b}$, $\vec{c}$ bazisdagi yoyilmasi $\vec{d} = \lambda_1 \vec{a} + \lambda_2 \vec{b} + \lambda_3 \vec{c}$ ko'rinishda bo'ladi. Bunga $\vec{a}$, $\vec{b}$, $\vec{c}$ va $\vec{d}$ vektorlarning koordinatalarining qiymatlarini qo'yib quyidagini topamiz:

$$(14;18;6) = \lambda_1 (1;-2;3) + \lambda_2 (4;7;2) + \lambda_3 (6;4;2);$$

$$(14;18;6) = (\lambda_1 + 4\lambda_2 + 6\lambda_3; -2\lambda_1 + 7\lambda_2 + 4\lambda_3; 3\lambda_1 + 2\lambda_2 + 2\lambda$$

$$\begin{cases} \lambda_1 + 4\lambda_2 + 6\lambda_3 = 14 \\ -2\lambda_1 + 7\lambda_2 + 4\lambda_3 = 18 \\ 3\lambda_1 + 2\lambda_2 + 2\lambda_3 = 6 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \lambda_1 + 4\lambda_2 + 6\lambda_3 = 14 \\ 15\lambda_2 + 16\lambda_3 = 46 \\ 10\lambda_2 + 16\lambda_3 = 36 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} \lambda_1 + 4\lambda_2 + 6\lambda_3 = 14 \\ 15\lambda_2 + 16\lambda_3 = 46 \\ 5\lambda_2 = 10 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \lambda_1 = 0 \\ \lambda_2 = 2; \\ \lambda_3 = 1 \end{cases}$$

Javob: $\vec{d} = 2\vec{b} + \vec{c};$

2. $A_1A_2A_3A_4$ piramida uchlarining koordinatalari berilgan.

Toping:

1) A_1A_2 qirrasining uzunligini.
2) A_1A_2 va A_1A_4 qirralari orasidagi burchagini.
3) A_1A_4 qirrasi bilan $A_1A_2A_3$ yoqlar orasidagi burchagini.
4) $A_1A_2A_3$ yoqlar yuzasini.
5) Piramida hajmini.
6) A_1A_2 qirrasi yotgan to'g'ri chiziq tenglamasini.
7) $A_1A_2A_3$ tekisligining tenglamasini.
8) A_4 uchidan $A_1A_2A_3$ yoqqa tushirilgan balandlik tengamasini.

Berilgan: $A_1(6,6,5), A_2(4,9,5) A_3(4,6,11) A_4(6,9,3)$

1) $\overline{A_1A_2} = \{4-6 \quad 9-6 \quad 5-5\} = \{-2;3;0\};$

$\left|\overline{A_1A_2}\right| = \sqrt{(-2)^2 + 3^2 + 0^2} = \sqrt{13};$

2) $\overline{A_1A_2} = \{-2;3;0\};$

$\overline{A_1A_4} = \{6-6 \quad 9-6 \quad 3-5\} = \{0;3;-2\};$

$$\cos(\widehat{\overline{A_1A_2};\overline{A_1A_4}}) = \frac{\overline{A_1A_2} \cdot \overline{A_1A_4}}{\left|\overline{A_1A_2}\right| \cdot \left|\overline{A_1A_4}\right|} = \frac{0\cdot(-2) + 3\cdot 3 + (-2)\cdot 0}{\sqrt{(-2)^2 + 3^2 + 0^2}\sqrt{0^2 + 3^2 + (-2)^2}} = \frac{9}{13};$$

$$\widehat{\overline{A_1A_2};\overline{A_1A_4}} = \arccos\frac{9}{13} \approx 46^0 2';$$

3) A_1 va A_4 nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi:

$$\frac{x - x_1}{x_4 - x_1} = \frac{y - y_1}{y_4 - y_1} = \frac{z - z_1}{z_4 - z_1}$$

Bundan $\dfrac{x-6}{6-6} = \dfrac{y-6}{9-6} = \dfrac{z-5}{3-5} \Rightarrow \dfrac{x-6}{0} = \dfrac{y-6}{3} = \dfrac{z-5}{-2}$

kelib chiqadi.

Bu to'g'ri chiziqning yo'naltiruvchi vektori $\vec{S} = \{0;3;-2\}$.

A_1, A_2, A_3 nuqtalardan o'tuvchi tekislik tenglamasi:

$$\begin{vmatrix} x - x_1 & y - y_1 & z - z_1 \\ x_2 - x_1 & y_2 - y_1 & z_2 - z_1 \\ x_3 - x_1 & y_3 - y_1 & z_3 - z_1 \end{vmatrix} = 0$$

Bundan,

$$\begin{vmatrix} x-6 & y-6 & z-5 \\ 4-6 & 9-6 & 5-5 \\ 4-6 & 6-6 & 11-5 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} x-6 & y-6 & z-5 \\ -2 & 3 & 0 \\ -2 & 0 & 6 \end{vmatrix} =$$

$$= 18(x-6) + 6(z-5) + 12(y-6) =$$

$$= 18x + 12y + 6z - 210 = 0. \quad \text{yoki}$$

$6x + 4y + 2z - 70 = 0$ kelib chiqadi.

Bu tekislikning normali: $\vec{n} = \{6;4;2\}$.



1-chizma

$\vec{n}$ va $\vec{S}$ orasidagi burchak φ quyidagicha topiladi:

$$\cos\varphi = \frac{\vec{n}\cdot\vec{S}}{|\vec{n}|\cdot|\vec{S}|};$$

A_1A_4 va $A_1A_2A_3$ lar orasidagi burchak θ quyidagicha topiladi:

$$\theta = 90^0 - \varphi \Rightarrow \varphi = 90^0 - \theta;$$

$$\cos\varphi = \cos(90^0 - \theta) = \sin\theta;$$

Demak, $\sin\theta = \dfrac{\vec{n}\cdot\vec{S}}{|\vec{n}|\cdot|\vec{S}|};$

$$\sin\theta = \frac{0\cdot 6 + 3\cdot 4 + (-2)\cdot 2}{\sqrt{0^2+3^2+(-2)^2}\cdot\sqrt{6^2+4^2+2^2}} = \frac{8}{\sqrt{56\cdot 13}} = \frac{8}{\sqrt{578}};$$

$$\theta = \arcsin\frac{8}{\sqrt{578}};$$

4) $A_1A_2A_3$ ning yuzini quyidagi formuladan topamiz:

$$S_{A_1A_2A_3} = \frac{1}{2}\left|\overrightarrow{A_1A_2}\times\overrightarrow{A_1A_3}\right|; \qquad \overrightarrow{A_1A_2} = \{-2;3;0\};$$

$$\overrightarrow{A_1A_3} = \{4-6 \quad 6-6 \quad 11-5\} = \{-2;0;6\};$$

$$\overrightarrow{A_1A_2}\times\overrightarrow{A_1A_3} = \begin{vmatrix} \vec{i} & \vec{j} & \vec{k} \\ -2 & 3 & 0 \\ -2 & 0 & 6 \end{vmatrix} = \vec{i}\cdot\begin{vmatrix} 3 & 0 \\ 0 & 6 \end{vmatrix} - \vec{j}\cdot\begin{vmatrix} -2 & 0 \\ -2 & 6 \end{vmatrix} + \vec{k}\cdot\begin{vmatrix} -2 & 3 \\ -2 & 0 \end{vmatrix} =$$

$$= 18\vec{i} + 12\vec{j} + 6\vec{k};$$

$$S_{A_1A_2A_3} = \frac{1}{2}\left|18\vec{i} + 12\vec{j} + 6\vec{k}\right| = \frac{1}{2}\sqrt{18^2+12^2+6^2} \approx 11{,}22.$$

5) Piramidaning hajmini quyidagi formuladan topamiz.

$$V = \frac{1}{6}\left|\overrightarrow{A_1A_2}\cdot\overrightarrow{A_1A_3}\cdot\overrightarrow{A_1A_4}\right| = \frac{1}{6}\left\|\begin{matrix} -2 & 3 & 0 \\ -2 & 0 & 6 \\ 0 & 3 & -2 \end{matrix}\right\| = \frac{1}{6}|36-12| = \frac{24}{6} = 4.$$

6) A_1, A_2 nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi:

$$\frac{x-x_1}{x_2-x_1} = \frac{y-y_1}{y_2-y_1} = \frac{z-z_1}{z_2-z_1}$$

yoki

$$\frac{x-6}{4-6} = \frac{y-6}{9-6} = \frac{z-5}{5-5} \Rightarrow \frac{x-6}{-2} = \frac{y-6}{3} = \frac{z-5}{0};$$

7) $A_1A_2A_3$ - tekislik tenglamasi 3-bo'limda topildi:

$$6x + 4y + 2z - 70 = 0.$$

8) A_4 uchidan $A_1A_2A_3$ yoqqa tushurilgan balandlik tenglamasini

tuzing. $A_4(6,9,3)$

$A_1A_2A_3$ - ning tenglamasi: $6x+4y+2z-70=0.$

$\vec{n}=\{6,4,2\}$ - tekislikning normali.

A_4 - nuqtadan o'tib yo'naltiruvchisi $\vec{S}=\{m;n;l\}$ - bo'lgan to'g'ri chiziqning tenglamasi.

$$\frac{x-6}{m}=\frac{y-9}{n}=\frac{z-3}{l};$$

To'g'ri chiziq bilan tekislikning perpendikulyarligidan $\vec{n}\parallel\vec{S}$ ligi kelib chiqadi va m,n va l lar 6,4,2 larga proporsional bo'ladi. Shuning uchun izlangan balandlik tenglamasi:

$$\frac{x-6}{6}=\frac{y-9}{4}=\frac{z-3}{2}\quad \text{bo'ladi.}$$

3. Berilgan chiziqli tenglamalar sistemasining birgalikdaligini ko'rsating va uni eching.

Berilishi:

$$\begin{cases} x_1+x_2-x_3=1 \\ 8x_1+3x_2-6x_3=2 \\ 4x_1+x_2-3x_3=3 \end{cases}$$

Sistema birgalikda bo'lishi uchun asosiy determinant $\Delta\neq 0$ bo'lishi kerak.

$$\Delta=\begin{vmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 8 & 3 & -6 \\ 4 & 1 & -3 \end{vmatrix}=-9-24-8+12+24+6=1\neq 0.$$

Demak, sistema birgalikda va yagona yechimga ega.

Kramer usuli:

Yechimlar quyidagi formulalar orqali topiladi:

$$x_1=\frac{\Delta x_1}{\Delta};\ x_2=\frac{\Delta x_2}{\Delta};\ x_3=\frac{\Delta x_3}{\Delta};$$

$$\Delta x_1=\begin{vmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 2 & 3 & -6 \\ 3 & 1 & -3 \end{vmatrix}=-9-18-2+9+6+6=-8;$$

$$\Delta x_2=\begin{vmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 8 & 2 & -6 \\ 4 & 3 & -3 \end{vmatrix}=-6-24-24+8+18+24=-4;$$

$$\Delta x_3=\begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 8 & 3 & 2 \\ 4 & 1 & 3 \end{vmatrix}=9+8+8-12-2-24=25-38=-13;$$

$$x_1=\frac{\Delta x_1}{\Delta}=\frac{-8}{1}=-8;\qquad x_2=\frac{\Delta x_2}{\Delta}=\frac{-4}{1}=-4;\qquad x_3=\frac{\Delta x_3}{\Delta}=\frac{-13}{1}=-13;$$

Javob: $x_1=-8$, $x_2=-4$, $x_3=-13$.

Gauss usuli:

$$\begin{cases} x_1+x_2-x_3=1 \\ 8x_1+3x_2-6x_3=2 \\ 4x_1+x_2-3x_3=3 \end{cases}\overset{(1)}{\Rightarrow}\begin{cases} x_1+x_2-x_3=1 \\ 5x_2-2x_3=6 \\ 3x_2-x_3=1 \end{cases}\overset{(2)}{\Rightarrow}$$

$$\Rightarrow\begin{cases} x_1+x_2-x_3=1 \\ 5x_2-2x_3=6 \\ x_2=-4 \end{cases}\overset{(3)}{\Rightarrow}\begin{cases} x_1+x_2-x_3=1 \\ 5\cdot(-4)-2\cdot x_3=6 \\ x_2=-4 \end{cases}\overset{(4)}{\Rightarrow}\begin{cases} x_1=-8 \\ x_3=-13 \\ x_2=-4 \end{cases}$$

(1): Ikkinchi qator o'rniga, shu qatordan, birinchi qatorni 8 ga ko'paytirib ayirilgan natijani yozamiz.

(2): Uchinchi qator o'rniga, shu qatorni 3 ga ko'paytirib ikkinchi qatorni ayirilganini yozamiz. Natijada $x_2 = -4$ qiymat hosil bo'ladi.

(3): Topilgan $x_2 = -4$ qiymatni ikkinchi qatorga qo'yib $x_3 = -13$ qiymatni topamiz.

(4): Topilgan $x_2 = -4$ va $x_3 = -13$ qiymatlarni birinchi qatorga qo'yib $x_1 = -8$ qiymatni topamiz.

Javob: x_1 = -8, x_2 = -4, x_3 = -13.

4. Berilgan matritsaning xos son va xos vektorlarini toping:

$$\begin{pmatrix} 1 & 1 & 3 \\ 1 & 5 & 1 \\ 3 & 1 & 1 \end{pmatrix}$$

Xarakteristik tenglamasini tuzamiz:

$$\begin{vmatrix} 1-\lambda & 1 & 3 \\ 1 & 5-\lambda & 1 \\ 3 & 1 & 1-\lambda \end{vmatrix} = 0 \quad \text{yoki} \quad (\lambda+2)\cdot(-\lambda^2+9\pi-18) = 0.$$

Bundan $\lambda_1 = -2$, $\lambda_2 = 3$, $\lambda_3 = 6$ xos sonlarni hosil qilamiz.

Endi, $\lambda_1 = -2$ xos songa mos keluvchi xos vektorni topamiz:

Buning uchun quyidagi tnglamalar sistemasini tuzamiz va echamiz:

$$\begin{cases} [1-(-2)]\cdot x_1 + x_2 + 3x_3 = 0 \\ x_1 + [5-(-2)]\cdot x_2 + x_3 = 0 \\ 3x_1 + x_2 + [1-(-2)]\cdot x_3 = 0 \end{cases}$$

yoki

$$\begin{cases} 3x_1 + x_2 + 3x_3 = 0 \\ x_1 + 7x_2 + x_3 = 0 \\ 3x_1 + x_2 + 3x_3 = 0 \end{cases}$$

Bu sistemada birinchi va uchinchi tenglamalar bir xil bo'lgani uchun, bittasini tashlab yozamiz:

$$\begin{cases} 3x_1 + x_2 + 3x_3 = 0 \\ x_1 + 7x_2 + x_3 = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 3(x_1 + x_3) = -x_2 \\ x_1 + x_3 = -7x_2 \end{cases}$$

Bundan biz quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} x_1 + x_3 = -\dfrac{x_2}{3} \\ x_1 + x_3 = -7x_2 \end{cases}.$$

Chap tomonlar tengligidan, o'ng tomonlar ham teng bo'lishi kerak. Bu esa, faqat $x_2 = 0$ bo'lganda to'g'ri bo'ladi. Bundan esa $x_1 = -x_3$ ekanligi kelib chiqadi. Bu erda, x_3 ni erkli o'zgaruvchi deb olamiz. $x_3 = 1$ desak $x_1 = -1$, $x_2 = 0$. ya'ni $\vec{v}_1(-1;0;1)$ xos vektorni olamiz. $\lambda_2 = 3$ va $\lambda_3 = 6$ xos sonlar uchun ham shu usulda xos vektorlarni topamiz: $\vec{v}_2(1;-1;1)$, $\vec{v}_3(1;2;1)$.

5. Quyidagi tenglama qanday sirtni ifodalaydi?:

$$x^2 + y^2 = r^2.$$

Berilgan tenglama faqat *x* va *y* o'zgaruvchilarni o'z ichiga olgan va shuning uchun bu tenglama fazoda yasovchisi OZ o'qiga parallel bo'lgan, yo'naltiruvchisi *OXY* tekisligidagi $x^2 + y^2 = r^2$ aylana bo'lgan silindrik sirtni ifodalaydi. Bu xulosani asoslaymiz:

OXY tekisligida berilgan tenglama markazi koordinata boshida bo'lgan va radiusi r ga teng aylanani aniqlaydi.Bu aylana silindrik sirtning yo'naltiruvchisi bo'lsin, yasovchisi esa OZ o'qiga parallel. Silindrda ixtiyoriy A(x,y,z) nuqtani olamiz va uni OXY tekisligiga proeksiyalaymiz. Koordinatalari x,y,0 bo'lgan B proeksiya nuqta yo'naltiruvchi vazifasini bajaruvchi aylana ustiga tushadi va shuning uchun ham uning koordinatalari x, u lar aylana tenglamasi $x^2 + y^2 = r^2$ ni qanoatlantiradilar. Lekin silindrik sirtdagi A(x,y,z) nuqtaning absissasi ham, ordinatasi ham aylanadagi B(x,y,0) nuqtaning absissasi va ordinatasi bilan aynan bir xil bo'lganlari uchun, $x^2 + y^2 = r^2$ tenglama OZ o'zgaruvchini o'z ichiga olmaganini xisobga olgan holda, shuni aytish mumkinki, bu tenglamani silindrik sirtda yotuvchi ixtiyoriy A(x,y,z) nuqta koordinatalari ham qanoatlantiradi. Shunday qilib, berilgan $x^2 + y^2 = r^2$ tenglama fazoda to'g'ri aylanma silindrni aniqlaydi. Bu silindr yasovchisi *OZ* o'qiga parallel yo'naltiruvchisi esa *OXY* tekisligida yotuvchi $x^2 + y^2 = r^2$ aylanadir (2-chizma).



2-chizma

6. Lopital qoidasidan foydalanmay quyidagi funksiyalarning limitini hisoblang:

a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x-2x^2+5x^4}{2+3x^2+x^4}=\dfrac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmaslik. Surat va mahrajini x^4-ga bo'lib limitga o'tamiz:

$$\lim_{x\to\infty}\frac{x-2x^2+5x^4}{2+3x^2+x^4}=\lim_{x\to\infty}\frac{\frac{x}{x^4}-\frac{2x^2}{x^4}+\frac{5x^4}{x^4}}{\frac{2}{x^4}+\frac{3x^2}{x^4}+\frac{x^4}{x^4}}=\lim_{x\to\infty}\frac{\frac{1}{x^3}-\frac{2}{x^2}+5}{\frac{2}{x^4}+\frac{3}{x^2}+1}=$$

$$=\frac{\lim\limits_{x\to\infty}\frac{1}{x^3}-\lim\limits_{x\to\infty}\frac{2}{x^2}+\lim\limits_{x\to\infty}5}{\lim\limits_{x\to\infty}\frac{2}{x^4}+\lim\limits_{x\to\infty}\frac{3}{x^2}+\lim\limits_{x\to\infty}1}=\frac{0-0+5}{0+0+1}=5.$$

b) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt{1+3x^2}-1}{x^2+x^3}=\dfrac{0}{0}$ ko'rinishdagi aniqmaslik. Surat va mahrajini qo'shma ifoda $\sqrt{1+3x^2}+1)$ ga ko'paytiramiz:

$$\lim_{x\to 0}\frac{\sqrt{1+3x^2}-1}{x^2+x^3}=\lim_{x\to 0}\frac{(\sqrt{1+3x^2}-1)(\sqrt{1+3x^2}+1)}{(x^2+x^3)(\sqrt{1+3x^2}+1)}=$$

$$\lim_{x\to 0}\frac{1+3x^2-1}{x^2(1+x)(\sqrt{1+3x^2}+1)}=\lim_{x\to 0}\frac{3}{(1+x)(\sqrt{1+3x^2}+1)}=\frac{3}{2}=1{,}5.$$

v)

$$\lim_{x\to 0}\frac{1-\cos 6x}{1-\cos 2x}=\lim_{x\to 0}\frac{2\sin^2 3x}{2\sin^2 x}=\lim_{x\to 0}\frac{\sin^2 3x}{3x^2}\cdot\frac{x^2}{\sin^2 x}\cdot 9=$$

$$=9\lim_{x\to 0}\left(\frac{\sin 3x}{3x}\right)^2\cdot\left(\frac{x}{\sin x}\right)^2=9.$$

Bu erda biz $\lim\limits_{kx\to0}\frac{\sin kx}{kx}=\lim\limits_{x\to0}\frac{kx}{\sin kx}=1$ birinchi ajoyib limitdan foydalandik.

g) $\lim\limits_{x\to\infty}(x-5)[\ln(x-3)-\ln x]=\lim\limits_{x\to\infty}(x-5)\left[\ln\frac{(x-3)}{x}\right]=$

$$\lim_{x\to\infty}\ln\left[\left(1-\frac{3}{x}\right)^{x-5}\right]=\ln\lim_{x\to\infty}\left[\left(1+\frac{-3}{x}\right)^{-\frac{x}{3}}\right]^{-\frac{3(x-5)}{x}}=$$

$$=\ln\left[\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{-3}{x}\right)^{-\frac{x}{3}}\right]^{\lim\limits_{x\to\infty}-\frac{3(x-5)}{x}}=\ln e^{-3}=-3\ln e=-3$$

Bu erda biz $\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{x}=e$ ikkinchi ajoyib limitdan foydalandik. Bundan tashqari lagorifm va ko'rsatkichli funksiyalarning uzluksizligidan limitni oldin lagorifm ichiga olib kirildi, so'ngra daraja ko'rsatkichiga olib chiqildi.

7. $y=f(x)$ funksiya berilgan. Bu funksiyaning uzulish nuqtalarini toping (agar mavjud bo'lsa) va turini aniqlang. Chizmasini chizing.

Berilishi: $f(x)=\begin{cases}-(x+1) & x\le-1\\ (x+2)^2 & -1<x\le0\\ x & x<0\end{cases}$

$y=-(x+1)$, $y=(x+2)^2$ va $y=x$ funksiyalar R – to'plamda uzluksiz bo'lgani uchun $y=f(x)$ funksiyani $x_1=-1$ va $x_2=0$ nuqtalarda uzluksizlik shartiga tekshiramiz.

Uzluksizlik sharti:

$$\lim_{x\to x_0-0}f(x)=\lim_{x\to x_0+0}f(x)=f(x_0).$$

1) x=-1 da

$\lim\limits_{x\to-1-0}-(x+1)=-(-1-0+1)=0.$

$\lim\limits_{x\to-1+0}(x+2)^2=(-1+0+2)^2=(1+0)^2=1.$

$f(-1)=-(-1+1)=0.$

Bu erda,

$\lim\limits_{x\to-1-0}f(x)\neq\lim\limits_{x\to-1+0}f(x)$. va $\lim\limits_{x\to-1-0}f(x)\neq\infty$,

$\lim\limits_{x\to-1+0}f(x).\neq\infty$, $f(-1)\neq\infty$ bo'lgani uchun $x=-1$ nuqta 1-tur uzulish nuqtasidir. Funksiyaning sakrashi $\Delta=|0-1|=1$ bo'ladi.

1) x=0 da $\lim\limits_{x\to-0}(x+2)^2=(0-0+2)^2=(2-0)^2=4.$

$\lim\limits_{x\to+0}x=0.$

$f(0)=(0+2)^2=4$

Bu erda $\lim\limits_{x\to-0}f(x)\neq\lim\limits_{x\to+0}f(x)$ va $\lim\limits_{x\to-0}f(x)\neq\infty$,

$\lim\limits_{x\to+0}f(x)\neq\infty$, $f(0)\neq\infty$ bo'lgani uchun $x=0$ nuqta ham 1-tur uzulish nuqtasidir. Funksiyaning sakrashi $\Delta=|0-4|=4$ bo'ladi.



3-chizma

8. Berilgan funksiyalarning xosilasini toping.

a)

$$y=\sqrt[3]{\frac{1+x^2}{1-x^2}};\quad y'=\frac{1}{3}\left(\frac{1+x^2}{1-x^2}\right)^{\frac{1}{3}-1}\cdot\left(\frac{1+x^2}{1-x^2}\right)'=$$

$$=\frac{1}{3}\sqrt[3]{\left(\frac{1-x^2}{1+x^2}\right)^2}\cdot\frac{2x\cdot(1-x^2)+2x\cdot(1+x^2)}{(1-x^2)^2}=\frac{1}{3}\frac{(1-x^2)^{\frac{2}{3}}}{(1+x^2)^{\frac{2}{3}}}\cdot\frac{4x}{(1-x^2)^2}=$$

$$=\frac{4}{3}\frac{x}{(1+x^2)^{\frac{2}{3}}(1-x^2)^{2-\frac{2}{3}}}=\frac{4}{3}\frac{x}{(1+x^2)^{\frac{2}{3}}(1-x^2)^{\frac{4}{3}}}$$

$$=\frac{4x}{3\sqrt[3]{(1+x^2)^2}\,(1-x^2)\sqrt[3]{1-x^2}};$$

b) $y=\frac{1}{2}tg^2x+\ln\cos x;$

$$y'=\frac{1}{2}2tgx\cdot\frac{1}{\cos^2 x}+\frac{1}{\cos x}\cdot(-\sin x)=tgx\left[\frac{1}{\cos^2 x}-1\right]=tgx\cdot\frac{1-\cos^2 x}{\cos^2 x}=$$

$$=tgx\cdot\frac{\sin^2 x}{\cos^2 x}=tgx\cdot tg^2x=tg^3x.$$

v) $y=arctg\frac{x}{1+\sqrt{1-x^2}};$

$$y'=\frac{1}{1+\frac{x^2}{\left(1+\sqrt{1-x^2}\right)^2}}\cdot\frac{x'(1+\sqrt{1-x^2})+x\cdot\frac{2x}{2\sqrt{1-x^2}}}{(1+\sqrt{1-x^2})^2}=$$

$$=\frac{\left(1+\sqrt{1-x^2}\right)^2}{1+2\sqrt{1-x^2}+1-x^2+x^2}\cdot\frac{\sqrt{1-x^2}+1-x^2+x^2}{\sqrt{1-x^2}(1+\sqrt{1-x^2})^2}=$$

$$=\frac{1+\sqrt{1-x^2}}{2\left(1+\sqrt{1-x^2}\right)}=\frac{1}{2};$$

g) $y=(x+x^2)^x;\quad (u^v)'=vu^{v-1}u'+u^v v'\ln u;$

$$y'=((x+x^2)^x)'=x(x+x^2)^{x-1}(1+2x)+(x+x^2)^x\ln(x+x^2)=$$

$$=(x+2x^2)(x+x^2)^{x-1}+(x+x^2)^x\ln(x+x^2).$$

9. Berilgan funksiyalar uchun $\frac{dy}{dx}$ va $\frac{d^2y}{dx^2}$ lar topilsin:

a)

$y=e^x\cos x;$

$$\frac{dy}{dx}=(e^x\cos x)'=e^x\cos x-e^x\sin x=e^x(\cos x-\sin x).$$

$$\frac{d^2y}{dx^2}=\left(\frac{dy}{dx}\right)'=\left[e^x(\cos x-\sin x)\right]'=$$

$$=e^x(\cos x-\sin x)+e^x(-\sin x-\cos x)=$$

$$=e^x[\cos x-\sin x-\sin x-\cos x]=-2e^x\sin x.$$

b)

$$\begin{cases}x=3t-t^3\\ y=3t^2\end{cases}\Rightarrow\begin{matrix}x'_t=3-3t^2\\ y'_t=6t\end{matrix}\Rightarrow\frac{dy}{dx}=\frac{y'_t}{x'_t}=\frac{6t}{3-3t^2}=\frac{2t}{1-t^2};$$

$$\frac{d^2y}{dx^2}=\frac{\left(\frac{dy}{dx}\right)'_t}{x'_t}=\frac{\left(\frac{2t}{1-t^2}\right)'_t}{3-3t^2}=\frac{2(1-t^2)-2t(-2t)}{(1-t^2)^2 3(1-t^2)}=$$

$$=\frac{2-2t^2+4t^2}{(1-t^2)^3 3}=\frac{2}{3}\cdot\frac{1+t^2}{(1-t^2)^3};$$

10. Lopital qoidasidan foydalanib quyidagi limitlarni hisoblang:

a)

$$\lim_{x \to 0} \frac{e^{\alpha \cdot x} - e^{\beta \cdot x}}{\sin(\alpha \cdot x) - \sin(\beta \cdot x)} = \frac{0}{0} = \lim_{x \to 0} \frac{\left(e^{\alpha \cdot x} - e^{\beta \cdot x}\right)'}{\left(\sin(\alpha \cdot x) - \sin(\beta \cdot x)\right)'} =$$

$$= \lim_{x \to 0} \frac{\alpha \cdot e^{\alpha \cdot x} - \beta \cdot e^{\beta \cdot x}}{\alpha\cos(\alpha \cdot x) - \beta\cos(\beta \cdot x)} = \frac{\alpha \cdot e^{0} - \beta \cdot e^{0}}{\alpha \cdot 1 - \beta \cdot 1} = 1.$$

b)

$$\lim_{x \to 1}\left(\frac{2x-1}{x}\right)^{\frac{1}{\sqrt[3]{x}-1}} = 1^{\infty} = \lim_{x \to 1} e^{\frac{1}{\sqrt[3]{x}-1} \cdot \ln\left(\frac{2x-1}{x}\right)} = \lim_{x \to 1} e^{\frac{\ln\left(\frac{2x-1}{x}\right)}{\sqrt[3]{x}-1}} =$$

$$= \frac{0}{0} = e^{\lim\limits_{x \to 1} \frac{\left[\ln\left(\frac{2x-1}{x}\right)\right]'}{\left(\sqrt[3]{x}-1\right)'}} = e^{\lim\limits_{x \to 1} \frac{\frac{x}{2x-1} \cdot \frac{2x-2x+1}{x^2}}{\frac{1}{3}x^{-\frac{2}{3}}}} = e^{3\lim\limits_{x \to 1} \frac{x^{\frac{2}{3}}}{(2x-1)x}} = e^{3};$$

11. Berilgan funksiyani $x = x_0$ nuqta atrofida Lagranj ko'rinishli qoldiq hadli Teylor formulasi bo'yicha 4-darajali hadgacha yoying.

$f(x) = x^4 - x + 1,\ x_0 = -2.$

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x - x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!}(x - x_0)^2 +$$

$$+ \frac{f'''(x_0)}{3!}(x - x_0)^3 + \frac{f^{(4)}(x_0)}{4!}(x - x_0)^4 + R_4.$$

$f(-2) = 15;$

$f'(x) = 4x^3 - 1;\quad f'(-2) = -33;$

$f''(x) = 12x^2;\quad f''(-2) = 48;$

$f'''(x) = 24x;\quad f'''(-2) = -48;$

$f^{(4)}(x) = 24;\quad f^{(4)}(-2) = 24;$

$f^{(5)}(x) = 0;\quad f^{(5)}(-2) = 0;$

Demak,

$$x^4 - x + 1 = 15 - 33(x+2) + 24(x+2)^2 - \frac{48}{6}(x+2)^3 + \frac{24}{4!}(x+2)^4 =$$

$$= 15 - 33(x+2) + 24(x+2)^2 - 8(x+2)^3 + (x+2)^4;$$

12. Berilgan funksiyani xosila yordamida tekshiring va tekshirish natijalariga ko'ra funksiyaning grafigini chizing:

$$f(x) = \frac{x^3}{x^2 - 1}.$$

Bu funksiya $x = \pm 1$ nuqtalardan tashqari barcha x ning qiymatlarida aniqlangan.

$$f(-x) = \frac{(-x)^3}{(-x)^2 - 1} = \frac{-x^3}{x^2 - 1} = -\frac{x^3}{x^2 - 1} = -f(x)$$ bo'lgani

uchun bu funksiya toqdir.Toqligi uchun bu funksiyani $x \geq 0$ qiymatlarda tekshirish etarlidir. $x=0$ da $f(0)=0$; $x=1$ da mavjud emas va qolgan nuqtalarda uzluksiz, shuning uchun f(x) ning ishorasi quyidagicha aniqlanadi:

x	$0 < x < 1$	$1 < x < \infty$
f(x)	-	+

Demak, (0,1) oraliqda *f(x)* funksiyaning grafigi *OX* o'qidan pastda, $(1, +\infty)$ oraliqda esa *OX* o'qidan yuqorida joylashgan. Funksiya grafigi $x=1$ vertikal asimptotaga ega. Og'ma asimptotalarini $y=kx+b$ ko'rinishda izlaymiz:

$$k=\lim_{x\to\infty}\frac{f(x)}{x}=\lim_{x\to\infty}\frac{\frac{x^3}{x^2-1}}{x}=\lim_{x\to\infty}\frac{x^2}{x^2-1}=1$$

$$b=\lim_{x\to\infty}[f(x)-kx]=\lim_{x\to\infty}\left(\frac{x^3}{x^2-1}-x\right)=\lim_{x\to\infty}\frac{x}{x^2-1}=0$$

y=x og'ma asimptotasi.
Ekstremumlarini topamiz:

$$f'(x)=\frac{3x^2(x^2-1)-2x\cdot x^3}{(x^2-1)^2}=\frac{x^2(x^2-3)}{(x^2-1)^2}=0.$$

Bu tenglamaning musbat yechimlari $x_1=0$, $x_2=\sqrt{3}$.

$f'(x)>0$ tengsizlikdan $x^2-3>0$ tengsizlikni olamiz va uning musbat yechimlari $x>\sqrt{3}$ ni hosil qilamiz. Bu oraliqda $f'(x)>0$ bo'lgani uchun funksiya o'suvchi. $0<x<\sqrt{3}$ oraliqda $f'(x)<0$ bo'lgani uchun funksiya bu oraliqda kamayuvchidir.

$x=\sqrt{3}$ da funksiya $f(\sqrt{3})=\frac{3\sqrt{3}}{2}$ minimumga ega.

x=0 nuqta, funksiya grafigi koordinata boshiga nisbatan simmetrik bo'lgani uchun, burilish nuqtasi bo'ladi.

Botiqlik va qabariqlikni tekshirish uchun ikkinchi hosilani topamiz:

$$f''(x)=\left(\frac{x^2(x^2-3)}{(x^2-1)^2}\right)'=\frac{2x(x^2+3)}{(x^2-1)^3};$$ Bundan $(1,+\infty)$ oraliqda



4-chizma

$f''(x)>0$ bo'lgani uchun bu oraliqda funksiya grafigi botiq bo'ladi. (0,1) oraliqda $f''(x)<0$ bo'lgani uchun bu oraliqda funksiya grafigi qabariq bo'ladi.

Bu ma'lumotlarga asosan biz x≥0 da funksiya grafigini yasay olamiz. x<0 larda esa funksiya grafigi koordinata boshiga nisbatan simmetrikligini nazarda tutib chizamiz (4-chizma).

2-§. IKKINChI YOZMA ISh

1.Quyidagi aniqmas integrallarni hisoblang:

a)

$$\int\frac{\sin x dx}{\sqrt[3]{\cos^2 x}}=\int\frac{-d\cos x}{\sqrt[3]{\cos^2 x}}=-\int(\cos x)^{-\frac{2}{3}}d\cos x=$$

$$=|\cos x=z|=-\int z^{-\frac{2}{3}}dz=-\frac{z^{-\frac{2}{3}+1}}{-\frac{2}{3}+1}+C=-\frac{z^{\frac{1}{3}}}{\frac{1}{3}}+C=$$

$$=-3\sqrt[3]{z}+C=-3\sqrt[3]{\cos x}+C;$$

$$\int x\cdot\arcsin\frac{1}{x}dx=\left|\begin{matrix} u=\arcsin\frac{1}{x} & du=\dfrac{-\frac{1}{x^2}}{\sqrt{1-(\frac{1}{x})^2}}dx \\ dv=xdx & v=\dfrac{x^2}{2}\end{matrix}\right|=$$

$$=\frac{x^2}{2}\arcsin\frac{1}{x}-\int\frac{x^2}{2}\cdot\frac{-\frac{1}{x^2}}{\sqrt{\frac{x^2-1}{x^2}}}dx=\frac{x^2}{2}\cdot\arcsin\frac{1}{x}+\frac{1}{2}\int\frac{xdx}{\sqrt{x^2-1}}=$$

$$\frac{x^2}{2}\cdot\arcsin\frac{1}{x}+\frac{1}{2}\cdot\frac{1}{2}\cdot\int\frac{d(x^2-1)}{\sqrt{x^2-1}}=\frac{x^2}{2}\cdot\arcsin\frac{1}{x}+\frac{1}{4}\cdot\int(x^2-1)^{-\frac{1}{2}}d(x^2-1)=$$

$$=\frac{x^2}{2}\cdot\arcsin\frac{1}{x}+\frac{1}{4}\cdot\frac{(x^2-1)^{-\frac{1}{2}+1}}{-\frac{1}{2}+1}+C=\frac{x^2}{2}\cdot\arcsin\frac{1}{x}+\frac{1}{2}\cdot\sqrt{x^2-1}+C$$

v)

$$\int\frac{x+3}{x^3+x^2-2x}dx=\int\frac{x+3}{x(x^2+x-2)}dx=\int\frac{x+3}{x(x-1)(x+2)}dx=I$$

$$\frac{x+3}{x(x-1)(x+2)}=\frac{A}{x}+\frac{B}{x-1}+\frac{C}{x+2}=\frac{Ax^2+Ax-2A+Bx^2+2Bx+Cx^2-Cx}{x(x-1)(x+2)}$$

$$\begin{cases}A+B+C=0\\A+2B-C=1\\-2A=3\end{cases},\quad A=-\frac{2}{3},\quad \begin{cases}B+C=\frac{3}{2}\\2B-C=\frac{5}{2}\end{cases})+\Rightarrow 3B=\frac{8}{2}\Rightarrow B=\frac{8}{6};$$

$$C=\frac{3}{2}-\frac{8}{6}=\frac{1}{6};$$

$$\frac{x+3}{x(x-1)(x+2)}=-\frac{3}{2x}+\frac{8}{6(x-1)}+\frac{1}{6(x+2)};$$

$$I=\int\frac{x+3}{x(x-1)(x+2)}dx=-\frac{2}{3}\int\frac{dx}{x}+\frac{8}{6}\int\frac{d(x-1)}{x-1}+\frac{1}{6}\int\frac{d(x+2)}{x+2}=$$

$$=-\frac{3}{2}\ln x+\frac{4}{3}\ln(x-1)+\frac{1}{6}\ln(x+2)+C=\ln\left(\frac{(x-1)\cdot\sqrt[3]{x-1}\cdot\sqrt[6]{x+2}}{x\sqrt{x}}\right)+C.$$

g)

$$\int\frac{(\sqrt[4]{x}+1)dx}{(\sqrt{x}+4)\cdot\sqrt[4]{x^3}}=\left|\begin{matrix}x=t^4 & t=\sqrt[4]{x}\\dx=4t^3dt & t^2=\sqrt{x}\end{matrix}\right|=\int\frac{(t+1)\cdot 4t^3dt}{(t^2+4)t^3}=$$

$$=4\cdot\int\frac{t+1}{t^2+4}dt=4\left[\int\frac{t}{t^2+4}dt+\int\frac{dt}{t^2+4}\right]=4\cdot\frac{1}{2}\cdot\int\frac{d(t^2+4)}{t^2+4}+$$

$$+4\cdot\text{arctg}\frac{t}{2}+C=2\ln\left|t^2+4\right|+4\text{arctg}\frac{t}{2}+C=\ln\left|\sqrt{x}+4\right|^2+$$

$$+4\text{arctg}\frac{\sqrt{x}}{2}+C.$$

2. Quyidagi xosmas integralni hisoblang yoki uzoqlashuvchiligini ko‘rsating:

$$I=\int_{-3}^{2}\frac{dx}{(x+3)^2}=\lim_{\varepsilon\to 0}\int_{-3+\varepsilon}^{2}\frac{dx}{(x+3)^2}=\lim_{\varepsilon\to 0}\int_{-3+\varepsilon}^{2}(x+3)^{-2}d(x+3)=$$

$$=\lim_{\varepsilon\to 0}\frac{(x+3)^{-2+1}}{-2+1}\Bigg|_{-3+\varepsilon}^{2}=\lim_{\varepsilon\to 0}\left[-\frac{1}{x+3}\Bigg|_{-3+\varepsilon}^{2}\right]=-\lim_{\varepsilon\to 0}\left[\frac{1}{5}-\frac{1}{\varepsilon}\right]=$$

$$=\lim_{\varepsilon\to 0}\frac{1}{\varepsilon}-\frac{1}{5}=\infty$$

Demak, berilgan integral uzoqlashuvchi.

3. Quyidagi egri chiziqlar bilan chegaralangan tekis shaklning yuzini hisoblang:

$y=4-x^2$ va $y=x^2-2x$; $S=S_1+S_2+S_3$;

$$S_1 = \int_{-1}^{0}\left[(4-x^2)-(x^2-2x)\right]dx = \int_{-1}^{0}(4-2x^2+2x)dx =$$

$$= \left(4x-\frac{2x^3}{3}+x^2\right)\Big|_{-1}^{0} = -\left(-4+\frac{2}{3}+1\right) = \frac{12-2-3}{3} = \frac{7}{3} = 2\frac{1}{3}$$



5-chizma

$$S_2 = \int_0^2 (4-x^2)dx = \int_0^2 4dx - \int_0^2 x^2dx = 4x\Big|_0^2 - \frac{x^3}{3}\Big|_0^2 = 8-\frac{8}{3} = \frac{16}{3} = 5\frac{1}{3};$$

$$S_3 = -\int_0^2 (x^2-2x)dx = -\left(\frac{x^3}{3}-x^2\right)\Big|_0^2 = -\left(\frac{8}{3}-4\right) = \frac{4}{3} = 1\frac{1}{3};$$

$$S = S_1+S_2+S_3 = 2\frac{1}{3}+5\frac{1}{3}+1\frac{1}{3} = 9;$$

4. $z=f(x,y)$ - ikki o'zgaruvchili funksiya berilgan. Quyidagi ayniyatni isbotlang:

$$F\left(x,y,z,\frac{\partial z}{\partial x},\frac{\partial z}{\partial y},\frac{\partial^2 z}{\partial x^2},\frac{\partial^2 z}{\partial y^2},\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}\right)=0.$$

$$z=\frac{x}{y}; \qquad F = x\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}-\frac{\partial z}{\partial y};$$

$$\frac{\partial z}{\partial x}=\frac{1}{y}; \qquad \frac{\partial z}{\partial y}=-\frac{x}{y^2}; \qquad \frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=-\frac{1}{y^2};$$

$$F = x\cdot\left(-\frac{1}{y^2}\right)-\left(-\frac{x}{y^2}\right) = -\frac{x}{y^2}+\frac{x}{y^2}=0.$$

5. Berilgan: $z=arctg(x,y^2)$, $A(2;3)$, $\vec{a}(4;-3)$

a) z funksiyaning A nuqtada gradienti topilsin:

$$grad(z)\Big|_{A(2;3)} = \frac{\partial z}{\partial x}\Big|_{A(2;3)}\vec{i}+\frac{\partial z}{\partial y}\Big|_{A(2;3)}\vec{j};$$

$$\frac{\partial z}{\partial x}\Big|_{A(2;3)} = \frac{y^2}{1+x^2y^4} = \frac{3^2}{1+2^2\cdot 3^4} = \frac{9}{325};$$

$$\frac{\partial z}{\partial y}\Big|_{A(2;3)} = \frac{2xy}{1+x^2y^4} = \frac{2^2\cdot 3}{1+2^2\cdot 3^4} = \frac{12}{325};$$

$$grad(z)\Big|_{A(2;3)} = \frac{9}{325}\vec{i}+\frac{12}{325}\vec{j};$$

b) z- funksiyaning A nuqtada, $\vec{a}$ yo'nalish bo'ylab hosilasini quyidagi formuladan topamiz:

$$\frac{dz}{d\vec{a}}\Big|_A = \frac{dz}{dx}\Big|_A\cdot\cos\alpha+\frac{dz}{dy}\Big|_A\cdot\cos\beta \text{ bu erda } \cos\alpha=\frac{\vec{a}_x}{|\vec{a}|}=\frac{4}{5};$$

$$\cos\beta=\frac{\vec{a}_y}{|\vec{a}|}=-\frac{3}{5};\quad \frac{dz}{d\vec{a}}\Big|_A = \frac{9}{325}\cdot\frac{4}{5}+\frac{12}{325}\cdot\left(-\frac{3}{5}\right)=0$$

6. Berilgan differensial tenglamalarning umumiy yechimini toping:

a)

$$y'\cos x=(y+1)\sin x;\Rightarrow \quad \frac{dy}{dx}\cos x=(y+1)\sin x;\Rightarrow$$

$$\Rightarrow \frac{dy}{y+1} = \frac{\sin x}{\cos x}dx \Rightarrow \quad \int\frac{dy}{y+1} = \int tgx\,dx; \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \ln(y+1) = -\frac{1}{\cos^2 x} + \ln C; \quad \Rightarrow \quad y+1 = e^{-\frac{1}{\cos^2 x}} + C \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \quad y = e^{-\frac{1}{\cos^2 x}} + C_1;$$

b)

$$(1+y)y'' - 5(y')^2 = 0;$$

Belgilash kiritamiz: $y' = p(y); \Rightarrow \quad y'' = p' \cdot y' = p' \cdot p$

Tenglamaga qo'yamiz:

$$(1+y)p' \cdot p - 5p^2 = 0; \Rightarrow \quad \frac{dp}{dy} \cdot (1+y) \cdot p = 5p^2; \Rightarrow \frac{pdp}{5p^2} =$$

$$= \frac{dy}{y+1}; \Rightarrow \quad \int\frac{dp}{5p} = \int\frac{dy}{y+1}; \Rightarrow \frac{1}{5}\ln p = \ln C_1(y+1); \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \quad \sqrt[5]{p} = C_1(y+1); \Rightarrow p = C_1(y+1)^5; \Rightarrow y' = C_1(y+1)^5; \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \quad \frac{dy}{(y+1)^5} = C_1 dx; \Rightarrow \quad \frac{(y+1)^{-4}}{-4} = C_1 x + C_2; \Rightarrow \frac{1}{(y+1)^4} =$$

$$= C_1 x + C_2; \Rightarrow \quad (y+1)^4 = \frac{1}{C_1 x + C_2};$$

7. Berilgan tenglamaning to'la differensialli ekanligini ko'rsating va uning umumiy yechimini toping.

$$(3x^2 y + 2y + 3)dx + (x^3 + 2x + 3y^2)dy = 0;$$

Berilgan tenglamaning chap tomoni $du = \frac{\partial u}{\partial x}dx + \frac{\partial u}{\partial y}dy$ ko'rinishga ega bo'lgani uchun, agar biz

$$\frac{\partial(3x^2 y + 2y + 3)}{\partial y} = \frac{\partial(x^3 + 2x + 3y^2)}{\partial x};$$

ekanligini ko'rsatsak berilgan tenglamaning to'la differensialligini ko'rsatgan bo'lamiz.

$$\frac{\partial(3x^2 y + 2y + 3)}{\partial y} = \frac{\partial(3x^2 y)}{\partial y} + 2\frac{\partial y}{\partial y} + \frac{\partial 3}{\partial y} = 3x^2 + 2;$$

$$\frac{\partial(x^3 + 2x + 3y^2)}{\partial x} = \frac{\partial(x^3)}{\partial x} + 2\frac{\partial x}{\partial x} + 3\frac{\partial y^2}{\partial x} = 3x^2 + 2;$$

Demak, tenglama to'la differensialli va biz uning yechimini $u(x,y) = C$ ko'rinishda izlaymiz:

$$\frac{\partial u}{\partial x} = 3x^2 y + 2y + 3;$$

$$u(x,y) = \int(3x^2 y + 2y + 3)dx + \varphi(y) = x^3 y + 2xy + 3x + \varphi(y);$$

$$\frac{\partial u}{\partial y} = x^3 + 2x + \varphi'(y) = x^3 + 2x + 3y^2;$$

Bundan,

$$\varphi(y) = 3y^2; \Rightarrow \quad \frac{\partial\varphi}{\partial y} = 3y^2 \Rightarrow d\varphi = 3y^2 dy, \Rightarrow \quad \varphi(y) = y^3; \Rightarrow$$

$$\Rightarrow u(x,y) = x^3 y + 2xy + 3x + y^3 = C.$$

8. Berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimini toping:

$$x^2 y'' + xy' = 1;$$

Quyidagi almashtirishni bajaramiz:

$$y' = p(x), \Rightarrow \qquad y'' = p'(x) \Rightarrow$$

$$x^2 p'(x) + xp(x) = 1; \Rightarrow \qquad p'(x) = -\frac{1}{x} p(x) + \frac{1}{x};$$

Bu chiziqli tenglamadir. $p = u(x) \cdot v(x)$ almashtirishni bajaramiz.

U holda, $p'(x) = u'v + uv'$ va bularni chiziqli tenglamaga qo'yib quyidagini hosil qilamiz:

$$u'v + uv' = -\frac{1}{x} uv + \frac{1}{x}; \Rightarrow$$

$$(u' \cdot v + \frac{1}{x} u \cdot v) + (u' \cdot v - \frac{1}{x}) = 0; \Rightarrow \qquad \begin{cases} v \cdot (u' + \frac{1}{x} u) = 0 \\ u \cdot v' - \frac{1}{x} = 0 \end{cases}$$

$$u' + \frac{1}{x} u = 0; \Rightarrow \frac{du}{dx} = -\frac{1}{x} u \Rightarrow \frac{du}{u} = -\frac{dx}{x}; \Rightarrow \ln u = -\ln x \Rightarrow$$

$$\Rightarrow u = \frac{1}{x}; \Rightarrow \frac{1}{x} v' - \frac{1}{x} = 0; \Rightarrow v' = 1 \Rightarrow v = x + C_1; \Rightarrow$$

$$\Rightarrow p = u \cdot v = \frac{1}{x}(x + C_1) = 1 + \frac{C_1}{x}; \Rightarrow y' = p(x) = 1 + \frac{C_1}{x} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow dy = (1 + \frac{C_1}{x}) dx \Rightarrow y = x + C_1 \ln x + C_2.$$

9. Berilgan $y'' - 5y' + 6y = (12x - 7)e^{-x}$ tenglamaning $y(0) = 0, y'(0) = 0$ boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi hususiy yechimini toping.

$y'' - 5y' + 6y = 0$ mos keluvchi bir jinsli tenglama. Berilgan bir jinsli bo'lmagan tenglamaning umumiy yechimini $y = y_0 + \tilde{y}$ ko'rinishda izlaymiz. Bu erda y_0-mos bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi. $\tilde{y}$ esa berilgan bir jinsli bo'lmagan tenglamaning biror xususiy yechimi. Bir jinsli

tenglamaning xarakteristik tenglamasi $\lambda^2 - 5\lambda + 6 = 0$; Ildizlari $\lambda_1 = 2$, $\lambda_2 = 3$; Demak, $y_1 = e^{2x}, y_2 = e^{3x}$; Bundan bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi $y_0(x) = C_1 e^{2x} + C_2 e^{3x}$ ni xosil qilamiz. Xususiy yechim $\tilde{y}$ ni quyidagi ko'rinishda izlaymiz: $y = (Ax + B)e^{-x}$,

$$y' = Ae^{-x} + (Ax + B)(-e^{-x}) = Ae^{-x} - (Ax + B)e^{-x};$$

$$y'' = -Ae^{-x} - Ae^{-x} + (Ax + B)e^{-x};$$

Berilgan tenglamaga qo'yamiz:

$$-2Ae^{-x} + (Ax + B)e^{-x} - 5Ae^{-x} + 5(Ax + B)e^{-x} + (Ax + B)e^{-x} \equiv$$

$$\equiv (12x - 7)e^{-x};$$

Bundan quyidagilar hosil bo'ladi:

$$\begin{cases} -7A + 7B = -7 \\ 7A = 12 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} -7 \cdot \frac{12}{7} + 7B = -7 \\ A = \frac{12}{7} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} A = \frac{12}{7} \\ 7B = -7 + 12 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{matrix} A = \frac{12}{7} \\ B = \frac{5}{7} \end{matrix}; \Rightarrow \qquad \tilde{y} = (\frac{12}{7} x + \frac{5}{7}) \cdot e^{-x}$$

$$y = y_0 + \tilde{y} = C_1 e^{2x} + C_2 e^{3x} + (\frac{12}{7} x + \frac{5}{7}) e^{-x}; \qquad (1)$$

$$y' = 2C_1 e^{2x} + 3C_2 e^{3x} + \frac{12}{7} e^{-x} - (\frac{12}{7} x + \frac{5}{7}) e^{-x}; \qquad (2)$$

$$(1) \Rightarrow 0 = C_1 + C_2 + \frac{5}{7} \Rightarrow C_1 + C_2 = -\frac{5}{7};$$

$$(2) \Rightarrow 0 = 2C_1 + 3C_2 + \frac{12}{7} - \frac{5}{7} \Rightarrow 2C_1 + 3C_2 = -1;$$

$$\begin{cases} C_1 + C_2 = -\frac{5}{7} \\ 2C_1 + 3C_2 = -1 \end{cases} \Bigg| \times 2 \Rightarrow \begin{cases} 2C_1 + 2C_2 = -\frac{10}{7} \\ 2C_1 + 3C_2 = -1 \end{cases} \Rightarrow C_2 = -1 + \frac{10}{7} = \frac{3}{7}$$

$$C_1 + \frac{3}{7} = -\frac{5}{7} \Rightarrow C_1 - \frac{3}{7} - \frac{5}{7} = -\frac{8}{7}; \Rightarrow$$

$$\Rightarrow y = -\frac{8}{7} \cdot e^{2x} + \frac{3}{7} \cdot e^{3x} + (\frac{12}{7}x + \frac{5}{7}) \cdot e^{-x};$$

10.O'zgarmas koeffitsientli chiziqli tenglamalar sistemasi berilgan. Xarakteristik tenglamalar usulida sistemaning umumiy yechimini toping.

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = 3x - 2y \\ \frac{dy}{dt} = 2x + 8y \end{cases} \Rightarrow \begin{vmatrix} 3-\lambda & -2 \\ 2 & 8-\lambda \end{vmatrix} = 0; \Rightarrow (3-\lambda)(8-\lambda) + 4 = 0. \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \lambda^2 - 11\lambda + 28 = 0.$$

$$\lambda_{1/2} = \frac{11 \pm \sqrt{121 - 4 \cdot 28}}{2} = \frac{11}{2} \pm \frac{3}{2}; \quad \lambda_1 = \frac{11}{2} + \frac{3}{2} = 7, \quad \lambda_2 = \frac{11}{2} - \frac{3}{2} = 4;$$

$$\begin{cases} (3-\lambda) z_1^{\lambda} - 2z_2^{\lambda} = 0 \\ 2z_1^{\lambda} + (8-\lambda) 2z_2^{\lambda} = 0 \end{cases};$$

$$\lambda = \lambda_1 = 7.$$

$$\begin{cases} -4\lambda z_1^{\lambda_1} - 2z_2^{\lambda_1} = 0 \\ 2z_1^{\lambda_1} + z_2^{\lambda_1} = 0 \end{cases} \Rightarrow z_1^{\lambda_1} = 1 \Rightarrow z_2^{\lambda_2} = -2.$$

Xos vektori: $z^{\lambda_1} = \begin{pmatrix} z_1^{\lambda_1} \\ z_2^{\lambda_1} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} +1 \\ -2 \end{pmatrix};$

$$\lambda = \lambda_2 = 4$$

$$\begin{cases} -\lambda z_1^{\lambda_2} - 2z_2^{\lambda_2} = 0 \\ 2z_1^{\lambda_2} + z_2^{\lambda_2} = 0 \end{cases} \Rightarrow z_2^{\lambda_2} = 1 \Rightarrow z_1^{\lambda_2} = -2.$$

Xos vektori: $z^{\lambda_2} = \begin{pmatrix} z_1^{\lambda_2} \\ z_2^{\lambda_2} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ -2 \end{pmatrix};$

$$\begin{pmatrix} x(t) \\ y(t) \end{pmatrix}^{\lambda_1} = \begin{pmatrix} 1 \\ -2 \end{pmatrix} e^{7t}; \quad \begin{pmatrix} x(t) \\ y(t) \end{pmatrix}^{\lambda_2} = \begin{pmatrix} -2 \\ 1 \end{pmatrix} e^{4t};$$

$$\begin{pmatrix} x(t) \\ y(t) \end{pmatrix} = C_1 \begin{pmatrix} 1 \\ -2 \end{pmatrix} e^{7t} + C_2 \begin{pmatrix} -2 \\ 1 \end{pmatrix} e^{4t};$$

3-§. UChINChI YOZMA ISh

1. $\sum_{n=1}^{\infty} U_n$ sonli qatorni yaqinlashishga tekshiring.

Berilgan:

$$U_n = \frac{2n}{n^2+1}$$

Dalamber usulini qo'llaymiz:

$$U_{n+1} = \frac{2(n+1)}{(n+1)^2+1} = \frac{2n+2}{n^2+2n+2};$$

$$l = \lim_{n\to\infty}\frac{u_{n+1}}{u_n} = \lim_{n\to\infty}\frac{\frac{2n+2}{n^2+2n+2}}{\frac{2n}{n^2+1}} = \lim_{n\to\infty}\frac{(2n+2)(n^2+1)}{2n(n^2+2n+2)} =$$

$$= \lim_{n\to\infty}\frac{(2n^3+2n+2n^2+2):n^3}{(2n^3+4n^2+4n):n^3} = \lim_{n\to\infty}\frac{2+\frac{2}{n^2}+\frac{2}{n}+\frac{2}{n^3}}{2+\frac{4}{n}+\frac{4}{n^2}} = \frac{2}{2} = 1.$$

$l = 1$ bo'lgan holda Dalamber usuli javob bermaydi.
Integral usulini qo'llaymiz:

$$\int_1^\infty \frac{2x}{x^2+1}dx = \lim_{A\to\infty}\int_1^A \frac{d(x^2+1)}{x^2+1} = \lim_{A\to\infty}\ln(x^2+1)\Big|_1^A =$$

$$= \lim_{A\to\infty}\left[\ln(A^2+1) - \ln 2\right] = \ln(\infty) - \ln 2 = \infty$$

Demak, berilgan qator uzoqlashuvchi.

2. Berilgan ishoralari almashinuvchi sonli qatorni yaqinlashishga tekshiring:

Berilgan, $\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^n\frac{1}{\sqrt[3]{n^4}+\sqrt[4]{n^3}};$

Bunda Leybnis belgisini qo'llaymiz:

$$U_1 = \frac{1}{1+1} = \frac{1}{2};$$

$$U_2 = \frac{1}{\sqrt[3]{2^4}+\sqrt[4]{2^3}} = \frac{1}{2\sqrt[3]{2}+\sqrt[4]{2^3}} < \frac{1}{2\sqrt[3]{1^4}+\sqrt[4]{1^3}} = \frac{1}{3} < U_1;$$

$$U_3 = \frac{1}{3\sqrt[3]{3}+\sqrt[4]{3^3}} < \frac{1}{2\sqrt[3]{2^4}+\sqrt[4]{2^3}} = U_2$$

. . . .

$$U_n = \frac{1}{n\sqrt[3]{n}+\sqrt[4]{n^3}} < \frac{1}{(n-1)\sqrt[3]{n-1}+\sqrt[4]{(n-1)^3}} = U_{n-1};$$

. . . .

Demak,

$$U_1 > U_2 > U_3 > U_4 > \ldots\ldots > U_n > \ldots..$$

va $\lim_{n\to\infty} U_n = \lim_{n\to\infty}\frac{1}{n\sqrt[3]{n}+\sqrt[4]{n^3}} = 0.$

Demak, berilgan qator yaqinlashuvchi.

3. $\sum_{n=1}^{\infty} a_n x^n$ darajali qatorning yaqinlashish sohasini toping:

Berilgan:

$$a_n = \frac{(n!)^2}{(2n)!};$$

Dalamber belgisini qo'llaymiz:

$$\lim_{n\to\infty}\left|\frac{\frac{((n+1)!)^2x^{n+1}}{(2n+2)!}}{\frac{(n!)^2x^n}{(2n)!}}\right|=\lim_{n\to\infty}\left|\frac{((n+1)!)^2x^{n+1}(2n)!}{(2n+2)!(n!)^2x^n}\right|=$$

$$=\lim_{n\to\infty}\left|\frac{(n+1)^2x}{(2n+1)(2n+2)}\right|=\lim_{n\to\infty}\frac{(n+1)^2}{(2n+1)(2n+2)}|x|=$$

$$=|x|\cdot\lim_{n\to\infty}\frac{n^2+2n+1}{4n^2+6n+2}=\frac{1}{4}\cdot|x| \quad < \quad 1$$

Bu erdan $|x| < 4$ ya'ni $-4 < x < 4$ kelib chiqadi.

Yaqinlashish sohasi: $-4 < x < 4$.

4. Differensial tenglamaning berilgan boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimining Teylor qatoriga yoyilmasidagi dastlabki noldan farqli 4 hadini toping.

Berilgan: $y' = \sin 2x + \cos y$. $\quad y\left(\frac{\pi}{2}\right) = \pi$

$$y'\left(\frac{\pi}{2}\right)=\sin 2\frac{\pi}{2}+\cos\pi=0-1=-1$$

$$y''=2\cos 2x-y'\sin y;$$

$$y''\left(\frac{\pi}{2}\right)=2\cdot\cos 2\cdot\frac{\pi}{2}+1\cdot\sin\pi=-2;$$

$$y'''=-4\sin 2x-y''\sin y-(y')^2\cdot\cos y;$$

$$y'''\left(\frac{\pi}{2}\right)=-4\sin 2\cdot\frac{\pi}{2}-y''\left(\frac{\pi}{2}\right)\sin\pi-\left(y'\left(\frac{\pi}{2}\right)\right)^2\cos\pi=2\cdot 0+1=1;$$

$$y=f(x)=f\left(\frac{\pi}{2}\right)+\frac{f'\left(\frac{\pi}{2}\right)}{1!}\cdot\left(x-\frac{\pi}{2}\right)+\frac{f''\left(\frac{\pi}{2}\right)}{2!}\cdot\left(x-\frac{\pi}{2}\right)^2+\ldots$$

$$y=\pi-\left(x-\frac{\pi}{2}\right)-2\frac{1}{2!}\left(x-\frac{\pi}{2}\right)^2+\frac{3}{3!}\left(x-\frac{\pi}{2}\right)^3+\ldots$$

$$=\pi-\left(x-\frac{\pi}{2}\right)-\left(x-\frac{\pi}{2}\right)^2+\frac{1}{2}\left(x-\frac{\pi}{2}\right)^3+..$$

5. Berilgan $f(x)$ funksiyaning $(a,в)$ intervalda Fure qatoriga yoyilmasini toping:

Berilishi:

$$f(x)=e^{-x};\quad(-\pi;\pi)$$

$$a_0=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}e^{-x}dx=\frac{1}{\pi}\left[e^{-x}\right]_{-\pi}^{\pi}=\frac{1}{\pi}\left(e^{-\pi}-e^{\pi}\right)=$$

$$=\frac{1}{\pi}\left(e^{-\frac{1}{\pi}}-e^{\frac{1}{\pi}}\right)=\frac{1}{\pi}\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}};$$

$$a_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}e^{-x}\cos nxdx=\left|\begin{matrix}u=e^{-x} & dv=\cos nxdx\\ du=-e^{-x}dx & v=\frac{1}{n}\sin nx\end{matrix}\right|=$$

$$=\frac{1}{n\pi}e^{-x}\cdot\sin nx\Big|_{-\pi}^{\pi}+\frac{1}{n\pi}\int_{-\pi}^{\pi}e^{-x}\sin nxdx=$$

$$=\frac{1}{n\pi}\int_{-\pi}^{\pi}e^{-x}\sin nxdx=\left|\begin{matrix}u=e^{-x} & dv=\sin nxdx\\ du=-e^{-x}dx & v=-\frac{1}{n}\cos nx\end{matrix}\right|=$$

$$= \frac{-1}{\pi n^2} e^{-x}\cos nx\Big|_{-\pi}^{\pi} - \left[\frac{1}{\pi n^2}\int_{-\pi}^{\pi} e^{-x}\cos nx\,dx\right] =$$

$$= \frac{(-1)^n}{\pi n^2}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right) - \frac{1}{n^2}\cdot\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} e^{-x}\cos nx\,dx;$$

Demak, $a_n = \frac{(-1)^n}{\pi n^2}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right) - \frac{1}{n^2}a_n$

Bundan: $a_n = \frac{(-1)^n}{\pi(n^2+1)}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right)$

$$b_n = \frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} e^{-x}\sin nx\,dx = \begin{vmatrix} u = e^{-x} & dv = \sin nx\,dx \\ du = -e^{-x}dx & v = -\frac{1}{n}\cos nx \end{vmatrix} =$$

$$= -\frac{1}{\pi n}e^{-x}\cos nx\Big|_{-\pi}^{\pi} - \left[\frac{1}{\pi n}\int_{-\pi}^{\pi} e^{-x}\cos nx\,dx\right] = \frac{(-1)^n}{\pi n}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right) -$$

$$-\frac{1}{\pi n}\int_{-\pi}^{\pi} e^{-x}\cos nx\,dx = \begin{vmatrix} u = e^{-x} & dv = \cos x\,dx \\ du = e^{-x}dx & v = \frac{1}{n}\sin nx \end{vmatrix} =$$

$$= \frac{(-1)^n}{\pi n}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right) - \frac{1}{\pi n}\left[\frac{1}{\pi n}e^{-x}\sin nx\Big|_{-\pi}^{\pi} + \int_{-\pi}^{\pi} e^{-x}\sin nx\,dx\right] =$$

$$= \frac{(-1)^n}{\pi n}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right) - \frac{1}{\pi n^2}\int_{-\pi}^{\pi} e^{-x}\sin nx\,dx;$$

Demak, $b_n = \frac{(-1)^n}{\pi n}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right) - \frac{1}{n^2}b_n$

Bundan esa

$$b_n = \frac{n\cdot(-1)^n}{(n^2+1)\pi}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right);$$

$$f(x) = e^{-x} = \frac{a_0}{2} + \sum_{n=1}^{\infty}(a_n\cos nx + b_n\sin nx) =$$

$$= \frac{1}{\pi}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right) + \sum_{n=1}^{\infty}\left[\frac{(-1)^n}{(n^2+1)\pi}\cdot\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right)\cdot\cos nx +\right.$$

$$\left.\frac{n\cdot(-1)^n}{(n^2+1)\pi}\cdot\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right)\cdot\sin nx\right] = \frac{1}{\pi}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right) +$$

$$\frac{1}{\pi}\left(\frac{e^{2\pi}-1}{e^{\pi}}\right)\cdot\sum_{n=1}^{\infty}\left[\frac{(-1)^n}{n^2+1}\cdot\cos nx + \frac{n\cdot(-1)^n}{n^2+1}\cdot\sin nx\right]$$

6. Berilgan ikki karrali integralda integrallash tartibini o'zgartiring:

Berilishi:

$$\int_0^1 dx\int_{1-x^2}^{1} f(x,y)dy + \int_1^e dx\int_{\ln x}^{1} f(x,y)dy = I$$

$x = \overline{0,e};\quad y = 1;\quad y = 1 - x^2;\quad y = \ln x;$



6-chizma

$$y = 1 - x^2 \Rightarrow x^2 = 1 - y \Rightarrow x = \pm\sqrt{1-y}$$

$$y = \ln x \Rightarrow x = e^y$$

$$I = \int_0^1 dy\int_{\sqrt{1-y}}^{e^y} f(x,y)dx$$

7. Berilgan ikki o'lchamli integralni hisoblang:
Berilishi:

$$\iint_{(D)}(8xy+9x^2y^2)dxdy;$$

$$(D): x=1, y=\sqrt[3]{x}, y=-x^3;$$



7-chizma

$$\iint_{(D)}(8xy+9x^2y^2)dxdy=$$

$$=\int_0^1 dx\int_{-x^3}^{\sqrt[3]{x}}(8xy+9x^2y^2)dy=\int_0^1\left[4xy^2\Big|_{-x^3}^{\sqrt[3]{x}}+3x^2y^3\Big|_{-x^3}^{\sqrt[3]{x}}\right]dx=$$

$$=\int_0^1\left[4x\sqrt[3]{x^2}-4xx^6+3x^2x+3x^2x^9\right]dx=$$

$$=\int_0^1\left[4x^{1+\frac{2}{3}}-4x^7+3x^3+3x^{11}\right]dx=\frac{4x^{\frac{5}{3}+1}}{\frac{5}{3}+1}\Bigg|_0^1-4\frac{x^8}{8}\Bigg|_0^1+$$

$$+3\frac{x^4}{4}\Big|_0^1+3\frac{x^{12}}{12}\Big|_0^1=\frac{3}{2}-\frac{1}{2}+\frac{3}{4}+\frac{1}{4}=2$$

8. Tenglamasi Dekart koordinatalarida berilgan egri chiziq bilan chegaralangan yassi figuraning yuzini ikki o'lchamli

integral yordamida qutb koordinatalar sistemasiga o'tib hisoblang (a>0).

Berilishi: $(x^2+y^2)^2=a^2(2x^2+3y^2)$

Bu tenglama – lemniskata deb ataluvchi egri chiziq tenglamasidir. Qutb kordinatalariga o'tamiz:

$$x=\rho\cos\theta, y=\rho\sin\theta.$$

$$(\rho^2\cos^2\theta+\rho^2\sin^2\theta)^2=a^2(2\rho^2\cos^2\theta+3\rho^2\sin^2\theta)$$

$$\rho^4=a^2\rho^2(2\cos^2\theta+3\sin^2\theta)$$

$$\rho^2=a^2(2+\sin^2\theta)$$

$$\rho=a\cdot\sqrt{2+\sin^2\theta}.$$

Demak, qutb koordinatalar sistemasida figuraning chegaralari quyidagi tenglamalar bilan aniqlanadi:

$$\rho=\Phi_1(\theta)=0,\qquad \rho=\Phi_2(\theta)=a\sqrt{2+\sin^2\theta};$$

θ burchakning 0 dan $\frac{\pi}{2}$ gacha o'zgarishi yassi figuraning $\frac{1}{4}$ yuzasiga mos keladi.

$$\frac{1}{4}S=\int_0^{\frac{\pi}{2}}d\theta\int_{\Phi_1}^{\Phi_2}\rho\,d\rho=\int_0^{\pi/2}d\theta\int_0^{a\sqrt{2+\sin^2\theta}}\rho\,d\rho=$$

$$\int_0^{\pi/2}\frac{\rho^2}{2}\Bigg|_0^{a\sqrt{2+\sin^2\theta}}d\theta=\int_0^{\pi/2}\frac{1}{2}a^2(2+\sin^2\theta)d\theta=\frac{2a^2}{2}\theta\Big|_0^{\frac{\pi}{2}}+\frac{1}{2}a^2\int_0^{\pi/2}\frac{1-\cos2\theta}{2}d\theta$$

$$=\frac{\pi a^2}{4}+\frac{1}{2}a^2\left[\frac{1}{2}\theta\Big|_0^{\frac{\pi}{2}}-\frac{1}{4}\sin2\theta\Big|_0^{\frac{\pi}{2}}\right]=\frac{\pi a^2}{4}+\frac{\pi}{8}a^2=\frac{3\pi a^2}{8}$$

Bundan esa, $S=\frac{3\pi a^2}{2}$ ekanligi kelib chiqadi.

1. Berilgan sirtlar bilan chegaralangan jismning hajmini uch o'lchamli integral yordamida hisoblang.

Berilishi:

$z = 0, \quad z = 4 - x - y, \quad x = 2, \quad y = 3,$

$x = 0, \quad y = 0;$

Jismning hajmi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$V = \int_a^b dx \int_{y_1(x)}^{y_2(x)} dy \int_{f_1(x,y)}^{f_2(x,y)} dz$$

Berilgan sirtlar bilan chegralangan jismning ko'rinishi quyidagichadir:



8-chizma

$f_1(x,y) = 0, \qquad f_2(x,y) = 4 - x - y;$

$y_1(x) = 3 \qquad x = 0 \quad dan; \qquad x = 1 \quad gacha$

$y_1(x) = 4 - x \qquad x = 1 \quad dan; \qquad x = 2 \quad gacha$

$a = 0; \qquad b = 2;$

Demak,

$$V = \int_0^1 dx \int_0^3 dy \int_0^{4-x-y} dz + \int_1^2 dx \int_0^{4-x} dy \int_0^{4-x-y} dz = \int_0^1 dx \int_0^3 [4-x-y] + dy$$

$$\int_1^2 dx \int_0^{4-x} [4-x-y]dy = \int_0^1 \left(4y - xy - \frac{y^2}{2}\right)\Bigg|_0^3 dx + \int_1^2 \left(4y - xy - \frac{y^2}{2}\right)\Bigg|_0^{4-x} dx =$$

$$\int_0^1 \left(12 - 3x - \frac{9}{2}\right)dx + \int_1^2 \left(16 - 4x - 4x + x^2 - \frac{16 - 8x + x^2}{2}\right)dx =$$

$$= \int_0^1 (7{,}5 - 3x)dx + \int_1^2 (8 - 4x + \frac{x^2}{2})dx = (7{,}5x - 1{,}5x^2)\Big|_0^1 +$$

$$(8x - 2x^2 + \frac{1}{6}x^3)\Big|_1^2 = 9\frac{1}{6};$$

2. $L: 2x + y = 2$ to'g'ri chiziqning A(1;0) nuqtasidan B(0,2) nuqtasigacha bo'lgan kesma bo'ylab berilgan $\int_L (xy-1)dx + x^2 y dy$ egri chiziqli integralni hisoblang.

$$2x + y = 2 \Rightarrow y = 2 - 2x.$$

$$\int_A^B (xy-1)dx + x^2 y dy = \int_1^0 (x(2-2x)-1)dx + \int_1^0 x^2(2-2x)d(2-2x) =$$

$$= \int_1^0 (2x - 2x^2 - 1)dx + \int_1^0 (2x^2 - 2x^3)(-2)dx = \int_1^0 [2x - 2x^2 - 1 + (2x^2 - 2x^3)(-2)]dx =$$

$$= \int_1^0 (2x - 2x^2 - 1 - 4x^2 + 4x^3)dx = \int_1^0 (4x^3 - 6x^2 + 2x - 1)dx = (x^4 - 2x^3 + x^2 - x)\Big|_1^0 =$$

$$-1 + 2 - 1 + 1 = 1$$

4-§. TO'RTINChI YOZMA ISh

1. Kompleks ifodaning qiymatini hisoblang:

$$W=(-1-i)^{1+i}$$

$$W=(-1-i)^{1+i}=$$

$$=e^{(1+i)Ln(-1-i)}=e^{(1+i)\left(\ln\sqrt{2}+i\cdot\left(-\frac{3\pi}{4}+2\pi k\right)\right)}=$$

$$=e^{(1+i)\left(\frac{1}{2}\ln 2+i\cdot\left(-\frac{3\pi}{4}+2\pi k\right)\right)}=$$

$$=e^{\frac{1}{2}\ln 2+i\left(-\frac{3\pi}{4}+2\pi k\right)+\frac{i}{2}\ln 2+i^2\left(-\frac{3\pi}{4}+2\pi k\right)}=$$

$$=e^{\frac{1}{2}\ln 2-\left(-\frac{3\pi}{4}+2\pi k\right)+i\cdot\left(-\frac{3\pi}{4}+2\pi k+\frac{1}{2}\ln 2\right)}=$$

$$=e^{\frac{1}{2}\ln 2\frac{3}{4}\pi-2\pi k}\cdot\left(\cos\left(\frac{\ln 2}{2}-\frac{3\pi}{4}\right)+i\cdot\sin\left(\frac{\ln 2}{2}-\frac{3\pi}{4}\right)\right);$$

2. Berilgan kompleks o'zgaruvchili $W=f(z), z=x+iy$ funksiyani $W=U(x,y)+iV(x,y)$ ko'rinishda yozing va uning analitikligini tekshiring. Agar $W=f(z)$ funksiya analitik bo'lsa uning berilgan z_0 nuqtada hosilasini toping:

$$W=e^{iz^2}, z_0=\frac{\sqrt{\pi}}{2}i$$

$$W=e^{i\cdot(x+iy)^2}=e^{i\cdot(x^2+2ixy-y^2)}=e^{-2xy+(x^2-y^2)\cdot i}=$$

$$e^{-2xy}e^{(x^2-y^2)\cdot i}=e^{-2xy}\left(\cos(x^2-y^2)+i\sin(x^2-y^2)\right).$$

Koshi-Riman shartini tekshiramiz:

$$\frac{\partial U}{\partial x}=\frac{\partial V}{\partial y};\quad \frac{\partial U}{\partial y}=-\frac{\partial V}{\partial x};$$

$$\frac{\partial U}{\partial x}=\frac{\partial}{\partial x}\left(e^{-2xy}\cos(x^2-y^2)\right)=-2e^{-2xy}\cos(x^2-y^2)+$$
$$+e^{-2xy}(-\sin(x^2-y^2)2x)=-2e^{-2xy}\left(y\cos(x^2-y^2)+x\sin(x^2-y^2)\right);$$

$$\frac{\partial V}{\partial y}=\frac{\partial}{\partial y}\left(e^{-2xy}\sin(x^2-y^2)\right)=-2e^{-2xy}\sin(x^2-y^2)+$$
$$+e^{-2xy}\cos(x^2-y^2)(-2y)=-2e^{-2xy}\left(x\sin(x^2-y^2)+y\cos(x^2-y^2)\right);$$

Demak, $\dfrac{\partial U}{\partial x}=\dfrac{\partial V}{\partial y};$

$$\frac{\partial U}{\partial y}=\frac{\partial}{\partial y}\left(e^{-2xy}\cos(x^2-y^2)\right)=-2xe^{-2xy}\cos(x^2-y^2)+$$
$$+e^{-2xy}(-\sin(x^2-y^2)(-2y))=2e^{-2xy}\left(y\sin(x^2-y^2)+x\cos(x^2-y^2)\right);$$

$$\frac{\partial V}{\partial x}=\frac{\partial}{\partial x}\left(e^{-2xy}\sin(x^2-y^2)\right)=-2ye^{-2xy}\sin(x^2-y^2)+$$
$$+e^{-2xy}(x\cos(x^2-y^2)(2x))=2e^{-2xy}\left(x\cos(x^2-y^2)-y\sin(x^2-y^2)\right);$$

Demak,

$$\frac{\partial U}{\partial y}=-\frac{\partial V}{\partial x};$$

Bundan kelib chiqadiki berilgan funksiya analitikdir.

$$\frac{\partial W}{\partial z}=\frac{\partial U}{\partial x}+i\frac{\partial v}{\partial x}=-2e^{-2xy}\left(y\cos(x^2-y^2)+x\sin(x^2-y^2)\right)+$$

$$+i\left(2e^{-2xy}\left(\cos(x^2-y^2)-y\sin(x^2-y^2)\right)\right)=$$

$$-2ye^{-2xy}\left[\cos\left(x^2-y^2\right)+i\sin\left(x^2-y^2\right)\right]+$$

$$+2xe^{-2xy}\left[i\cos(x^2-y^2)-\sin(x^2-y^2)\right]=$$

$$=2xie^{-2xy}\left[\cos(x^2-y^2)+i\sin(x^2-y^2)\right]-$$

$$-2ye^{-2xy}\left[\cos(x^2-y^2)+i\sin(x^2-y^2)\right]=2xie^{iz^2}-2ye^{iz^2}$$

$$=2e^{iz^2}(xi-y)=2ie^{iz^2}(x+iy)=2ize^{iz^2}.$$

$$\left.\frac{\partial W}{\partial Z}\right|_{z_0=\frac{\sqrt{\pi}}{2}\cdot i}=2i\frac{\sqrt{\pi}}{2}ie^{i\cdot\left(\frac{\sqrt{\pi}}{2}\cdot i\right)^2}=-\pi e^{-i\cdot\frac{\pi}{4}}=$$

$$=-\pi\left(\cos\frac{\pi}{4}-i\sin\left(\frac{\pi}{4}\right)\right)=-\pi\left(\frac{\sqrt{2}}{2}-\frac{\sqrt{2}}{2}i\right)=-\frac{\sqrt{2}}{2}\pi+\frac{\sqrt{2}}{2}\pi\cdot i$$

3. Berilgan f(z) funksiyani z_0 nuqta atrofida Loran qatoriga yoying va uning yaqinlashish sohasini toping:

$$f(z)=\frac{7z-19}{z^2-6z+5};\quad z_0=1.$$

$$f(z)=\frac{7z-19}{z^2-6z+5}=\frac{7z-19}{(z-5)(z-1)}=\frac{A}{z-5}+\frac{B}{z-1}=$$

$$=\frac{A(z-1)+B(z-5)}{(z-1)(z-5)};\Rightarrow A(z-1)+B(z-5)=7z-19.$$

$$z=1\Rightarrow\ -4B=-12\ \Rightarrow\ B=3$$

$$z=5\Rightarrow\ 4A=16\ \Rightarrow\ A=4$$

Demak, $f(z)=\frac{4}{z-5}+\frac{3}{z-1};$

Ma'lumki,

$$\frac{1}{1-z}=\sum_{n=0}^{\infty}z^n,\qquad |z|<1\text{ da.}$$

Bundan

$$\frac{4}{z-5}=\frac{4}{-4+(z-1)}=-\frac{4}{4-(z-1)}=\frac{-4}{4\left(1-\frac{z-1}{4}\right)}=$$

$$=-\frac{1}{1-\frac{z-1}{4}}=-\sum_{n=0}^{\infty}\left(\frac{z-1}{4}\right)^n=-\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(z-1)^n}{4^n};$$

Demak,

$$f(z)=-\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(z-1)}{4^n}+\frac{3}{z-1};\qquad 0<|z-1|<1$$

doirada yaqinlashuvchidir.

4. Berilgan integralni hisoblang:

$$I=\int_{|z|=7}\frac{e^z}{z^3-5z^2}dz;$$

Integrallash sohasining grafigini tuzamiz:



9-chizma

Demak, $\int\limits_{|z|=7}\frac{e^z}{z^3-5z^2}dz=\int\limits_{\delta_1}\frac{e^z}{z^3-5z^2}dz+\int\limits_{\delta_2}\frac{e^z}{z^3-5z^2}dz=$

$$\int\limits_{\delta_1}\frac{\frac{e^z}{z-5}}{z^2}dz+\int\limits_{\delta_2}\frac{\frac{e^z}{z^2}}{z-5}dz=\frac{2\pi i}{1!}\left(\frac{e^z}{z-5}\right)'\Bigg|_{z=0}+2\pi i\left(\frac{e^z}{z^2}\right)\Bigg|_{z=5}=$$

$$=2\pi i\left(\frac{e^z(z-5)-e^z}{|z-5|^2}\right)'\Bigg|_{z=0}+2\pi i\left(\frac{e^5}{25}\right)=2\pi i\left(\frac{-6}{25}\right)+2\pi i\left(\frac{e^5}{25}\right)=$$

$$=2\pi i\left(\frac{e^5-6}{25}\right)=\frac{2\pi i}{25}\left(e^5-6\right);$$

5. Agar A hodisaning har bir sinovda ro'y berish ehtimoli 0,25 ga teng bo'lsa, bu hodisaning 243 ta sinovda rosa 70 marta ro'y berish ehtimolini toping.

